

Z. ISLOMOV, D. RAHIMJONOV, J. NAJMIDDINOV, N.ISMATOVA

# DUNYO DINLARI TARIXI

**O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi  
va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun darslik**

1-nashri

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi  
tasdiqlagan**

Toshkent  
«Yangiyul Poligraph Service»  
2018

UO'K: 2-9(100)(075.3)

KBK: 86.2(0)

I 80 **Islomov, Zohidjon.**

**Dunyo dirlari tarixi:** O'rta ta'lif muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalari uchun darslik / Z. Islomov, D. Rahimjonov, J. Najmuddinov, N. Ismatova. — Birinchi nashr. — Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2018. — 144 b.

ISBN 978-9943-5245-0-7

UO'K: 2-9(100)(075.3)

KBK: 86.2(0)ya72

**Mas'ul muharrirlar:**

**A. Hasanov** — tarix fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**N. Muhamedov** — tarix fanlari nomzodi, dotsent

**M. Alimova** — tarix fanlari nomzodi, dotsent

**A. Zamonov** — tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**F. Karimov** — siyosiy fanlar doktori

**J. Tohirov** — Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lif maktabi o'qituvchisi

**Sh. Qudratov** — Toshkent shahridagi 41-maktabning tarix fani o'qituvchisi

**B. Mahmudboev** — Guliston Davlat universiteti qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2018-yil 1-maydagi 2484-raqamli tavsiysi, O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning 2018-yil 24-apreldagi 34-sonli xulosasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-5245-0-7

© Z. Islomov, D. Rahimjonov,

J. Najmuddinov, N. Ismatova. 2018.

© Yangiyul Poligraph Service, 2018.

# Kirish

O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari emin-erkin o‘z urf-odatlarini davom ettirib, dinlariga e’tiqod qilib yashamoqdalar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi ham aynan dinlararo bag‘rikenglik masalasiga bag‘ishlangan. Mazkur dasrlik quyi sinflarda olgan bilimlaringizni mustahkamlaydi va boyitadi.

## Aziz o‘quvchilar!

«Dunyo dinlari tarixi» fanini o‘rganar ekansiz, e’tiqodingizdan qat’i nazar boshqa dinlarni kamsitmasligingiz, boshqalarning diniy his-tuyg‘ularini hurmat qilish qoidalariga rioya qilishingiz zarur.

Darslikdagi mavzular bo‘limlarga ajratilgan. Har bir bo‘limda darsda o‘rganiladigan asosiy tushunchalar, mavzuga oid qo‘srimcha ma’lumotlar, allomalar va buyuk davlat arboblarining ibratli fikrlari, qiziqarli faktlar, ijodiy faoliyat hamda mustahkamlash uchun savollar o‘rin olgan. Matnda uchraydigan ba’zi atamalar sharhini kitob oxirida berilgan lug‘atdan topishingiz mumkin.

Darslikni tayyorlashda mavzularga oid ilmiy va diniy-ma’rifiy adabiyotlardan, davriy nashrlar, turli diniy konfessiyalarning aqidaviy qarashlari bayon etilgan hujjat va muqaddas kitoblardan, internet tarmog‘idagi ma’lumotlardan, shuningdek, badiiy adabiyotlardan foydalаниди. Kitobda jahon dinlarining muqaddas diniy manbalaridan iqtiboslar keltirilgan. Shu sababli uni turli nojo‘ya joylarda qoldirmasligingiz lozimdir.

Darslikdagi ijodiy faoliyat hamda qo‘srimcha o‘qish uchun berilgan topshiriqlarni bajarish orqali siz mustaqil va mantiqiy fikrlash, kommunikativlik, tarixiy manbalar bilan ishlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish, axborot olish va undan foydalanish, ijtimoiy faoliik kabi hayotiy kompetensiyalarining shakllantirasiz. Bu esa sizlarga Vatan oldidagi burch va mas’uliyatini anglaydigan komil inson bo‘lishingizda yordam beradi. Bu ishda sizga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

# 1-§

# O'ZBEKİSTONDA XAVFSIZLIK VA BARQARORLIK MUHİTINI SHAKLLANTIRISH



## BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Xavfsizlikni ta'minlash – eng muhim masala.
2. Xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda millatlararo totuvlikning ahamiyati.



Odobsiz, tarbiyasiz va badxulq kishilar bilan tortishmang.

*Imom  
G'azzoliy*

## XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH – ENG MUHIM MASALA

Bugungi kunda xavfsizlik butun dunyoda eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Yil sayin davlatlar tomonidan mudofaa tizimi va harbiy sohaga ajratilayotgan xarajatlarning oshib borayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq, faqatgina zamonaviy qurol-yarog'ga ega bo'lishning o'zigina xavfsizlikni ta'minlash uchun yetarli emas.

Chunki, buzg'unchi kuchlar ochiqchasiga kurash olib bormay, balki xiyonatkorona qo'poruvchilik amaliyotlarini qo'llash, tinch aholini nishonga olish kabi qabih usullardan foydalanmoqdalar.



Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelganlar. Mehmondo'stlik, ezzulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

*Shavkat Mirziyoyev*

Bunda esa milliy va diniy nizolarni keltirib chiqarish asosiy vosita hisoblanadi. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida davlat-huquqiy, etno-hududiy va etnodemografik sabablarga ko‘ra ro‘y bergen 300 dan ortiq katta-kichik nizolar qayd qilingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining saylovoldi dasturida tinchlikni ta’minlash, millatlar va dinlararo totuvlik muhitini qo‘llab-quvvatlash, din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi ayovsiz kurashish masalarini asosiy tamoyil sifatida olg‘a surdi.

O‘zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakkari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e’tiqod va dunyo-qarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu zamin ota-bo-bolarimiz yashab o‘tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin Sharq va G‘arbning, Shimol va Janubning, qadim o‘tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko‘hna o‘choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning




Imonning  
afzali sabr va  
bag‘rikenglikdir.

**Hadis**



## MA’LUMOT UCHUN



**HARAKATLAR STRATEGIYASI  
2017–2021**

Saylovoldi dasturidan kelib chiqqan holda, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo‘nalish sifatida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqr o‘ylangan, o‘zar manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Bu ham yurtimizda fuqarolar xavfsizligi, millatlar va dinlararo bag‘rikenglikka berilayotgan e’tibordan dalolat beradi.



Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhi-da tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi.

*Shavkat  
Mirziyoyev*

ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni bejiz «Falsafiy tafakkur beshigi» deb ta’riflamagan. Shuni ta’kidlash joizki, bizning sivilizatsiya o‘ziga xos bag‘rikenglik tafakkur uslubiga tayanadi.

Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda.

## **XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MILLATLARARO TOTUVLIKNING AHAMIYATI**

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng nafaqat o‘zbek xalqi, balki mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub aholining ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan milliy-madaniy markazlar tashkil etildi. Ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash uchun 1992-yil 13-yanvarda Respublika baynalmil madaniyat markazi tashkil etildi.



## **TARIXGA NAZAR**

Ma’lumotlarga ko‘ra, bundan yuz yil avval hozirgi respublikamiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilganlar. 1926-yilda respublikamizda 90 ta millat va elat vakillari yashagan bo‘lsa, 1959-yilda ularning soni 113 taga, 1979-yilda 123 taga yetdi, 1989-yilda esa ularning soni 130 dan ortdi.

2017-yilda mazkur markaz tashkil etilganining 25 yilligi keng nishonlandi. Shu yil 19-may kuni mazkur markazning faoliyatini yanada rivojlantirish, xorij-dagi vatandoshlar bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta‘minlash, fuqarolar ongida katta, ko‘p millatli yagona oilaga mansublik tuyg‘usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyat-lari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan mada-niy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Mazkur qo‘mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash, tinchliksevar siyo-satni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ‘ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldag‘i hamyurtlarimiz diasporasi bilan do‘stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklandi.

Millatlararo munosabatlar yo‘nalishidagi dol-zarb masalalardan biri aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta‘lim-tarbiya tizimini tashkil etishdan iborat. Bu borada Xalq ta‘limi vazirligining 2017–2018-o‘quv yili uchun asosiy ko‘rsatkichlar statistikasidagi ma‘lumotga ko‘ra, respublikamizda 9628 ta maktab faoliyat yuritmoqda. Shundan 9018 ta maktabda o‘zbek tilida, 903 tasida rus tilida, 365 tasida qo-raqalpoq tilida, 378 tasida qozoq tilida, 245 tasida tojik



Ey insonlar!  
Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo) dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishi-shingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo‘ydik. Albatta, Alloh nazdidagi (eng aziz-u) mukarramrog‘ingiz taqvodorro-g‘ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir.

*Qur‘oni  
karim, Hujurot  
surasi, 13-oyat*



## IJODIY FAOLIYAT

Ushbu matnni o‘qing, undagi «mafkuraviy immunitet» atamasini izohlang.

*«Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog’lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo’lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur».*



O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

*O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 4-moddasidan*

tilida, 44 tasida turkman tilida, 90 tasida qirg‘iz tilida ta’lim berish yo‘lga qo‘yilgan. Shuni unutmaslik kerakki, qayerda millatlararo totuvlik g‘oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular esa tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahoning ayrim mintaqalarida sodir bo‘layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g‘oyasini amalga oshirishga g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘siq tajovuzkor milatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g‘oya tuzog‘iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga



yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, fashizm g‘oyasi insoniyat boshiga ko‘plab kulfat, ofat-balolar yog‘dirgan va oxir-oqibatda o‘zi ham halokatga uchragan.

Lekin hanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g‘oyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g‘oyasiga qarshi «salib yurishi» kabi harakatlarni uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni hushyor torttirishi lozim. Ma‘lumotlarga ko‘ra, bugun dunyo bo‘yicha 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti mavjud. Bir yil mobaynida butun Yer yuzida sodir etilgan teraktlar va ularning oqibatida halok bo‘lganlarning soni bir necha o‘n mingni tashkil etishi terrorizmning tinchlik va xotirjamlikni izdan chiqarishga qaratilgan asosiy tahdidlardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda keyinchalik ham xotirjam tong ottirish, uyquga ketish, ta’lim olish va kelajak haqida rejalarни qurishni istar ekanmiz, tinchlik, xavfsizlik, barqarorlikni ta’minalash birinchi navbatdagи masala bo‘lib qolaveradi. Uni amalga oshirishda barchamiz bir tan-u bir jon bo‘lib harakat qilmog‘imiz lozim.



Qushlar kabi havoda uchishni o‘rgandik. Baliqlar kabi dengizlarda suzishni o‘rgan-dik. Lekin hozirgacha yer yuzida aka-ukadek yashashni o‘rganmadik.

*Martin  
Lyuter King*



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xavfsizlik va barqarorlikning ahamiyatini qanday baholaysiz?
2. Yoshi ulug‘ keksalardan urush va tinchlik haqidagi fikrlarini so‘raganmisiz?
3. Xavfsizlikni ta’minalashda millatlararo totuvlikning ahamiyati nimalardan iborat?
4. Bugungi kunda butun dunyodagi barqarorlikka tahdid solayotgan eng katta xavf nima deb o‘ylaysiz?

## 2-§

# DINSHUNOSLIKDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR



## BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Dinshunoslik fanining rivojlanish tarixi.
2. Din sotsiologiyasi, falsafasi, psixologiyasi, fenomenologiyasini o‘rganishdagi yangi tendensiyalar.



## MA’LUMOT UCHUN

Dinshunoslik — dunyoda mavjud dinlar haqida xolis, ilmiy yondashgan holda ma’lumot beruvchi fan.

## DINSHUNOSLIK FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Dunyodagi barcha dinlar va ular bilan bog‘liq jayronlarni xolisona o‘rganuvchi fan «Dinshunoslik» deb ataladi. Mazkur fanning sohalari juda ko‘p bo‘lib, ular dan biri «Dunyo dinlari tarixi»dir.

Dinlarni o‘rganish uzoq tarixga ega. Antik davrlar dayoq insonlar din va uning mohiyati haqida fikr yurit ganlar.

Rim imperatori Konstantin I davrida (IV asr) xristian dini boshqa dinlar bilan bir mavqega ega bo‘ldi. Keyinchalik Yevropada xristianlik dinining Rim imperiya si tomonidan davlat dini sifatida e’tirof etilishi hamda



## TARIXGA NAZAR

Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ham turli xalqlarning dinlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, «tarix otasi» nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) ham o‘zi tadqiq qilgan xalqlarning tarixi haqida ma’lumot berish barobarida ularning dinlari haqida ham to‘xtalib o‘tgan.



## IJODIY FAOLIYAT



Gomer va Gesiodning asarlaridan xudolar va gahramonlar haqida berilgan ma'lumotlarni eslang.

Ushbu asarlar orqali qaysi davrga oid dinlar haqida ma'lumot olish mumkin?

cherkovning asta-sekin hokimiyatni qo'lga olishi natijasida ilm-fan ham xristianlik ta'siriiga tushib qoldi. Bu davrda dinlar borasidagi tadqiqotlar faqatgina ilohiyotga oid bo'lib, xristianlik, xususan, katoliklikning boshqalardan ustunligini isbotlashga yo'naltirilgan edi.

VII-VIII asrlarda o'sha davrda mavjud dinlar haqida kichik risolalar paydo bo'lgan. VIII-IX asrlarda esa dinlar tarixi va ta'limotlariga oid ilk kitoblar yaratildi.

XIX asrga kelib Yevropa mintaqasida cherkovning ta'siri kamaydi. Natijada boshqa fanlar qatori dinshunoslik fani ham cherkov ta'siridan chiqa boshladи. Shu davrda Maks Myullerning «Qiyosiy mifologiya», «Dinlarning asosi va shakllanishiga oid ma'ruzalar» nomli asarlari nashrdan chiqdi.



*Imperator Konstantinning cho'qintirilishi, Rafael*



## MA'LUMOT UCHUN

Buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy haqiqiy ma'noda musulmon sharqidagi dinshunoslik fanining otasi nomiga munosibdir.

Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» kabi asarlarida turli dinlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.



Ilm mol-dunyodan ko‘ra yaxshiroqdir. Chunki, ilming seni asraydi, mol-dunyoni esa sen asrashning kerak bo‘ladi. Mol-dunyo sarf qilinsa kamayadi, ilm esa o‘zgalarga o‘rgatish bilan yanada ziyoda bo‘laveradi.

*Ali ibn Abu Tolib*

Keyinchalik Myuller mashhur Oksford universitetida dinlar tarixidan ma’ruzalar o‘qigan va birinchi bo‘lib «dinshunoslik» atamasini iste’molga kiritgan. Shu yo‘sinda, dinshunoslik Parij, Bryussel va Rim universitetlarida fan sifatida o‘qitila boshlangan. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida dinshunoslik fani, asosan, dinlarni tanqid qilish va «eskilik sarqiti» ekanini isbotlash uchun o‘rganildi. Natijada uning nomlanishi ham «Ilmiy ateizm» deb o‘zgartirildi. Yillar davomida universitetlarda «Ilmiy ateizm» kafedralari tashkil etilib, talabalarga «din xalq uchun afyundir», degan g‘oya singdirildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, dinshunoslik sohasi ham ateistik mafkura ta’siridan chiqarildi.

O‘sib kelayotgan avlodda dinlar haqida to‘g‘ri va xolis fikrlarni shakllantirish, ularni dinlararo bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash maqsadida 90-yillarning o‘rtalariдан umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quv dasturiga «Dunyo dinlari tarixi» fani kiritildi.

2017-yilda qabul qilingan yangi tartibga muvofiq «Dunyo dinlari tarixi» asosiy fan sifatida e’tirof etildi. 1999-yilda Toshkent islam universitetining tashkil etilishi mazkur sohaning rivojlanishiga katta hissa bo‘lib



## TARIXGA NAZAR

Islam olamida qiyosiy dinshunoslik sohasida ham salmoqli ishlar qilingan. Ulardan Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Ibn Nadimning «Ko‘rsatkich», Muhammad ibn Huzaylning «Majusiylik va ko‘pxudolik kitobi», Abul-Abbos Ahmad ibn Muhammad Saraxsiyning «Sobiylarning mazhablari vasfi haqida risola», Abu Zayd Balxiyning «Dinlar shariatlari kitobi» asarlarini sanab o‘tish mumkin.

qo'shildi. Universitet o'z yo'nalishlari bo'yicha bakalavr va magistr mutaxassislarini tayyorlay boshladi.

2018-yil 16-aprelda mamlakatimiz Prezidentining Farmoniga ko'ra, O'zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent islom universitetlari negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi.

## DIN SOTSIOLOGIYASI, FALSAFASI, PSIXOLOGIYASI, FENOMENOLOGIYASINI O'RGANISHDAGI YANGI TENDENSIYALAR

Dinshunoslik tarix, falsafa, psixologiya, sotsiologiya kabi ijtimoiy fanlar bilan mustahkam bog'liqidir. Bu bog'liqlik natijasida dinshunoslik tarkibida bir qancha sohalar yuzaga kelgan.

*Din sotsiologiyasi* – din va jamiyat munosabatlari hamda shu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi natijalarni o'rganuvchi dinshunoslik sohasi. U dinding davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqeа-hodisalarini, turli diniy jamoalarning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini tadqiq qiladi. Din sotsiologiyasi ham ijtimoiy, ham diniy ilmlarga tayanadi.



### MA'LUMOT UCHUN

**Din tarixi** — dinlarni tarixiy nuqtayi nazardan o'rganadigan dinshunoslik sohasi. Unda asosan dinlar yuzaga keli-shining tarixiy shart-sharoitlari, asoschilar, ilk jamoalar, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holatiga ahamiyat beriladi.



## IJODIY FAOLIYAT

Quyidagi hujjatni o'qing va mazkur qoida milliy qonun hujjatlarida qanday aks etganligini aniqlang.

*Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq... toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusum hamda marosimlarni om-maviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi.*

*Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, 18-modda*



Modomiki,  
donolarcha javob  
berishlarini  
xohlar ekansan –  
donolarcha savol  
ber.

*Gyote*



## IJODIY FAOLIYAT

Quyidagi rasmlarga qarab, dinning ijtimoiy hayotda bajarayotgan funksiyalarini izohlashga harakat qiling.



## MA'LUMOT UCHUN

Sotsiologiya atamasi lotincha *societas* — «jamiyat» va yunoncha *logos* — «ta'limot» so'zlarining birikmasidan olingan bo'lib, u bevosita jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi.



## IJODIY FAOLIYAT

Mazkur matnni o‘qing. Matn dinshunoslikning qaysi sohasiga oid ekanligini tahlil qiling.

*«...podshoh Doro ibn Doro xazinasida Abisto (Avesto)ning o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan yozilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar Maqduniy otashxonalarini vayron qilib, ularga xizmat qiluvchilarni o‘ldirgan vaqtida uni kuydirib yuborgan edi. Shuning uchun o‘sha vaqt-dan beri Abistonning beshdan uch qismi (ya’ni, o‘n sakkiz naski) yo‘qolib ketdi. Abisto o‘ttiz nask edi, majusiyalar qo‘lida chamasi o‘n ikki nask (qism) qoldi».*

*Abu Rayhon Beruniy*

**Din falsafasi** — dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bog‘liqligini o‘rganadigan soha. U Xudoning mavjudligi, sifatlari, yaratuvchi va borliq munosabatlari, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirlish, payg‘ambarlik va vahiy kabi keng miqyosdagi masalalarni qamrab oladi.

**Din fenomenologiyasi** — dinning ko‘zga ko‘rinuvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini o‘rganuvchi ilm sohasi.

Din fenomenologiyasi diniy tuyg‘u va uning ko‘rinishlari butun dunyoda deyarli bir-biriga o‘xshashiga



## MA’LUMOT UCHUN

Fenomen «namoyon bo‘luvchi», «ko‘zga ko‘rinuvchi» narsa bo‘lib, fenomenologiya ko‘zga ko‘rinuvchi narsaning sistematik shaklda tadqiq qilinishidir.



## MA’LUMOT UCHUN

Diniy ramz (belgi)larda yashirinan ma’nlarni ochish va majoziy so‘zlarining muqaddas mazmunini yoritish kabi ishlar ham din fenomenologiyasining vazifalari doirasiga kiradi.



Sobiq mustabid tuzum davrida yurtimizda jami 80 ga yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2018-yilga kelib ularning soni 2 mingdan oshib ketdi.

ishora qiladi. Turli dinlarning ibodat va marosimlari, muqaddas joy, zamon, narsa va shaxsiyatlarini tadqiq qilib, mushtarak jihatlarini topishga harakat qiladi.

**Din tarixi** — dinlarning yuzaga kelishi va rivojlaniishi bosqichlarini o'rghanuvchi soha. U bir qancha fanlarga tayanadi va ular bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, tarix fani o'tmishdagi voqeа-hodisalarни o'rGANISHI bilan birga, moziy va joriy dinlarning tarixiy shakllanishi jihatidan «Dinlar tarixi»ga yaqindan ko'makchi bo'ladi.

Diniy matnlarning o'rGANILISHIDA filologiya fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari tarixni o'rGANISHDA yordamchi fanlar — mifologiya (rivoyat va afsonalar), etnologiya, arxeologiya, san'at tarixi, folklor va shunga o'xshash bir qancha fanlar ham din tarixi bilan bevosa bog'liq.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Din sotsiologiyasi, falsafasi, psixologiyasi, fenomenologiyasi o'rta-sida qanday bog'lanishlar mavjud?
2. Berilgan jadvalni misollar bilan to'ldiring.

Din sotsiologiyasi	Din falsafasi	Din psixologiyasi	Din fenomenologiyasi

3. Din tarixini o'rGANISHDA qanday fanlar yordamchi hisoblanadi va nima uchun?
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) dan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonini topib o'qing va mohiyatini tushuntiring.

## MA'LUMOT UCHUN

Yil-lar	O'zbekis-tondan haj safariga bor-ganlar soni	O'zbekis-tondan umra safariga bor-ganlar soni
1991	350	0
1992	500	370
1993	1500	1126
1994	3000	2000
1995	3000	1943
1996	3675	2164
1997	3675	3670
1998	3850	2822
1999	3870	2136
2000	3841	1378
2001	3800	1197
2002	3800	1124
2003	3800	1228
2004	4180	1148

Yil-lar	O'zbekis-tondan haj safariga bor-ganlar soni	O'zbekis-tondan umra safariga bor-ganlar soni
2005	4500	2000
2006	5078	2354
2007	5088	4075
2008	5080	4325
2009	5080	4358
2010	5080	6162
2011	5080	6120
2012	5080	6120
2013	5200	5775
2014	5200	6567
2015	5200	6166
2016	5200	6172
2017	7350	6172



(Ey inson!) Agar ular (ota-onal) ning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga «uf!...» dema va ularni jerkima! Ularga (doimo) yoqimli so'z ayt!

*Qur'on'i karim,  
Isro surasi, 23-oyat*

# 3-§

## DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Hozirgi davrda davlat va din munosabatlari.
2. Davlat va din munosabatlarining huquqiy asoslari.
3. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari.

### HOZIRGI DAVRDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI



#### MA'LUMOT UCHUN

Har bir davlat o'zining dingga bo'lgan munosabati ni muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunlar orqali tartibga soladi.

Davlat va din munosabatlarining ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Ayni paytda ushbu munosabatlar turli tarixiy davrlarda har xil mazmun kasb etgan. O'rta asrlarda din jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan, davlat hayotida to'la hukmronlik qilgan davrlar ham bo'lgan. Ayrim davlatlarda din butunlay inkor etilgan, ya'ni ateizm ustunlik qilgan.

XXI asr boshlarida davlat va dinning o'zaro munosabatlari bo'yicha davlatlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- dinga davlat dini maqomi berilgan davlatlar;
- cherkov ta'siri doirasidagi davlatlar;
- dunyoviy yoki diniy munosabatlarda betaraflik yo'lini tutuvchi davlatlar;
- rasmiy dinga ega bo'lмаган davlatlar;
- din davlatdan ajratilgan davlatlar;
- katolik cherkovi bilan kelishuvga ega davlatlar;
- huquqiy e'tirof etilgan diniy guruhlarni muhofaza qiluvchi davlatlar;
- diniy-jamoaviy tizimli davlatlar.

Davlatlarni bunday guruhlashtirish nisbiydir. Shunday bo‘lsa-da, u davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar ning asosiy xususiyatlarini ochib beradi. Shu bilan birga, bir davlat o‘z belgilari bo‘yicha bir necha guruhga ham kirishi mumkin.

## DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARINING HUQUQIY ASOSLARI

Hozirgi davrda jahondagi bir qator davlatlar dinning davlatdan ajratilganini yoki davlatning diniy tashkilotga nisbatan betarafligini Konstitutsiya yoki qonun darajasi-da belgilab qo‘ygan.

Yuridik tan olingani yoki olimmaganidan qat’i nazar, barcha davlatlar din va e’tiqod erkinligiga hurmat bilan qarashlarini e’lon qilganlar.

Hozirgi davrda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar bir qator xususiyatlari bilan ajralib turishini ta’kidlash zarur. «Sovuq urush» davri tugaganidan keyin dinga qarshi hujumkorlik hamda diniy faoliyat ustidan nazorat qilish siyosati yengillashdi. Bu, bir tomonidan, diniy erkinlikning ta’minlanishiga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, diniy sektalarning ko‘payishi, yan-gilarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Mazkur jarayon



## MA’LUMOT UCHUN

**Bag‘rikenglik**  
so‘zi deyarli bar-cha tillarda bir xil yoki bir-bi-rini to‘ldiruvchi mazmunga ega. Ushbu tushuncha toqatlilik, o‘zga-cha qarashlar va harakatlarga hur-mat bilan munosabatda bo‘lish kabi ma’nolarga ega.



## IJODIY FAOLIYAT

XXI asr boshlarida davlat va dinning o‘zaro munosabatlari bo‘yicha jahondagi davlatlarni guruhlarga bo‘ling.

Masalan: dinga davlat dini maqomi berilgan davlatlar — Qatar, Pokiston, Kosta-Rika va b.

sektalar yoki yangi diniy oqimlar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarini yanada takomillashirishni taqozo etdi.



Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.

*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 61-modda*

## O'ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI

O'zbekistonda o'z mohiyati, mazmuni va huquqiy asoslariga ko'ra din davlatdan ajratilgan hamda vijdon erkinligi, konfessional bag'rikenglik tamoyili mustahkamlangan. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilganligi hamda qonun oldida tengligi qayd etiladi. Shu bilan birga davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmasligi belgilab berilgan.

Mazkur masala O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni mazmunini tashkil etadi. Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlarga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno) aralashmasligini anglatadi. Shu bilan birga Asoziy Qonunimizda davlat o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojanishi uchun sharoit yaratadi, deb ta'kidlanadi.

Diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib



## TARIXGA NAZAR

1995-yil oktabr oyida Toshkent shahrida «Bir samo ostida» shiori bilan xalqaro musulmon-xristian konferensiyasi, 1996-yil noyabrda Rus pravoslav cherkovi Toshkent va Markaziy Osiyo yeparxiyasining 125 yilligi tantanalarini o'tkazildi.

boradilar. Diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xoldir.

Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, din jamiyatdan ajratilmagan. Chunki, har qanday dinga e'tiqod qiluvchi fuqaro jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeyiga ega.

O'zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligining ifodasi sifatida davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarida quyidagi prinsiplarga amal qilishini e'lon qildi:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;



Cherkov va sinagogalarni vayron qilish man etiladi. Bu masalada ilm ahli orasida ixti-lof yo'qdir.

*Abu Mansur Moturidiyning «Ta'viloti ahlis-sunna» kitobi, Qur'oni karim, Haj surasining 40-oyati tafsiri.*



## IJODIY FAOLIYAT



Berilgan rasmlar va quyidagi matn asosida mamlakatimizdagi din va davlat munosabatlariga ta'rif bering.

*Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolutsiyasi ni qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman.*

*Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lif olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat.*

*Shavkat Mirziyoyev,  
BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan.*



Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

*Shavkat  
Mirziyoyev*

- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Respublikamiz hududida davlat va din munosabatlarini tartibga solish, diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlash tirish bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita shug'ullanadi. Qo'mita o'z faoliyatini 1992-yilda boshlagan. O'tgan davr mobaynida yangi sharoitlarning yuzaga kelishi, davlatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi farmoniga binoan qo'mita faoliyati isloh qilindi. Jumladan, xodimlar soni ko'payib, ularning oylik maoshlari oshirildi. Shu bilan birga qo'mita huzurida din sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni o'rganish bo'yicha markaz tashkil qilindi.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Davlat va din munosabatlarining qanday modellarini bilasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi mazkur modellarning qaysi birini qo'llagan?
3. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 61-moddasida davlat va din munosabatlariga oid qanday fikr mustahkamlab qo'yilgan?
4. O'zbekiston Respublikasi davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatida qanday prinsiplarga amal qiladi?

# 4-§ DIN VA IJTIMOIY HAYOT



## BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Dinning jamiyatdagi o'rni.
2. Ijtimoiy munosabatlar va din. Dinning jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalari.

### DINNING JAMIYATDAGI O'RNI

Insoniyat tarixidan yaxshi bilamizki, dunyoning hech bir mintaqasi xalqi ma'lum bir din va e'tiqodlar tizimisiz o'z shaxsiy va ijtimoiy hayotini tasavvur qila olmagan. Tarixiy davrning barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy bo'g'inlari o'z faoliyatlarini yuritish uchun u yoki bu diniy e'tiqod tamoyillariga tayanganlar. Mazkur holat barcha xalq va millatlarga xosdir.

Ijtimoiy hayot shakl va mazmunining o'zgarishi jamiyat a'zolarining dinga bo'lgan munosabatlarining ham tobora o'zgarib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Din va uning arkonlari, avvalambor, ijtimoiy ko'makka muhtoj kishilarni himoya qilishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham jamiyatning zodagonlar tabaqasi uni darhol qabul qilmaganliklarini tarixdan bilamiz.

Keyinchalik esa ba'zi hukmron doiralar dindan o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mavqelarini mustahkamlash maqsadlarida foydalanishga intildilar. Bunda g'ayriinsoniy xatti-harakatlarni amalga oshirishdan ham toymadilar. Jumladan, G'arbda ulkan ilmiy kashfiyotlarni amal-



Agar temir  
ishlatilmasa,  
zanglaydi. Agar  
suv harakatla-  
nib turmasa,  
ayniydi. Agar  
kishi fikrlama-  
sa, aqlda ham  
shunday holat  
yuz beradi.

*Leonardo  
Da Vinci*



Qaysi biringizda  
jahlu g'azab  
qo'zisa, darhol u  
sukut saqlashga  
o'tsin!

\*\*\*

Kimki  
g'ayridinni  
(nohaq) haqorat  
qilsa, qiyomat  
kuni olov  
qamchi bilan  
uriladi.

*Hadis*

ga oshirayotgan olimlar cherkov hukmronligiga xatar tug'dirishi mumkin, degan xulosaga kelindi. Ular jodugarlikda ayblandilar hamda ommaviy tazyiqqa uchradiralar.

G'arbdagi mazkur ijtimoiy holatni O'rta asrlar Movaounnahri, ayniqsa, temuriylar davri bilan qiyoslasak, shunday holatni kuzatamizki, islam dini ulamolari bu davrda yashab, ijod qilgan buyuk allomalarimiz faoliyatini din ahkomlariga zid, deb qoralamaganlar.

Sobiq totalitar tuzum davrida milliy-madaniy mero-simizni ilm-fanning kushandas qilib ko'rsatishga astoy-dil kirishildi. Masalan, o'tgan asrning 70-yillarda suratga olingan filmda Mirzo Ulugbekning o'limida Xo'ja Ahror Valiy aybdor qilib ko'rsatilgan. Go'yoki, Xo'ja Ahror Valiy shahzoda Abdulatifni «otang kufr ishlarni olib boryapti va bu bilan shakkoklik qilyapti», «kofirni o'ldirish tufayli esa islamda katta ajr-savobga erishila-



*Galileo Galilei inkvizitsiya  
sudi oldida*



*Cherkov tomonidan J. Bruno  
kitoblarining yoqilishi*

di» degan fatvoni bergandek epizodlar mavjud. Tarixiy haqiqatga ko‘ra Xo‘ja Ahror Valiy Mirzo Ulug‘bek qatl qilinganda umuman Samarqandda bo‘lмаган. Aksincha, u kishi temuriyzodalar o‘rtasidagi toj-taxt uchun kechayotgan urushlarning oldini olishga astoydil harakat qilgan.

XX asrda sobiq Ittifoq hududida boshqa dinlar qatori islom diniga oid bilimlarning ham tanazzulga uchrashi jaholatning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Ateizm g‘oyasi ustuvorlik qilishga harakat qildi. Natijada, islom dini ta’limotiga yot bo‘lgan unsurlar ijtimoiy hayotga kirib kela boshladi. Lekin, islom dini ta’limotida ustoz-shogird an’anasi shakllangan bo‘lib, diniy bilimlar ustoz-



O‘n barobar boyib ket-sang-da, hayot tarzingni o‘zgartirma.

*Lev Tolstoy*

Dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklari ni egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni quolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatлari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi.





Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarning tuzilishi va faoliyatini taqilanganadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqilanganadi.

*O'zbekiston  
Respublikasining  
Konstitutsiyasi, 57-modda*

dan-shogirdlarga o'tib kelgan. Shu yo'l bilan diniy qadriyatlar bugungi kunga qadar saqlanib qoldi.

Yuqoridagi tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, din va jamiyat o'zaro chambarchas bog'liqdir. Dinni to'g'ri talqin qilish tinchlikni saqlash, bag'rikenglik muhitini shakllantirish, ilm-fanning taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Undan g'arazli maqsadlarda foydalanish esa ijtimoiy hayotning izdan chiqishiغا, jamiyatda notinchlik yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

## **IJTIMOY MUNOSABATLAR VA DIN. DINNING JAMIYATDAGI IJTIMOY FUNKSIYALARI**

Dinning «funksiyasi» va «roli» tushunchalarini farqlash lozim, ular bir-biri bilan bog'liq, lekin aynan bir narsa emas.

Funksiya – bu dinding jamiyatdagи harakat usuli. Rol – bu funksiyani bajarish nati-jalarining jami yig'indisi. Dinning jamiyatda bir nechta funksiyalari mavjud.

*Dunyoqarash funksiyasi.* Barcha davrlarda din hayotning mazmun-mohiyati, insoning turmush qiyinchiliklari, «narigi dunyo» haqidagi savollarga javob beradi. Ushbu javoblar kishilarga yashashdan maqsad nima ekanligini anglash hissini beradi.

Xudoga ishonuvchi kishilar o'zlarini taqdirning zarbalari ostida arang kun ko'rvuchi ojiz mavjudot sifatida emas, balki hayotlari-

ni yaxlit ilohiy mazmunning bir bo‘lagi sifatida tasavvur qiladilar.

**Tasalli berish funksiyasi.** Hayot mazmuni haqidagi savollarga din tomonidan berilayotgan javoblarda bu olamda kechirilayotgan azob-uqubatlar inson uchun bejiz emasligi uqtiriladi, bu esa e’tiqod qiluvchilarga ruhiy osoyishtalik taqdim etadi. Tashvishli hodisalar bilan aloqador bo‘lgan diniy rasm-rusumlar musibatli kunlarda kishilarda ruhiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Kishi boshqalarning o‘ziga nisbatan xayrixohligini his qiladi va aniq o‘rnatilgan rasm-rusumlardan ruhiy osoyishtalik topadi.

**O‘z ijtimoiy mansubligini belgilash funksiyasi.** Diniy ta’limotlar unga e’tiqod qiluvchilarni bir xil qadriyatlar va mushtarak maqsadlar atrofida birlashtiradi (biz musulmonmiz, biz nasroniyimiz, biz yahudiyimiz va h. k.). Masalan, yapon xalqi e’tiqodiga ko‘ra, har bir yapon sintoiylik dinida tug‘iladi. Yahudiy dinida bo‘lish uchun ham yahudiy millatiga mansub bo‘lish kerak. Musulmonlarda esa mansublik imon shartlarini bajarish bilan belgilanadi.



## MA'LUMOT UCHUN

Dinning ja-miyatga ta’sirini o‘rganuvchi fan din sotsiologiyasi deb ataladi.

Fransuz olimi Ogyust Kont ushbu iborani ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan.

*Ijtimoiy me'yorlashtirish funksiyasi.* Barcha dinlarda unga e'tiqod qiluvchilar ning ijtimoiy munosabatlari diniy qoidalar bilan tartibga solinadi. Masalan, ota-onalar, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar va hatto boshqa dinga e’tiqod qiluvchilarga nisbatan bo‘ladigan munosabatlar ham tartiblab qo‘yiladi.

*Ijtimoiy nazorat funksiyasi.* Din kundalik hayot uchun me’yorlarni belgilash bilan cheklanmasdan, kishilarning xulq-atvorini ham nazorat qiladi. Diniy guruhning aksariyat chekllovlar faqat uning a’zolariга taalluqlidir. Lekin, ayrim me’yorlar diniy jamoaga taalluqli bo‘lmagan kishilarga ham tegishli hisoblanishi mumkin. Masalan, giyohvandlik moddasini iste’mol qilish, boshqa dinga e’tiqod qiluvchilarga zo‘ravonlik qilish, o‘ziga tegishli bo‘lmagan mulkka egalik qilishga intilish va boshqa salbiy hodisalarga qarshi turish umumiyligi cheklov va nazoratga bog‘liqdir.



## IJODIY FAOLIYAT

*Shariatni tan deb o‘yla, tariqatni qalb deb angla, haqiqatni esa jon deb tanigin.*

*Imom Moturidiy*

*Hayot ipining uchi Xudoning qo‘lida ekan, nima uchun bu hayotni unga ishonmaslik kerak.*

*Maxatma Gandhi*

*Yaxshilik qil, daryoga tashla, bilsa baliq, bilmasa Xoliq.*

*Xalq maqoli*

*Har bir ishda xayr bor.*

*Xalq hikmati*

Ushbu hikmatlar dinning qaysi funksiyalarini amalga oshiradi?

**Moslashuv funksiyasi.** Din odamlarning yangi ijtimoiy muhitga moslashishiga yordam beradi. Ayrim sabablarga ko‘ra, boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketgan kishilar yangi joyda notanish mahalliy urf-odatlarga oson ko‘nika olmaydilar. Bunday sharoitda ular o‘zlar e’tiqod qiladigan dinning rasm-rusumlarini va e’tiqod normalarini hamda ona tilini saqlab qolish orqali madaniy va milliy qadriyatlarini keyingi avlodlarga uza-tadilar.

Albatta, din yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarib, jamiyat a’zolari dunyo-qarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda islom dinidagi mo‘tadillik tamoyili kishilarning shaxsiy va ijtimoiy hayotlaridagi mavjud muammolarga bag‘rikenglik, saxovat, savob, himmat kabi axloqiy qadriyatlar asosida oqilona yondashishga undaydi. Shu nuqtayi nazardan, islom dinidagi bu tamoyil O‘zbekistonning bugungi kundagi shiddat bilan kechayotgan ijtimoiy taraqqiyoti uchun ma’naviy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Dindan g‘arazli maqsadlarda foydalanish qanday ijtimoiy muam-molarga olib keladi?
2. Din va jamiyat munosabatlarini o‘rganuvchi fan sohasi qanday nomlanadi?
3. Din sotsiologiyasining asosiy maqsadi nimada?
4. Dinning ijtimoiy hayotdagi qanday funksiyalarini bilasiz?
5. Dinning jamiyatdagi «funksiyasi» va «roli» tushunchalari nima-larda ifodalananadi?



To‘g‘ri va haq yo‘ldan yurgan kishining yurishi arslon yurishi-dan ko‘ra ham mahobatliroq (haybatliroq)dir.

**Mahmud  
Zamaxshariy**

# 5-6-§ MARKAZIY OSIYO DINLARI



## BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Markaziy Osiyoda tarqalgan dinlarning hozirgi holati.
2. Zardushtiylik jamoalarining zamonaviy hayot tarzi.
3. Tangrichilikdagi «Uyg‘onish» harakati va buning zararli oqibatlari.



Buyuk Ipak yo‘li nafaqat hududlar o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki davlatlar va qit’alar o‘rtasida axborot almashuvini ta’minlashga xizmat qilgan.

*Shavkat  
Mirziyoyev*

Markaziy Osiyo mintaqasining qadimda Buyuk Ipak yo‘lida joylashganligi bu yerda ko‘p millatli va konfesiyalı davlatning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Buyuk Ipak yo‘li Shosh, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar orqali o‘tgan. Bu shaharlarda yirik karvonsaroylar, savdo rastalari va bozorlarning rivojlanshi bilan birga turli madaniyat, til va din vakillari ham jamlandi. Tabiiyki, ular o‘z urf-odat va an’analarini ham olib kirishdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida tarqalgan eng qadimgi dinlardan biri zardushtiylikdir. Bugungi kunda bu dinga e’tiqod qiluvchilarning soni ko‘p emas.

## TARIXGA NAZAR



Buyuk Ipak yo‘li O‘rta asrlarda Sharq va G‘arb mamlakatlarini o‘zaro bog‘lagan qit’alararo karvon yo‘li. «Buyuk Ipak yo‘li» atamasi ushbu yo‘ldan tashilgan qimmatbaho tovar – Xitoy ipagi bilan bog‘liq. Markaziy Osiyoda qadimdan jahon dinlari – buddaviylik, xristianlik, islom dinlari tarqalgan. Shuningdek, moniylik va yahudiylilik dinlari ham mavjud bo‘lgan.

Jahon miqyosida zardushtiylikning diniy manbasi Avestoni o‘rganish avestoshunoslik nomini olgan. Hozir AQSh, Rossiya, Eron, Hindiston davlatlarida yirik avestoshunoslik markazlari mavjud. Bugungi kunda eng yirik zardushtiy jamoalari — Eron gebrlari va Hindiston parslari o‘rtasida faqatgina til, ibodatlarni o‘tkazish shakli va yil hisobi borasida ba’zi ixtiloslar mavjud. Ayni damda Hindistonda ruhiy jihatga e’tibor beruvchi qator guruhlar yuzaga kelgan.

Globallashuv ta’sirida so‘nggi vaqtarda zardushtiylikni isloh qilish, ko‘pgina marosimlarni bekor qilib, faqat «Gat»larni muqaddas kitob deb tan olish fikri olg‘a surilmoqda. Hozirda jahon miqyosida zardushtiylar Hindistonda 100 ming, Eronda 50 ming, Yevropa, Osiyo mamlakatlari hamda Amerikada bir necha ming kishini tashkil etadi.



*Eron gebrlari*



*Hindiston parslari*



## MA’LUMOT UCHUN

2001-yilda YUNESKO tomonidan Avestoning 2700 yilligi nishonlandi.



*Urganch shahrida  
Avestoga qo‘ylgan yodgorlik.*



## MA’LUMOT UCHUN

### Gebrlar va parslar —

zardushtiylik diniga e’tiqod qilishni saqlab qolgan etnokonfessional guruhlar.



Aqlli bo'lish  
kifoya emas,  
muhimi uni  
ishlata bilishdir.

*Rene Dekart*



## MA'LUMOT UCHUN

Xoqonlik o'z davlat mafkurasiga ko'ra, «el» deb atalib, qadimgi tarixda u bilan bog'liq «mangu el», «Tangri (ilohiy) el», «turk eli» kabi iboralar shakllangan. El va xoqon hokimiyatning Tangri tomonidan Ashina xonadoniga «Turk budun (xalqi)»ga in'om qilinganiga ishonilgan. Qadimgi turk jamiyati dunyoning biror boshqa siyosiy uyushmasi hukmdoriga «xudo-qiroq» sifatida qaramagan, chunki bunday siyosiy iqtidor (ne'mat) Tangri tomonidan faqat Ashina xonadoniga in'om etilgan, degan tasavvur Ashina turklari tasavvurida hukmron edi. Shu bois, Ashina xonadoni hokimiyati ilohiylashtirilgan. Agar Tangri bergen siyosiy hokimiyat ishonchni oqlamasa, ya'ni o'z iqtidorini ko'rsata olmasa, unday hukmdor hokimiyatdan uzoqlashtirilib, «Tangri bergen siyosiy hokimiyat yana Tangri tomonidan qaytarib olinadi», deb tushunilgan.


*Abu Rayhon Beruniy*

rinining ko‘p asrlik diniy e’tiqodlariga ega bo‘lgan turli millat va elatlar istiqomat qiladilar. Shunday sharoitda tangrichilik dinini qayta tiklashga urinish milliy va diniy ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

XXI asrning boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasi-da joylashgan mamlakatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonda o‘ziga xos diniy manzaraga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Qozog‘iston Respublikasida rasman 18 konfes-siya tarkibida 3600 dan ortiq diniy tashkilot mavjud. Shuningdek, mamlakatda 246 ta noan’anaviy diniy gu-ruhlar va yangi jamoatlar (missionerlar) ham faoliyat ko‘rsatadi.

Turkmaniston Respublikasida 13 ta diniy konfessiya ro‘yxatga olingan. Mamlakatda 128 ta diniy tashkilot mavjud. Qirg‘iziston Respublikasida 30 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud.



Inson hayoti  
davomida umr  
yo‘lini o‘zi-  
ga-o‘zi yaratib  
boraveradi.

*O. Mahmudovning  
«Ummondan  
durlar»  
kitobidan*



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘p millatli va konfessiyali aholi yashashining sabablari nimada?
2. XXI asrning boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida joylash-gan mamlakatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turk-maniston va O‘zbekistonda qanday diniy manzarani ko‘rishimiz mumkin?
3. Tangrichilik dinining bugungi kunda targ‘ib etilishi qanday oqi-batlarga olib kelishi mumkin?

# 7-§

## JAHON DINLARI MANBALARI: BUDDAVIYLIK VA XRISTIANLIK



Tripitaka



### MA'LUMOT UCHUN

2017-yilning  
1-iyunida Toshkent shahrida  
Bibliya kitobining o'zbek tiliga to'liq  
tarjimasining taqdimoti bo'lib  
o'tdi.

Shu yilga qadar  
Bibliyaning ayrim  
qismlarigina  
o'zbek tiliga tarji-  
ma qilingan edi.



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Jahon dinlari manbalarining diniy bag'rikenglik, totuvlik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati.
2. O'zbekistonda buddaviylik jamoasi, adabiyotlari. Xristianlik jamoalari. Bibliyaning o'zbek tilidagi nashri.

### JAHON DINLARI MANBALARINING DINIY BAG'RIKENGLIK, TOTUVLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Har qanday dinga e'tiqodning asoslari, qonun-qoidalari, ibodat va marosimlari uning muqaddas manbalarida aks etadi. Muqaddas kitoblar birlamchi yoki ikkilamchi bo'lishi mumkin. Jahon dinlaridan bo'lgan buddaviylikda Tripitaka, xristianlikda Bibliya muqaddas manba hisoblansa, islom dinida Qur'oni karim bevosita Allohnинг so'zлари – kalomidir. Shu sababli ham, islom dini ta'lilotiga ko'ra Qur'on oyatlarini nopol holda tilovat qilish, uning ustiga boshqa kitoblarni yoki buyumlarni qo'yish, ko'tarib yurganda qo'llar beldan pastga tushib turishi mumkin emas.

Boshqa dinlarda ham o'zlarining muqaddas manbalariga nisbatan katta ehtirom ko'rsatiladi.

Masalan, xristianlikda Iso Masih yoki boshqa avliyolarining suratlari tushirilgan ikonalar uylardagi maxsus «muqaddas burchak» yoki «qizil burchak»ka joylashtiri-



*Xristian  
oilalaridagi  
«muqaddas  
burchak»  
yoki «qizil  
burchak»*

ladi va ularga alohida hurmat ko 'rsatiladi. Bu joy uydagi altar (mehrob) vazifasini bajaradi. Oila a'zolari bu joyga kelib, ibodatlarini amalga oshiradilar. Altar juda toza saqlangan.

Muqaddas manbalarda diniy ko'rsatmalar bilan birga, odob-axloq, insonparvarlik, halollik, atrof-muhitni asrashga doir ko'rsatmalar ham o'rinn olgan.

Shuni unutmaslik lozimki, hech qaysi dinning muqaddas manbasi begunoh insonlar, jonivorlarning qonini to'kish, o'g'rilik, vayronagarchilikka buyurmaydi.



«Keyin Xudo quyidagi so'zlarni aytди: «Men sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudoman... Qotillik qilmang... O'g'rilik qilmang. Qo'shningizga qarshi yolg'on guvohlik bermang. Qo'shningizning uyiga ko'z olaytirmang. Qo'shningizning xotini, quli yoki cho'risi, moli yoxud eshagi, unga qarashli biror narsasiga ko'z olaytirmang».

*Bibliyaning «Qadimgi Ahd» qismidan*



## MA'LUMOT UCHUN

Budda ta'lomitining asosi «hayot – bu azob-uqubat» va «najot yo'li mavjud» degan g'oyadir. Buddaviylik qonuniyatlariga ko'ra, inson o'ziga moslashgan mavjudot bo'lib, o'zida tug'iladi, o'zini-o'zi halok qiladi yoki qutqaradi.

Buddaviylik matnlarida tinchlikparvarlik eng yuksak fazilat hisoblanib, g'azab va qahri qattiqlik eng katta gunohlar sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, Tripitakaning «Dxammapada» kitobida shunday deyiladi: «Illoki, bu dunyoda hech qachon nafrat nafrat bilan yengilmaydi, balki nafratning yo'qligi bilan u ham barham topadi».

## O'ZBEKISTONDA BUDDAVIYLIK JAMOASI, ADABIYOTLARI. XRISTIANLIK JAMOALARI. BIBLIYANING O'ZBEK TILIDAGI NASHRI

Jahon dinlarining eng qadimiysi bo'lgan buddaviylikda muqaddas manba – Tripitakaga katta ehtirom ko'rsatiladi. Pali tilida yozilgani sababli ham mazkur kitob «Pali kanoni» deb ham nomlanadi.

Hozirgi kunimizga qadar «Pali kanoni»ning ko'plab qismlari ingliz tiliga tarjima qilingan. Tripitakaning rus tiliga tarjimalari XIX asrda paydo bo'lgan.

Xristianlik dinining asosiy manbasi Bibliya «Qadimgi Ahd» (yahudiylarda «Tanax») va «Yangi Ahd» deb nomlanuvchi ikki qismdan iborat. Ulardan «Qadimgi



## TARIXGA NAZAR

Miloddan avvalgi 80-yillarda Tripitaka bиринчи bor palma barglariga yozilgan.


1871-yilda Mandalay shahri (Birma)da bo'lib o'tgan Butunjahon buddaviylar yig'ilishidan so'ng Tripitaka matni har biri 2 metrli 729 ta marmar plitalarga yozib chiqilgan.

1900-yilda marmarga o'yib tushirilgan Tripitaka matni ilk bor kitob holida nashr etildi. Uning hajmi 38 jildni tashkil etdi.

Ahd» qadimiy oromiy tilida, «Yangi Ahd» esa qadimgi grek tilida yozilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunga kelib, mazkur kitob uch mingdan ortiq til va lahjalarga tarjima qilingan.

1991-yilda ilk bora Bibliya kitobi ayrim qismlarining o'zbek tiliga tarjimasi amalga oshirilgan. 1994-yilda respublikamizda O'zbekiston Bibliya kitob jamiyatni tuzilgan. 2017-yil iyun oyida jamiyat tomonidan ilk bora Bibliya to'lig'icha o'zbek tiliga tarjima qilingani e'lon qilindi.



Hamisha  
yaxshilik qil.  
Boshqalarni  
sevsang, o'zing  
ham, boshqalar  
ham baxtli bo'-  
lishadi.

*Buddha*



## TARIXGA NAZAR

«Qadimgi Ahd»ning ilk tarjimasi miloddan avvalgi III-II asrlarda grek tiliga tarjima qilingan. U «Septuaginta» – yetmish tarjimon ishi deb ataladi.

390-405-yillar orasida Bibliya matni lotin tiliga tarjima qilindi.

V asrda Bibliyaning to'liq matni arman, got, gruzin va boshqa tillarga o'girildi.

1380-yilda esa lotin tilidan ingliz tiliga tarjima qilindi.

1581-yili ilk bor slavyan-cherkov tilidagi Bibliya dunyoga keldi.

1818-yilga kelib esa uning ilk qismlari rus tilida chop etildi.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Muqaddas manba deganda nima tushuniladi?
2. Dirlarda muqaddas kitoblarga qanday munosabat ko'rsatiladi?
3. Bibliyaning tarjimalari haqida nimalarni bilasiz?
4. Buddaviylik dini muqaddas manbasi qanday nomlar bilan ataladi?
5. Sizningcha, muqaddas diniy manbalar insonlarni buzg'unchilikka chorlashi mumkinmi?

# 8–9-§ XX–XXI ASRLARDA ISLOM



## BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Islom dini doirasida yuzaga kelgan xalqaro tashkilotlar, ularning mutaassiblik va terrorizmga qarshi kurashdagi o‘rni.
2. O‘zbekistonning xalqaro islom tashkilotlariga a’zoligi.

### ISLOM DINI DOIRASIDA YUZAGA KELGAN XALQARO TASHKILOTLAR



Ichkaridagi kelib eshikni ochib bermasa, tashqaridagi o‘g‘ri uyga kira olmaydi.

*Jaloliddin  
Rumiy*

XX asr oxiri–XXI asrning dastlabki o‘n yilligida dunyoning diniy manzarasida bir qator jiddiy va ziddiyatli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bunday o‘zgarishlar zamirida jahon siyosati va ma’naviyatida ro‘y berayotgan jarayonlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi, globallashuvning jadallashuvi, xalqaro terrorizm xavfining kuchayishi kabi omillar yotibdi.

Bir qator musulmon mamlakatlarining olimlari, ziyyolilari va ijtimoiy-siyosiy soha arboblari terrorizmga qarshi o‘zlarining munosabatlarini bildirdilar. Ular ushbu maqsadda jahon miqyosida faoliyat ko‘rsatadigan doimiy tashkilot tuzish to‘g‘risidagi tashabbus bilan chiqdilar. Natijada xalqaro miqyosda hukumat yoki nohukumat darajasida ish olib boruvchi Islom konferensiysi tashkiloti tashkil topdi.

1969-yilda Marokash poytaxti Rabot shahrida musulmon mamlakatlarining tashqi ishlar vazirlari ishtirokida sessiya bo‘lib o‘tdi. Mazkur sessiyada ishtirok etgan davlatlar Islom konferensiysi tashkilotining a’zolari

etib belgilandi. Bugungi kunda bu tashkilot Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) deb ataladi.

IHT faoliyatida quyidagilar asosiy maqsad sifatida belgilangan: islom birdamligini rag‘batlantirish; iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalarda hamkorlikni mustahkamlash; irqiy kansitishni, barcha shakldagi mustamlakachilikni tugatishga harakat qilish; tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tadbirlar belgilash va hokazo.

Tashkilotni boshqarishning asosiy tamoyillari: o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga rioya etish; a’zo davlatlarning teng huquqlarga ega ekanligi; suverenitet, mustaqillik va hududiy yaxlitlikni tan olish; a’zo davlatlar orasidagi nizolarni tinch yo‘llar bilan hal etishdan iborat.

## ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI BO‘LINMALARI

IHTning rahbar organlari Davlat va hukumat boshliqlari konferensiyasi, Tashqi ishlar vazirlarining konferensiyasi va bosh kotib rahbarligidagi kotibiyat hisoblanadi.

**Oliy organ** – a’zo mamlakatlar rahbarlarining islom sammiti har uch yilda o‘tkazilib, musulmon mamlakatlarining umumiy siyosatini belgilab beradi. Tashqi ishlar vazirlari konferensiyasi esa har yili yoki zaruratga qarab o‘tkaziladi.

Oliy ijro organi Bosh kotib rahbarligidagi Bosh kotibiyat hisoblanadi.

Bosh kotib a’zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari tomonidan 4 yil muddatga saylanadi. Tashkilot bosh qarorgohi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan.



...Ushbu anjuman buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek Buxoro shahrida bundayod etgan madrasa peshtoqiga bitilgan «Ilm egallah har bir muslim va muslima uchun farzdir», degan hadisi sharifni hayotimiz qoidasiga aylantirishga xizmat qiladi.

*Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitidagi nutqidan.*



## MA'LUMOT UCHUN

2017-yil 9-aprel kuni Misrning Tanta shahridagi «Mar Giris» nasroniyalar cherkovida sodir etilgan qo‘poruvchilik harakatlari yuzasidan Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Yusuf Ahmad al-Usayminning shaxsan o‘zi bayonot berib, cherkovda sodir etilgan va ko‘plab begunoh odamlarning o‘limmi va jarohatiga sababchi bo‘lgan terrorchilik harakatini qat’iyan qoraladi.

IHT huzurida Islom taraqqiyot banki, Fan va texnika sohasida hamkorlik bo‘yicha doimiy qo‘mita faoliyat ko‘rsatadi.

1975-yildan unga BMT huzurida kuzatuvchi tashkilot maqomi berilgan.

Tashkilot tasarrufida jami 17 ta mustaqil tashkilot mavjud. Ulardan eng yiriklari quyidagilar:

- Islom taraqqiyot banki;
- Islom yangiliklar agentligi;
- Islom teleradioeshittirishlar uyushmasi;
- Iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bo‘yicha Islom komissiyasi;
- Islom taraqqiyot fondi;
- Islom adolat sudi;
- Islom poytaxtlari uyushmasi;
- Ilmiy-texnikaviy rivojlanish islom fondi;
- Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkiloti va h.k.



## TARIXGA NAZAR

Islom hamkorlik tashkiloti – hukumatlararo xalqaro tashkilot. 2011-yil 28-iyungacha Islom konferensiyasi tashkiloti deb atalgan. 1969-yil Rabot (Marokash) shahrida tuzilgan. Nizom 1972-yil Jidda (Saudiya Arabiston) shahrida 3-konferensiyada qabul qilingan. 2008-yil 13-14-martda Dakar (Senegal) shahrida bo‘lib o‘tgan 11-sammitda Nizomning yangi tahriri qabul qilingan.

## O'ZBEKISTONING XALQARO ISLOM TASHKILOTLARIGA A'ZOLIGI

2016-yil Toshkent shahrida Islom hamkorlik tashkiloti ishtirokida «Ta'lif va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l» mavzusida xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkilotidagi raislik davri uchun taklif etilayotgan ustuvor maqsadlar dan birining kontekstida davlatimizning ayrim tashabbuslarini e'lon qildi.

Birinchi tashabbus nafaqat islom madaniyati, balki umumbashariy sivilizatsiyaga benazir hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ko'p qirrali diniy-ma'naviy merosini o'rganishga ixtisoslashgan Samarcanddagi Imom Buxoriy xalqaro tadqiqotlar markazini tashkil etishdan iborat. O'zbekistonning yana bir tashabbusi – Toshkent islom universiteti (hozirgi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi) tarkibida Ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti (*ISESCO — Islamic Educational, Scientific and Cultural Organization*) ning maxsus kafedrasini tashkil etish bilan bog'liqidir. Yangi kafedra faoliyatining asosiy yo'nalishini muslim dunyosidagi ta'lif, ilm-fan va madaniyat tarixi



### TARIXGA NAZAR

ISESCO – IHT huzuridagi mustaqil tashkilot. 1979-yili ta'sis etilgan. Nizomi 1982-yildagi Ta'sis Konferensiyada (1982-yil, Fes shahri) qabul qilingan..



### MA'LUMOT UCHUN

IHTga jami 57 davlat a'zodir. O'zbekiston ushbu tashkilotga 1996-yil 2-oktabrda qabul qilingan. Bosniya va Gersegovina, Markaziy Afrika Respublikasi, Rossiya, Tayland, Shimoliy Kipr Turk Respublikasi, shuningdek, BMT, Arab mamlakatlari ligasi, Afrika ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati tashkiloti kuzatuvchi maqomiga ega. IHT esa xalqaro huquq subyekti sifatida BMTda kuzatuvchilik qilishga haqli.



## MA'LUMOT UCHUN

2016-yil 18-19-oktabr kunlari Toshkent shahrida Islom hamkorlik tashkiloti (Tashqi ishlar vazirlar kengashining 43-sessiyasi) ishtirokida «Ta'lif va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l» mavzusida xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. ISESCO tashkilotining rasmiy saytida ([www.isesco.org.ma](http://www.isesco.org.ma)) berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2015–2024-yillardagi islom madaniyati poytaxtlari ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, 2020-yilda Osiyo mintaqasidan Buxoro shahri islom madaniyati poytaxti sifatida tanlab olingan.

hamda ularning hozirgi holatini o'rganish va ular haqida talabalarga chuqurlashtirilgan maxsus kurslarni berish tashkil etadi.

Bugungi kunda IHT va O'zbekiston o'rta-sida hamkorlik istiqbollarini bir qator global va mintaqaviy muammolarni hal qilishda ko'rish mumkin. Respublikamiz IHT tar-kibidagi Ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti (ISESCO) bilan ham mustahkam aloqalarga ega. Darhaqiqat, mazkur tashkilot 2007-yilda Toshkent shahrini islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qilgan edi. Shu bilan birga, ISESCO tomonidan 2020-yilda vatanimizning yana bir durdonasi – Buxoro shahriga ham shu nomning berilishi mo'ljallangan.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. XX asr oxiri – XXI asr boshlari-da dunyoning diniy manzarasidagi o'zgarishlar zamirida qanday omillar bor?
2. Islom konferensiyasi tashkiloti qachon va qayerda tuzilgan?
3. Islom hamkorlik tashkilotining asosiy maqsadi nimadan iborat?
4. 2016-yil 18-19-oktabr kunlari Toshkentda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlar kengashining 43-sessiyasida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qanday tashabbuslar bilan chiqdi?

# 10–11-§ XX-XXI ASRLARDA ISLOM DINI-DAGI OQIMLAR VA SEKTALAR



## BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Xalqaro terrorizm muammosi.
2. Mutaassiblik ildizlari.
3. Zamonaviy mutaassib oqimlar va ularning maqsadlari, mafkura-viy tizimi.

### XALQARO TERRORIZM MUAMMOSI

Xalqaro terrorizm hozirgi davrning dolzarb global muammolaridan biriga aylandi. Buning qator sabablari mavjud:

**Birinchidan**, xalqaro terrorizm dunyo miqyosida to-bora keng tarqalib bormoqda. Bu – an'anaviy xalqaro mojarolar mintaqalarida (masalan, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo) kechayotgan jarayonlarda o'z aksini topayotir.

Shuningdek, bu xavfdan rivojlangan mamlakatlar (xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, G'arbiy Yevropa davlatlari) ham yetarlicha himoyalanganmaganligi ko'rinish qoldi.

**Ikkinchidan**, xalqaro terrorizm dunyo hamjamiyati va alohida davlatlar xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Har yili dunyoda yuzlab xalqaro terrorchilik harakati amal-



Inson ixtiro  
qilgan vayron-  
kor qurollar  
orasida so'z eng  
xatarli va kuchli  
qurolligicha  
qolmoqda.

*Paulo Koelo*



### MA'LUMOT UCHUN

2017-yil Misrning Shimoliy Sinay yarim orolidagi So'fiy masjidida amalga oshirilgan dahshatli teraktda 128 kishi yaralandi, 300 dan ortiq odam halok bo'ldi, shundan 27 nafari bolalar edi.



## MA'LUMOT UCHUN



2004-yil 1-sentabr kuni Shimoliy Osetyaning Beslan shahrida qurollangan terrorchi guruh 1-maktab o'quvchilari, ota-onalar va o'qituvchilarni garovga oldilar. Ikki kun ichida 1128 kishidan 314 nafari halok bo'ldi. Ulardan 186 nafari bolalar edi.



ga oshiriladi, ularda minglab insonlar halok bo'lmoqda va mayib-majruhgaga aylanmoqda.

**Uchinchidan**, xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasida alohida bir yirik davlat yoki yuksak taraqqiy etgan davlatlar guruhining sa'y-harakatlari yetarli emas. Keskin global muammoga aylangan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda dunyo hamjamiyati, ko'plab davlatlar va xalqlarning kuchlarini birlashtirish talab etiladi.

**To'rtinchidan**, xalqaro terrorizm fenomeni va bugungi kunning boshqa global muammolari o'rtasidagi bog'liqlik tobora aniq va ravshan ko'zga tashlanmoqda. Shu bois, hozirgi vaqtida xalqaro terrorizm muammosi umuminsoniy, global muammolar kompleksida muhim element sifatida ko'riliши lozim. U rivojlangan «mehnat bozori» va yirik kaptitalga ega, global miqyosdagi o'ta foydali «biznesga» aylandi. Bunday «yaxshi yo'lga qo'yilgan terror tizimini» faqatgina tizimli va kompleks yondashuv asosida, dunyodagi barcha aksilekstremistik va aksilterrorchi kuchlarni birlashtirib, xalqaro hamkorlik asosida bartaraf qilish mumkin.

## MUTAASSIBLIK ILDIZLARI

Mutaassiblik ildizlari o'rta asrlarga borib taqaladi. Islomdag'i ilk oqim Xalifa Ali ibn Abu Tolib (r.a.) bilan umaviylar o'rtasidagi kurash davomida 657-yilda vujudga kelgan.

Hokimiyat uchun kurashda Ali ibn Abu Tolib Muoviya ibn Abu Sufyon (r.a.) ta-

rafdorlari (umaviylar) bilan muzokara olib borishga ko‘ngan. Bu hol xalifa Ali haqiqiy vorislik huquqiga ega, deb hisoblagan tarafdorlarning o‘rtasida norozilik tug‘dirgan. Qo‘shtinning bir qismi Alini kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib ketgan va keyinchalik Aliga ham, umaviylarga ham qarshi kurash boshlagan. Ular tarixda xorijiylar deb nom qoldirgan. Xorijiylar o‘zlari ning siyosiy raqiblariga nisbatan o‘ta murosasiz bo‘lishgan. Katta gunoh (kabira) qilgan muslimonlarni kofirga chiqarib, ularga qarshi qurolli jihod olib borganlar. Keyinchalik xorijiylar bir necha guruhlarga bo‘linib ketgan. Umaviy va abbosiy xalifalar VII-IX asrlarda xorijiylarga qarshi keskin kurash olib borganlar. Xorijiylar xalifalikdagi ko‘pgina qo‘zg‘olonlarda qatnashganlar.

## ZAMONAVIY MUTAASSIB OQIMLAR VA ULARNING MAQSADLARI, MAFKURAVIY TIZIMI

Keyingi yillarda Yevrosiyo qit’asi va Afrikada joylashgan qator mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazayotgan ekstremistik va terroristik tashkilotlarning faollashuvi kuzatilmogda.

Diniy sohada ekstremizm boshqa din vakillariga o‘ta murosasizlik (masalan, Hindistonda muslimonlar va hinduiylar, hinduiylar va sikxlar, Myanmadagi muslimonlarning qirg‘in qilinishi va boshqa nizolar), bitta din ichidagi (Pokiston, Afg‘oniston, Iroqda sunniylar va shialar) mojaroli munosabatlar, dunyoviy tuzumga qarshi kurash (aksariyat muslimon mamlakatlarida yoki xalqaro darajadagi sivilizatsion qarama-qarshiliklar («Al-Qaida», «Hizbulloh» tashkilotlari ) bilan bog‘liq.



Ey imon  
keltirganlar!  
Mol-  
mulklaringizni  
o‘rtada nohaq  
(yo‘llar) bilan  
yemangiz!  
O‘zaro rozilik  
asosidagi tijorat  
bo‘lsa, u bundan  
mustasno.

Shuningdek,  
o‘zlariningizni  
(bir-biringizni  
nohaq)  
o‘ldirmangiz!  
Albatta, Alloh  
sizlarga rahm-  
shafqatlidir.

*Qur’oni karim,*  
*Niso surasi,*  
*29-oyat*



«Ey qavmim!  
O‘lchov va  
vaznniadolat  
bilan to‘la  
beringiz!  
Odamlarning  
narsalarini urib  
qolmangiz va  
Yerda fasod  
ishlari bilan  
buzg‘unchilik  
qilmangiz!»

***Qur’oni karim,  
Hud surasi,  
85-oyat***

O‘zini islom nomi bilan bog‘laydigan ekstremistik tashkilotlarning xususiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- dunyoviy davlat va jamiyatga murosasiz munosabatda bo‘lish;
- dinning davlatdan ajratilishini rad etish va jamiyatning barcha a’zolarini shariat talablari asosida hayot kechirishga majburlash;
- islom dinini dunyoning boshqa jamiyatlariga qarshi qo‘yish;
- mamlakatlarning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini tan olmaslik, yagona davlat — «xalifalik» qurish g‘oyasini ilgari surish;
- o‘z maqsadlari yo‘lida davlat va jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan xatti-harakatlarga urg‘u berish;
- o‘z g‘oyalariga ergashmagan musulmonlarni dindan chiqqanlikda, «kofir»likda ayblash, an’anaviy islom tarafdori bo‘lgan ulamolarni obro‘sizlantirish, ularga tazyiq o‘tkazish va hattoki o‘ldirish;
- XX asr o‘rtalarida islom dunyosida kolonial hukumatga qarshi terror usullaridan foydalangan milliy-ozodlik harakati asosida keyinchalik kuch ishlatish uslublariga tayanuvchi guruhlarning vujudga kelishi;



## IJODIY FAOLIYAT

Qur’oni karimning ushbu oyatini o‘qing. O‘zlarining siyosiy maqsadlari yo‘lida dindan foydalanayotdan kimsalarning faoliyatini fitna deyish mumkinmi?

*«Fitna esa qotillikdan ham kattaroq (gunoh)dir».*

***Qur’oni karim, Baqara surasi, 217-oyat.***


– Arab-Isroil urushlari va Yaqin Sharq muammosining hal etilmay kelayotgani barobarida, G‘arb mamlakatlarining Yaqin Sharqni o‘z ta’sir doirasiga olishga qaratilgan faol xatti-harakatlari;

– yetakchi davlatlarning musulmon dunyosi mamlakatlaridagi energetik zaxiralalar ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatishga qaratilgan siyosati;

– rivojlangan musulmon mamlakatlarining min-taqaviy yetakchilik yo‘lida olib borayotgan o‘zaro raqobat kurashi hamda mazkur davlatlarning rivojlanayotgan musulmon mamlakatlarini o‘z ta’siriga olishga qaratilgan intilishlari;

– sunniylar va shialar orasida an’anaviy davom etib kelayotgan qarama-qarshiliklarning davlatlararo munosabatlar darajasiga ko‘tarilishi oqibatida o‘zaro kurashning turli ko‘rinishlarda, jumladan, noqonuniy qurolli tuzilmalar orqali olib borilishi.

Islom niqobidagi deyarli barcha ekstremistik oqimlarning mafkurasida ikkita tamoyil – takfir va jihod mavjud. Terrorizm zamонавиy ilmiy doiralarda uchta nuqtayi nazardan, ya’ni jinoiy faoliyat, terroristik guruh va terroristik ta’limot sifatida qaraladi.



Urush ayirar,  
Tinchlik  
topishtirar.

**Xalq maqoli**



## MA’LUMOT UCHUN

Tadqiqotga ko‘ra, o‘tgan besh yil davomida musulmon mamlakatlarida sodir etilgan terroristik hujumlar natijasida ikki yuz mingdan ortiq inson halok bo‘lgan va yaralangan. O‘tgan davr mobaynida terrorizm musulmon mamlakatlariga 348 milliard AQSh dollari miqdorida zarar keltirgan. Iraq, Suriya, Afg‘oniston, Pokiston va Nigeriya eng ko‘p zarar ko‘rgan mamlakatlar bo‘lib, terror qurbanlarining taxminan 70 foizi shu mamlakatlarga to‘g‘ri keladi.

*Buddaviylik niqobi ostidagi  
ekstremistlar qurboni bo‘lgan  
myanmalik qochoqlar*



## MA’LUMOT UCHUN

Takfir – dindan chiqqanlikda, kofirlikda ayplashdir. Takfir ekstremistlar tomonidan aynan musulmonlarga qarshi qo‘llanilmoqda. Jihod – lug‘aviy ma’nosi jiddu jahd qilish, g‘ayrat qilish, biror ishni mukammal bajarisht uchun bor kuch-g‘ayrat va salohiyatni sarflashdir. Islom dinida bu so‘z bosqinchi va isyonchilarga qarshi eli, yurti, vatani himoyasiga chiqqan kishilarning amaliyotlariga nisbatan ham ishlatilgan.



Bunday terrorchi guruuhlar o‘zlarining faoliyatlarini Qur’oni karim ko‘rsatmalari asosida mustahkamlashga harakat qiladilar.

Islom ta’limotida musulmonlikni da’vo qiluvchi inson boshqa insonlarga na tili bilan, na qo‘li bilan zarar yetkazmasligi shart qilib qo‘ylgan. Aksincha, musulmon kishi yer yuzida isloh qilish, urushgan kishilarni bir-biri bilan yarashtirish tashvishida bo‘lishi lozimligi belgilangan.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan, yadroviy poligonlardan-da xavfiroq bo‘lgan mafkuraviy poligonlar orqali insonlarning e’tiqodini, hayoti-



Din to‘g‘risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o‘z yurtingizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo‘lishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatli kishilarni sevar.

*Qur’oni karim, Mumtahana surasi, 8-oyat*

ni zaharlayotgan mutaassib aqidaparast oqimlardan biri — «salafiylik»dir.

«Salafiylik» tushunchasi arab tilidagi «salaf» so‘zidan olingen bo‘lib, «avval yashab o‘tganlar», «ajdodlar» ma’nosini anglatadi. Islom manbalarida «salafi solih» iborasi islomning ilk davrida yashagan sahoba va tobeinlarga nisbatan ishlatiladi. Bu atama keyingi davrlarda va bugungi kunda yashayotgan musulmonlarga nisbatan ishlatilmaydi. Lekin o‘zlarini «salafiyilar» deb e’lon qilgan ekstremistik guruhlarning olib borayotgan faoliyati islom ta’limotiga, uning an’analariga, tamoyillariga mutlaqo zid. Shuning uchun ular «soxta salafiylar» deb aytildi.

Soxta salafiylar tomonidan jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan toqatsizlik, qo‘poruvchilik kabi g‘oyalalar ilgari surilmoqda. Ular yoshlarning ongini zaharlash orqali musulmonlar o‘rtasida diniy asosdagи nizolarni keltirib chiqarishga harakat qiladilar. Davlat va xalqiga xizmat qilayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini esa dinsizlikda ayblaydilar. Ular 2007-yilda Tojikistonda yashovchi hanafiy mazhabi vakillarini «hidoyatda adashganlar», shialarni esa «kofir» deb e’lon qilganlar. 2004-yilda Toshkentda qo‘poruvchilik harakatlarini sodir etishgan. 2009-yilda O‘zbekistonda bir qator diniy ulamolarga nisbatan tajovuzlar uyushtirshgan. Bu harakatning g‘oyalari islom dini ta’limotiga mutlaqo zid ekanligini ko‘ramiz.

IShID (Iraq va Shom islom davlati) – 2006-yili Iraqda radikal guruhlarning uyushishidan vujudga kelgan terrorchi tashkilot. Bu tashkilot 2013-yilda Suriyadagi fuqarolar urushiga qo‘sildi. Ularning harakatlari Iraq hududidagi chet el harbiy kuchlarini, Iraq harbiylarini, fuqarolar va bino-inshootlarini yo‘q qilishga qaratilgan.



Osmon-u falakning ziynati yulduzlar bilan bo‘lsa, yer-u zaminning ko‘rkamligi olimlar bilandir.

**Mahmud Zamaxshariy**



Besh narsaning kafforati yoq:  
Allohga shirk keltirish, nohaq odam o‘ldirish, mo‘min kishiga bo‘hton qilish, urushdan qochish va yolg‘on qasam bilan nohaqdan mol ishlab olish.

**Hadis**

Tashkilot Suriya, Iroq, Livan davlatlari hududida «Islom davlati» qurish iddaosi bilan chiqdi.

2014-yili iyul oyida jinoiy uyushma o‘zini «ID (Islom davlati)» deb atay boshladi. BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, ushbu din niqobidagi jangarilar 2014-yilning boshidan buyon minglab insonlar – bolalar, ayollar, qariyalar, tinch aholi vakillarining hayotiga zomin bo‘ldi-



## IJODIY FAOLIYAT



*Terrorizm millat va din tanlamaydi. Suriya kecha va bugun*

Berilgan matnning mazmuni bilan rasmlardagi holatlarni baholang.

Fikringizni «yerda buzg‘unchilik, ekin va nasllarni halok qilish» so‘zлari bilan bog‘lang.


*Odamlar orasida shunday kimsa ham borki, uning dunyo hayoti to‘g‘risidagi gapi Sizga qiziqarli bo‘ladi. Dilidagi «imoni»ga Allohnii guvoh qiladi, vaholanki o‘zi (Islomga nisbatan) dushmanlarning ashadiysidir.*

*(Oldingizdan) ketganida yerda fitna-fasod, ekin va naslni halok qilish ishlari bilan yuradi. Allah esa fasodni (buzg‘unchilikni) yoqtirmaydi.*

*Qur’oni karim, Baqara surasi, 204-205 oyatlar*

lar. Ularga qarshi chiqayotgan barcha insonlar, shu jumladan, musulmonlarni ham, kofirga chiqarib, ularning jonlariga qasd qildilar.

ISHID va uning tarkibida bo‘lgan barcha jangarilariga nisbatan Dunyo islom ulamolari kengashi ochiq xat yozib, unda IShIDning noto‘g‘ri yo‘lda ekanini dalillar bilan isbotlab, ularni bu yo‘ldan qaytishga chaqirdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Arab davlatlari ligasi kabi xalqaro tashkilotlar, AQSh, Avstraliya, Saudiya Arabiston, Buyuk Britaniya, Indoneziya kabi davlatlar IShIDni terrorchi tashkilot deb e’lon qildi. Uning islom diniga mutlaqo aloqasi yo‘qligini takror-takror ta’kidladilar.



Birniki –  
mingga,  
Mingniki –  
tumanga.

**Xalq maqoli**



*So ‘nggi 20 yilda sodir etilgan teraktlar xaritasi*



## IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni o'qing. «Firqalarga bo'linmaslik» bunguni kunda qanday ahamiyatga ega? Fikringizni asoslang.

... «*Dinni barpo qilingiz va unda firqa-firqaga bo'linmangiz!*»

***Sho'ro surasi,  
13-oyatdan***

«*Muqaddas Qur'on  
karimda musulmonlarga qarata firqalar  
ga bo'linmang, de-  
gan mazmundagi  
ko'rsatmalar bor.  
Bu turli oqimlarga  
bo'linib, odamlar-  
ni to'g'ri yo'lidan  
adashtirishga dini-  
miz mutlaqo qarshi  
ekaniga yaqqol dalil  
emasmi?*»

***Shavkat Mirziyoyev***

Islom dinining ikkinchi muqaddas manbasi bo'lgan hadisi sharifda «Qiyomat kuni birinchi savol nohaq to'kilgan qon to'g'risida bo'lur», deyilgan. Islomga yot bo'lgan, lekin nomini islom dini bilan niqoblayotgan bunday tashkilotlar, ayniqsa, internet tarmoqlaridan o'zlarining manfur g'oyalari yoyishda foydalanmoqdalar. 2017-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda jangarilar foydalanadigan 5000 dan ortiq internet saytlari mavjud bo'lib, ularga xizmat ko'rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda.

Ushbu saytlarga kirib, terroristik tashkilotlarning domiga tushgan kishilar o'z yurtlaridan kechib, begona yurtlarda g'araz niyatli shaxslarga xizmat qiladigan qulga aylandilar.

ISHID ekstremistik tashkiloti nafaqat Iroq va Suriya, uning yon atrofidagi mamlakatlar, balki butun dunyodagi tinchlik va barqarorlikka tahdid solmoqda. Tinchlikka raxna solish, jamiyat ravnaqi, xalq farovonligiga ziyon yetkazish, fitna qo'zg'atish denga mutlaqo yotdir.

Bu tashkilot 2013–2014-yillar mobaynida 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlarini sodir etgan. Xudkush («tirik bomba»)lar tomonidan 100 dan ziyod portlashlar amalga oshirilgan. Suriyada ISHID jangarilar 60 dan ziyod cherkov va monastirlarni vayron qilgan. 2014-yil Iroqning Mosul shahridagi «al-Isro» masjidi yonida tashkilotga qo'shilishdan bosh tortgan 12 nafar islom ulamolari namoyishkorona qatl etilgan.

Islom dini ta'limotida nafaqat insonning, balki hayvonlarning haqlari ham himoya qilinishi belgi-


langan. Masalan, hayvonlarni sababsiz azoblash va to-qatidan tashqari ishlarni qilishga undashdan qaytariladi. Odamlarni qul qilish, ularga azob berish, ularning joniga qasd qilish katta gunoh hisoblanadi.

«Qur’oniylar» – XIX asrda Hindistonda paydo bo‘lgan adashgan toifalardan hisoblanadi. Bu toifa hadislarni to‘liq inkor etishi bilan ajralib turadi. Hozirda esa bu guruh Hindiston va Pokistondan Angliyaga, u yerdan Yevropa va boshqa davlatlarga tarqaldi. So‘ngi paytlarda mazkur adashgan toifa vakillari Markaziy Osiyoda ham paydo bo‘lmoqda.

O‘zlariga «ahlu-l-Qur’on» degan nom qo‘ygan guruh faqat Qur’onnigina shariat manbai deb hisoblaydi. Shuningdek, ular Qur’onni o‘z bilganlaricha tafsir qildilar.

Asrlar davomida Islom olimlari Qur’on va hadislarga tayanib kelganlar. Islom ta’limotiga ko‘ra, hadislarni inkor qiluvchi kishi islomni inkor qiluvchi deb hisoblanadi. Hadislarni bilmagan inson Qur’onni ham to‘g‘ri tushunmaydi. Chunki, Qur’ondagi ko‘plab oyatlarning tafsiri hadislarda bayon qilingan. «Ahlu-l-Qur’on» guruhining g‘oyalari islom dinining muqaddas kitobida berilgan qoidalarga ziddir. Masalan, Niso surasining 59-oyatida: «Allohga itoat qilingiz, Rasulga itoat qilingiz hamda o‘zingizdan bo‘lgan boshliqlaringizga bo‘ysuningiz!» — deb ta’kidlanadi. Yokiushbisuraning 82-oyatida: «Kimki, Payg‘ambarga itoat qilsa, demakki, Allohga itoat qilibdi» — deyiladi. Hashr surasining 7-oyatida esa: «Payg‘ambar sizlarga bergen narsani olinglar, u zot sizlarni qaytargan narsalardan qaytinglar!» — deb ko‘rsatma beriladi.

Qur’oniylarning adashgan jihatlaridan yana biri nar-kotik moddalarni iste’mol qilish va boshqa ko‘plab bu-



Bir zamonalr  
urushda askarlar  
o‘lsa — o‘lgan-  
dir. Hozirgi  
urushda quro  
ko‘targandan  
ko‘ra quro  
ko‘tarmagan  
ko‘proq qiriladi.  
Zamonaviy qu-  
rollar okop bilan  
bolalar bog‘cha-  
sining, aerodrom  
bilan tug‘ruqxo-  
naning farqiga  
bormaydi.

*O‘tkir Hoshimov.  
«Daftar hoshiya-  
sidagi bitiklar»*



zuqliklarni halol deb fatvo ham beradilar. Bunday fatvo berish imon shartlariga ziddir.

Qur’oniylarni ijtimoiy tarmoqlarda Muhammad (s.a.v.) va ularning sahabalariga nisbatan behurmatlik qilishlari orqali tanib olish mumkin. Ular Imom Buxoriy, Imom Muslim va Imom Termiziydek buyuk muhaddis olimlarni haqorat qiladilar. Qur’oni mahalliy tillarda o‘qishni targ‘ib qilishlari orqali ham ajratib olish mumkin. Xulosa qilib aytganda, usti yaltiroq, ichi qaltiroq bo‘lgan bunday guruhlar islom dinining sof mohiyatini buzish, yetarli ilmga ega bo‘lmagan insonlarni adashtirish maqsadida tuzilgan.

Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun har bir tinchlikparvar inson o‘zining atrofida bo‘layotgan voqeа-hodisalardan ogoh bo‘lishi lozim. Siz ham ta’lim muassasalarida berilayotgan ilm-ma’rifat sirlarini to‘la o‘rganishingiz orqali mafkuraviy tahlidlarga qarshi tura olish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurasha olish kabi ko‘nikmalaringiz shakllanadi.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Islom tarixida ilk mutaassib oqimlarning kelib chiqishi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
2. Xorijiylar paydo bo‘lishining asosiy sababi nimada? Ularning maqsadlari nimadan iborat?
3. Din niqobidagi ekstremizmning mohiyati jamiyat uchun qanday xavflarni keltirib chiqaradi?
4. Mamlakatimizda ekstremizm va terrorizmga qarshi qanday siyosat olib borilmoqda?

# 12-13-§

## O'ZBEKİSTONNING XALQARO TERRORİZM VA EKSTREMİZMGA QARSHI KURASHDAGI O'RNI



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi milliy strategiyasi.
2. Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha O'zbekistonning tashabbusi.
3. O'zbekistonning Markaziy Osiyoda barqarorlik ta'minlanishidagi o'rni.

### O'ZBEKİSTONNING TERRORİZMGA QARSHI KURASHDAGI MILLIY STRATEGIYASI

Dunyoning ba'zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishi-ga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun ham nafaqat ichki, balki tashqi siyosatida ham terrorizmga qarshi kurash, xalqimiz tinchligini asrash va ta'minlash masalasi doimo mamlakatimizning e'tiborida bo'lib kelgan.

2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-sessiyasida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev jahon hamjamiyati e'tiborini sayyoramizning ertangi kuni, farzandlarimiz farovonligi, yoshlarning o'z sa-



Erursan shoh —  
agar ogohsen sen,  
Agar ogohsen —  
shohsen sen.

*Alisher Navoiy*

lohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi tarqalishining oldini olishga qaratdi.

Zero, bugungi kunda dunyoning qaysidir mamlakatida sodir bo‘layotgan terroristik harakatlar boshqa davlatlarni ham chetlab o‘tmaydi.

Mafkuraviy tahdidlarni vujudga keltirayotgan guruhlarning asosiy maqsadi yer osti va yer usti boyliklariiga ega bo‘lgan davlatlarni parokanda qilish va buning oqibatida boylik orttirish, o‘ziga qaram qilishdir.

Mamlakatimizda amalga oshirish zarur bo‘lgan islohotlarni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlari ni o‘zida mujassam etgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan.



Islom dini bizni  
ezgulik va  
tinchlikka, asl  
insoniy fazilat-  
larni asrab-avay-  
lashga da’vat  
etadi.

*Shavkat  
Mirziyoyev*



## IJODIY FAOLIYAT

Quyidagi matnni o‘qing. «Global xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti» deganda nimani tushundingiz? Fikringizni tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot, hamjihatlik kabi tamoyillar bilan izohlang.

*«Afg‘onistondagи vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti bo‘lib qoladi».*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT  
Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasiidan.*



## IJODIY FAOLIYAT



1



2



3



4

Berilgan rasmlarga diqqat bilan e'tibor bering va quyidagi savollarga javob bering:

- 1) O'zbekiston davlati qanday voqealarning oldini olishga harakat qilmoqda?
- 2) «Bir kun urush chiqqan uydan qirq kun baraka ketadi» maqoli asosida 1-rasmda berilgan tasvirni izohlang.
- 3) 2-, 3-, 4-rasmlarda ifodalangan vaziyatlarga qarab, terrorchi va aqidaparastlarni islom dinining insonparvarlik mohiyatini anglagan, tushungan va unga amal qilgan deyish mumkinmi?



## O'ZBEKISTONLIK ISLOM SHUNOSLARNING MUROJAATI (2016-yil)

Ey, IShIDchilar!!!

...  
Sizlar tufayli Islomni qotillik va razillik dini deb o'ylaydigan odamlar paydo bo'ldi!..

Sizlarning shar va ofatingiz bilan ariqlar qonga to'ldi...

Bolalar yetim, ayollar beva, qariyalar qarovsiz qoldi!..

Sizlarning qo'lingiz bilan Payg'ambarlar, avliyolar, olimlar qabrlari buzildi, masjidlar portlatildi!..

Sizlarning qo'lingiz bilan maktab, madrasalar vayron qilindi!..

Sizlar tufayli necha-necha zavodlar, ishxonalar yopildi!..

Sizlarning shar va ofatingiz bilan butun dunyo musulmonlar ustidan kuldil!..

Sizlarning johilligingiz tufayli millionlab odamlar ilm olishdan to'sildi!..

Sizlarning qo'lingiz bilan qancha-qancha shifoxonalar yopildi, kasal, nogiron, chalajonlar soni ortdi!..

Sizlarning tashabbusingiz bilan qancha-qancha oilalar boshpanasiz qoldi!..

Sizlar tufayli musulmonlarga «johillik», «shafqatsizlik», «qoloqlik» kabi tamg'alar qo'yildi!..



## MA'LUMOT UCHUN

Din yoki e'tiqod asosida toqatsizlik va kansitishlarning har qanday shakllarini yo'qotish to'g'risidagi Deklaratsiya BMT Bosh Assambleyasining 1981-yil 25-noyabrdagi Rezolutsiyasi bilan e'lon qilingan. Ushbu Deklaratsiya yuridik jihatdan majburiy bo'lmasa-da, bugungi kunda uning qoidalari xalqaro odatiy huquq me'yori hisoblanadi.

## AFG'ONISTON MUAMMOSINI HAL ETISH BO'YICHA O'ZBEKISTONNING TASHABBUSI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish mintaqaviy global xavfsizlikni ta'minlashdagi muhim shart ekanligiga jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi. Mamlakatimiz Prezidenti mazkur ma'ruza orqali Afg'onistonda tinchlikka erishishning yagona yo'li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o'rta-sida oldindan hech qanday shart qo'ymasdan, to'g'ri-dan-to'g'ri muloqot olib borish ekanligini ta'kidladi.

Ushbu muloqot Afg'oniston hududida va BMT shafe-lligida o'tishi, bunda afg'onistonliklarning o'zlari hal qiluvchi o'rin tutishlari va o'z taqdirlarini o'zlari mustaqil hal qilishga haqli ekanliklarini qayd etdi.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti O'zbekiston Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo'shayotganligini va bu ishlar bundan keyin ham davom etishini ta'kidladi. Shu bilan birga Afg'oniston muammosi global miyodagi masalalar markazida bo'lishi lozimligi, xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg'onistondagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerakligi haqidagi taklifni ilgari surdi.



### IJODIY FAOLIYAT

Mintaqaviy mojarolar O'zbekistonning xavfsizli-giga qanday tahdid solishi mumkin?



### MA'LUMOT UCHUN

O'zbekiston Yevropa Kenga-shi doirasida bir qator xalqaro shartnomalar-ni imzolagan.

Bular:

1977-yildagi ter-rorizmnинг oldini olish;

1978-yildagi shaxslarning o'qotar qurollar-ni sotib olish va ularning saqla-nishini nazorat qilish;

1983-yildagi zo'ravonlik bilan amalga oshi-rilgan jinoyat-lar oqibatida jabrlanganlarga kompensatsiyalar berish to'g'risi-dagi konvensiya-lar.

2018-yil 26–27-mart kunlari O‘zbekiston tashabbusi bilan poytaxtimizda «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Afg‘oniston zaminida qariyb 40 yildan buyon davom etayotgan qurolli to‘qnashuv haqida so‘z yuritar ekan, «urush olov» bu yerga chetdan olib kirilayotgani va bu afg‘on xalqining xohish-istagi emasligini qayd etdi. Prezidentimiz xalqaro tashkilotlar va xorijlik siyosiy kuchlar ara-



## MA’LUMOT UCHUN




Toshkent shahrida 2018-yil 11-12-iyun kunlari «Terrorizmga olib keluvchi tajovuzkor ekstremizm va radikalizmning oldini olish hamda ularga qarshi kurashishda yoshlarning roli» mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Konferensiyada BMT, Yevropa Ittifoqi, YXHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Niderlandiya, Latviya, Pokiston, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Tojikiston, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Malayziya, Quvayt, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston singari mamlakatlar delegatsiyalari, xorijlik ekspertlar, senatorlar, deputatlar, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faollari, fan arboblari ishtirok etdilar.

lashgani bilan hali ham Afg'onistonda xalqaro terrorchi guruqlar sonining ko'payib borayotgani, zo'ravonlik va qon to'kishlar, narkobiznesning barham topmayotgani – bularning barchasi oqibatida bu mamlakatdagi vaziyat jahon jamoatchiligi tomonidan inkor etilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligini alohida ta'kidladi.

Konferensiya ishtirokchilari anjuman yakuni bo'yicha Toshkent deklaratsiyasini imzoladilar. Mazkur hujjatda mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, hamkorlik aloqalarini kengaytirish, ahil qo'shnichilik



Yovlashmoq –  
oson,  
yarashmoq –  
qiyin.


**Xalq maqoli**



## XALQARO HUQUQ

1. Har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga egadir. Ushbu huquq o'z tanloviga ko'ra din yoki e'tiqodga ega bo'lish yoki qabul qilish hamda yakka holda yoki boshqalar bilan birlgilikda, oshkora yoki xususiy tartibda ibodatlarni bajo etish, diniy va boshqa marosimlarni, ta'limni bajarish erkinligini qamrab oladi.
2. Hech kim o'z ixtiyori bilan o'z dini yoki e'tiqodiga ega bo'lish yoxud ularni qabul qilish erkini kamsitadigan majburlashga duchor bo'lmasligi kerak.
3. Din yoki e'tiqodga ega bo'lish erki qonunda belgilab qo'yilgan va boshqa shaxslar asosiy huquqlari va erkinliklarini saqlash uchun zarur darajada bo'lganidek jamoat xavfsizligini, tartib, sihat-salomatlik va axloq-odobni saqlash uchungina cheklanadi.
4. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar zimmalariga ota-onalar, tegishli hollarda qonuniy vasiylarning, bolalarini o'z e'tiqodlariga ko'ra diniy va axloqiy tarbiyalash erkini hurmat qilish majburiyatini oladilar.

*Fuqarolik va siyosiy huquqlar  
to'g'risida xalqaro Pakt, 18-modda*



Har bir ishda ham g‘ofillik qilma, hushyor bo‘l, g‘ofil-larning ishlari hech qachon ko‘ngildagidek bo‘lmaydi.

***Yusuf Xos  
Hojib***

munosabatlarini yanada mustahkamlash kabi ezgu maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Toshkent konferensiyasining yigirmadan ortiq davlat hamda Yevropa Ittifoqi va BMT imzolagan 24 banddan iborat deklaratsiyasiga: mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik Afg‘oniston va butun mintaqada tinchlik va farovonlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini e’tirof etish; Afg‘oniston hukumati va «Tolibon»ni siyosiy muzokalarlarga kirishishga, barcha mamlakatlarni Afg‘onistonning ichki ishlariga aralashmaslikka chaqirish; BMTning Global aksilterrorchilik strategiyasi va BMT Xavfsizlik Kengashi rezolutsiyalariga muvofiq terrorizmga barham berish bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning muhimligini qayd etish kabi dolzarb masalalar kiritildi.



## **MA’LUMOT UCHUN**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 911-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi tashkil etildi. Markazda Afg‘oniston tomoni buyurtmanomalariga muvofiq gumanitar, pedagogika va muhandis-texnik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.



*Surxondaryo viloyatining  
Termiz tumanidagi  
Afg‘oniston fuqarolarini  
o‘qitish ta’lim markazi*

## O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

2001-yil 11-sentabrda Amerika Qo'shma Shtatlari-ning Nyu-York va Vashington shaharlarida amalga oshirilgan terroristik xatti-harakatlardan keyingina xalqaro hamjamiyat o'z nigohini Afg'onistonga qarata boshladi, u yerdan dunyoga yoyilayotgan terrorizm, ekstremizm va giyohvandlik kabi illatlarning oqibatini anglab yetdi.


2012-yilda davlatimiz o'zining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini e'lon qildi. Unda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha va uning barqarorligiga xavf solayotgan xalqaro terrorizm, narkobiznes, ekstremizm kabi tahdidlarning har qanday ko'rinishiga qarshi o'zining qat'iy pozitsiyasini bildirdi. Konsepsiya da dunyodagi xalqaro munosabatlarning bugungi ahvoliga, jahon maydonida kuzatilayotgan trendlar va tub o'zgarishlarga keng qamrovli tavsif berilgan.

Konsepsiada Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisz, mintaqadagi davatlarning o'zları tomonidan yechilmog'i zarur, deyiladi. Unda mamlakatimizning yonginasida va dunyoning boshqa qismlarida yuz berayotgan qurolli mojarolarga ham e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston hukumati Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida Afg'onistonda muloqot guruhini tashkil qilib, o'zaro kurash olib borayotgan kuchlar o'rtasida murosaga erishish va koalitsion afg'on hukumatini shakllantirish lozimligini ilgari surdi.

Shu bilan birga O'zbekistonning qo'shni Afg'onistonga nisbatan tutgan pozitsiyasi aniq belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda o'zaro teng huquqlilik tamoyiliga amal qilishi va o'z tashqi siyosatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan



Hurlik va bo'sh vaqt... Bu ikki narsaga men shunchalar to'laqonli egalik qilaman va uni shu darajada qadrlaymanki, bunday imtiyoz va huzurni sotib olishga olamdag eng badavlat podshohning ham qurbi yetmaydi.

*Rene Dekart*

prinsiplari va me'yorlariga sodiq qolishini e'lon qilgan. Yuqoridagilardan davlatimizning xalqaro maydonda olib borayotgan tashqi siyosati tinchlik va hamkorlik omillariga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonning mintaqada va dunyoda tinchlik hamda xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlari, geografik joylashuvi va mafkurasidan qat'i nazar, barcha mamlakatlar bilan ochiq, do'stona munosabatlar o'rnatilganligi uning jahonda tezda e'tirof etilishini ta'minladi.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida qanday tashabbus bilan chiqdi?
2. www.prezident.uz saytidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan ma'rzasini topib o'qing. Ma'ruzada dunyoda terrorizm tahdidlarini keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan kurashish masalasida qanday takliflar berganligini aniqlang va munosabitingizni bildiring. Mazkur vazifalarni bajarish uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot bering.
3. Mamlakatimiz rahbari «...zo'ravonlik g'oyasi, «virusi» tarqali-shining oldini olish» masalasi yuzasidan qanday takliflarni ilgari surdi?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 11-noyabr Samarqand shahrida o'tgan «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiyl kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqini va unda ko'tarilgan masalalarni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan tashabbusining ijrosi sifatida baholash mumkinmi? Fikringizni ma'ruzadan iqtiboslar bilan asoslang.

# 14-15-§

## XX-XXI ASRLARDA TARIQATCHILIK



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. XX-XXI asrlarda tasavvuf ta'lomoti.
2. Adashgan so'fiy guruhlarga xos xususiyatlar.
3. Tasavvuf va soxta tariqatchilik o'rtasidagi farq.

### XX-XXI ASRLARDA TASAVVUF TA'LIMOTI

Musulmon dunyosining deyarli barcha mamlakatlarida turli tasavvufiy tariqatlar vakillari faoliyat yuritayotganini ko'rish mumkin.

Pokiston va Hindiston hududlarida tarqalgan tariqat larning urf-odatlarida yoga, buddaviylik, hinduiylik va qadimgi hind falsafasining ta'siri mavjud. Barlaviya, Mehmandiya va boshqa qator tariqatlarda qadimgi hind falsafasidagi «tanosux» (ruhning ko'chib yurishi) g'oyasi keng o'rinni oлган. Ular namoz yoki zikr vaqtida yuqorida bir joyni bo'sh qo'yadilar va unga Muhammad Payg'ambar ruhi kelib o'rashadi, deb hisoblaydilar. Masjidlarning qibla tarafida esa o'z tariqatlarining asoschisi yoki pirlarining qabri joylashgan bo'lib, namozdan avval va keyin uni tavof qiladilar. Bunday holatlar islom dini ta'lilotiga to'g'ri kelmaydi.

Hozirgi paytda dunyoning ko'p mamlakatlarida, Amerika Qo'shma Shtatlaridan to Avstraliya arxipelagigacha



### MA'LUMOT UCHUN

Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida Bahouddin Naqshband (1318–1389) va u asos solgan Naqshbandiya tariqati katta nufuzga ega.



«Ey Parvardigorm, ey  
Yori aziz, agar  
jannating tamasida toat qila-  
digan bo‘lsam,  
jannatingdan  
benasib et, agar  
do‘zaxingdan  
qo‘rqib ibo-  
dat qiladigan  
bo‘lsam, meni  
do‘zax o‘tida  
kuydir – ming-  
ming roziman!  
Ammo agar  
Sening jamoling-  
ni deb tunlarni  
bedor o‘tkazar  
ekanman, yol-  
voraman, meni  
jamolingdan  
mahrum etma!»

***Robia Adaviya***

bo‘lgan hududda Bahouddin Naqshband va Naqshbandiya tariqatini bilishadi va hurmat qilishadi. Nima uchun shunday? Chunki Bahouddin Naqshband, avvalo, islom dini shariati mezonlarini mahkam ushlagan va ularning buzilishiga yo‘l qo‘ymagan. Ikkinchidan, u chin insoniyo‘yalar va fazilatlarni ilgari surgan, jamiyatning turli va killari o‘rtasida futuvvat – javonmardlik rishtalari paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan. Buning ortida odamlar bir-birlariga moddiy va ma’naviy yordam bera boshlaganlar, hayotdagi qiyinchilikni hamjihatlikda yengib o‘tib, shodliklarni ham birga baham ko‘rganlar.

Bularning barchasi Bahouddin Naqshband jamiyatda barpo qilmoqchi bo‘lgan birodarlik, birdamlikning ayanan o‘zi edi. Uning «Ko‘ngling Allohdha bo‘lsin, qo‘ling mehnatda», degan shiori hunarmand, dehqonlarda dinga, dindor va tariqatchi so‘fiylarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat paydo qilgan. Bu, o‘z navbatida, odamlar turmush tarzining ko‘tarilishiga ham xizmat qilgan.



## **MA‘LUMOT UCHUN**

Robia Adaviya (713/714-801) — Basra zohidlarning taniqli vakilasi. Bolaligida cho‘ri qilib sotilgan. Keyinchalik ozodlikka chiqarilgan. Bir necha yil sahroda yolg‘iz yashagan. U Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdoi bo‘lgan. Allohdan hech manfaat ko‘zlamay, uni mutlaq sevish — inson ma’naviy hayotining mohiyati ekanligini zohidlardan birinchi bo‘lib ta’kidlagan. Robia Adaviya islom olamida «avliyo» sifatida ulug‘lanadi.

## **ADASHGAN SO'FIY GURUHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Islom tarixining barcha davrlarida tasavvufni torma'noda talqin etuvchi guruh va shaxslar bo'lgan. Ular e'tiborini asosan so'fiylikning tashqi jihatlariga qaratganlar. Bundaylar hozirgi kunda ham topiladi.

Bunday guruhlар uchun so'fiyga na dunyodan va na oxiratdan ta'ma borligi g'oyasining mohiyati buzilib, turli marosimbozlik, pirparastlik, «murid ovlash» (qo'shtirnoq ichidagi «murid ovi»), turli diniy marosimlarda o'zlarini alohida shaxs ekanliklarini namoyon qilish va shu bilan obro', boylik o'rttirish maqsad bo'lib qolgan.

Bu toifalar tasavvufning komil inson yetishtirish g'oyasini e'tibordan chetda qoldirganlar.

Shu sababli tasavvufshunos olimlar tomonidan bunday toifalarni mumtoz tasavvuf namoyandalaridan farqlay bilish, ularni boshqa turli oqimlardan ajratib ko'rsatish maqsadida «tariqatchilar» atamasi iste'molga kiritildi. Ularning asl maqsadlari ochib berildi va din ulamolarining tanqidiga uchradi.

## **TASAVVUF VA SOXTA TARIQATCHILIK O'RTASIDAGI FARQ**

Soxta tariqatchilik tarafдорлари dunyoviy ilmlar inson hayotida shart emas, ayniqsa, qiz bolalarning ta'lim olishlariga to'sqinlik qilish kabi hukmlar chiqaradilar. Asrimizning boshlarida respublikamizning turli mintaqalarida faoliyat yuritgan tariqatchilar orasida bir qator noan'anaviy amallar kuzatilgan:

- tahajjud (tungi) namozini o'qish farz (yoki vojib), deb bilish;



### **MA'LUMOT UCHUN**

Tariqatchilar deganda tasavvufning faqat tashqi jihatlariga asosiy e'tiborni qaratib, uning asosiy xususiyatlarini bilmasdan, pirga haddan oshiq, hatto shariat doirasidan chiqib «xizmat qilish»ni hayotdagi eng asosiy maqsad deb biluvchi kishilar yoki jamoalar, guruhlар tushuniladi.



Shamga o‘xshaganin, toki ham-maga ravshanlik bag‘ishla-da, o‘zing esa qo-rong‘uda bo‘l.

*Bahouddin  
Naqshband*



## MA’LUMOT UCHUN

*Biz uchun Buxorodan olis bo‘lgan Londonda turib, inson kamoloti va ruhiy tarbiyasining beqiyos manbasi bo‘lgan Naqshbandiya ta’limotiga amal qilish o‘ta muhim. O‘zbekistonligi yetti pir qadamjolarini ziyyarat qilish, G‘ijduvoniy va Naqshband hazratlarining tavallud sanalariiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish orzusidaman. Bu yurt jahonga ruhiy tarbiya ustozlarini taqdim etgan zamin sifatida hamisha qadrli bo‘lib qoladi.*

*Britaniya. Shayx Zimer Solihiy. 2018-yil.*

yuz-qo‘lidan turli zararli mikroblar tushadi. Uni ichish og‘ir kasallikka olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, Imom A’zam nazdida bu suv najosat bilan aralashgan hisoblanadi. Faqih olimlar uni ichishni man etganlar.

Tasavvuf deganda, oila, tirikchilik, mas’uliyatni unutib, tarkidunyo qilish tushunilmaydi.

Ba’zi kishilar tariqatga kirganlarini pesh qilib, tashqi qiyofa va marosimlarga katta ahamiyat beradilar, ammo oilalari, farzandlari oldidagi majburiyatlarini unutib qo‘yadilar. Ular o‘zlaricha Allohgaga tavakkal qilib, oilasining ta’midotidan voz kechmoqdalar, pir xizmatini oila oldidagi vojib mas’uliyatdan ustun qo‘ymoqdalar.

Shu yo‘l bilan, tasavvufning asl mohiyatini anglamagan va haqiqatidan bexabar qolganlar haqiqiy tariqat ahliga ham, tasavvuf nomiga ham dog‘ tushirmoqdalar.

Tariqatchilar faoliyati tufayli ijtimoiy nizolarga sabab bo‘layotgan holatlар haqida fikr yuritar ekanmiz, quyidagilarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak bo‘ladi. Tariqatchilar orasida:

– tariqatda bo‘lmaganlarga nisbatan past nazar bilan qarash;



## IJODIY FAOLIYAT

1. Tariqatchilarning faoliyati islom dini ta’limotiga to‘g‘ri keladimi?
2. Fikringizni izohlashda quyida berilgan matndan foydalaning.

«*Odamlarga (kibrilanib) yuzingni burishtirmagin va yerda kerilib yurmagain. Chunki Alloh barcha kibrli, maqtanchoq kimsalarni suymas».*

*Qur’oni karim, Luqmon surasi, 18-oyat.*



Sizlarning yaxshilaringiz dunyo ishini deb oxiratni, oxiratni deb dunyoni tark qilmaydigan va odamlarga malolligini tushirmaydiganlaringizdir.

***Hadis***



Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydali so‘zni ko‘p eshiturdin qaytma.

*Alisher Navoiy*



## TARIXGA NAZAR

Bahouddin Naqshband (1318–1389) – naqshbandiylik tariqatining buyuk namoyandası. El orasida Xoja Bahouddin Balogardon, Xo‘jai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur. Buxoroda Qasri Xinduvon qishlog‘ida tug‘ilgan. Bahouddin Naqshband Boboyi Samosiy, Amir Kulol, Mavlono Orif, Halil ota, Qusam Shayh kabi ustozlardan saboq olgan. U ikki marta haj qilgan. G‘aribona hayot kechirgan, faqat dehqonchilik va keyinroq mis va kimxobga naqsh solish orqali kun ko‘rgan. O‘z ta’limotini yaratishda Abduxoliq G‘ijduvoniy asos solgan «Xojagon» silsilasining sakkiz moddadan iborat qoidasiga o‘zining uch qoidasi (talabi) ni qo‘shib uni takomilga yetkazdi. Shu tariqa tasavvuf naqshbandiya tariqatida yanada mukammallikka erishdi.

– ilm olishga bo‘lgan rag‘batning susayishi – ko‘pgi-na avliyolar o‘qimasalar ham katta maqomlarga yetishganlar, qabilida ish tutish;

– oilali tariqatchilar ning pirdan vazifa olganlik baho-nasida oilasining moddiy ta’midotidan bosh tortishi;

– zamonaviy taraqqiyot yutuqlariga salbiy munosabatda bo‘lish, zamonaviy kiyim kiyib yurganlarga nisbatan yaxshi fikrda bo‘lmashlik va h.k. holatlari kuzatiladi.

Bu kabi tariqatchilar tomonidan shariat talablarining noto‘g‘ri talqin qilinishi, an‘anaviy islom tamoyillariga zid bo‘lgan qoidalar ishlab chiqilishi odamlar o‘tasida noroziliklarga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari ayrim tariqatchilar so‘fiy tabobati, so‘fiy gimnastikasi, so‘fiy jang san’ati kabi markazlarni ochib, shu orqali odamlarning e’tiborini jalb qilish usul-laridan ham foydalanishmoqda. Bunday tariqatchilar tomonidan islom asoslarining buzib talqin qilinishi, turli ta’limotlar va amaliyotlarining tasavvufga oid, deb targ‘ib etilishi, islom diniga aloqasi bo‘lmagan turli yetkazishlari kuzatiladi.

g‘oyalarning musulmonlar orasida tarqalishiga, ularning e’tiqodlari buzilishi, sog‘lom aqidaga putur yetishiga sabab bo‘lmoqda. Aksariyat «tariqatchilar» o‘z guruh a’zolarini piriga qo‘l bermagan boshqa oddiy musulmonlardan ustun qo‘yadilar, «piri yo‘qning – dini yo‘q» qabilidagi g‘oyalarni tarqatishga urinadilar.

Tasavvuf esa bunday noto‘g‘ri fikrlarga qarshi bo‘lgan, kishilar orasida tenglik, birodarlik, ijtimoiyadolat, jamiyatga manfaatli mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lishni targ‘ib etgan. Masalan, Bahouddin Naqshbandning «Dil ba Yoru dast ba kor» hikmati asrlar osha o‘zining mazmunini yo‘qotmagan.

Tasavvufiy qarashlarning yaxlit ta’limotga aylanib, islom o‘lkalariga keng yoyilishi kishilar hayotida muhim voqelikka aylangan.

Mumtoz tasavvufga xos go‘zal axloq, yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish, komil inson, nafs tarbiyasi, vatanparvarlik kabi g‘oyalarni xalqimizning asrlar davomida takomiliga yetib borgan ma’naviy boyligini tashkil etadi. Hozirgi sharoitda ham tasavvufning ana shunday xususiyatlarini ko‘rsatib berish kishilarни turli asossiz g‘oyalarni va maslaklarga adashib kirib qolishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.



## MA’LUMOT UCHUN

Markaziy Osiyoda tasavvuf va tariqatchilik o‘rtasidagi nomutanosiblik ulkan ilmiy meros va an‘anaviylikdan uzoqlashishning natijasidir.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tasavvufning asl mohiyatini buzib talqin qilish qanday oqibat larga olib keladi?
2. Tariqatchilikning tasavvufdan farqi nimada?
3. Tariqatchilikning qanday belgilarini bilib oldingiz?
4. Tariqatchilar tomonidan qanday noo‘rin holatlar kuzatiladi?

# 16-17-§

## XX-XXI ASRLARDA DIN VA MADANIYAT



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Dinning madaniy hayotdagи o‘rni.
2. Islom sivilizatsiya markazlarining tashkil etilishi.



### MA’LUMOT UCHUN

Madaniyatning yaxlit tizimidan ikki katta soha ajralib chiqadi. Bular o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra moddiy va ma’naviy madaniyatlardir.

### DINNING MADANIY HAYOTDAGI O‘RNI

Madaniyat inson va jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Madaniyat insoniyatga bir-biriga yaxshi muomala qilish, o‘zgalarni hurmat qilish, yer yuzida tinch-totuv yashashni o‘rgatadi. Din e’tiqod qiluvchilarning ijtimoiy, etnik va ma’naviy hayotiga ta’sir o’tkazadi. Bu esa dunyo xalqlarining madaniyati, adabiyoti, san’ati kabi sohalariga kirib borishida ko‘rinadi.

Dinning madaniyatni targ‘ib qilish funksiyasi shunda ko‘rinadiki, oldin madaniyatning ma’lum bir qatlamlari – yozuv, kitob bosish, san’atning umuman rivojlanishiga yordam bergan bo‘lsa, hozir ba’zi madaniy fenomenlarni rag‘batlantirib, ba’zilarini inkor etgan holda diniy madaniyat qadriyatlarini saqlash va ko‘paytirish, ilmiy-ma’naviy merosni nasldan naslga qoldirish vazifalarini bajaradi.



### MA’LUMOT UCHUN

Diniy madaniyat – inson ruhiyatining ozig‘idir. Insoniyat o‘z taraqqiyoti davrida turli dinlarga e’tiqod qilib kelgan. Ilohiy kuchlar orqali tabiatdan ko‘mak so‘ragan. Jahonda eng ko‘p tarqalgan dinlar uchta: buddaviylik, xristianlik, islom.



## IJODIY FAOLIYAT

1. XX–XXI asrlarda qurilgan mazkur ibodatxonalarning arxitekturasiga e’tibor qarating va dinning madaniyatga, rivojlanishga ta’siri haqida ma’lumot bering.
2. Din e’tiqod qiluvchilarning ma’naviy hayotiga, ijtimoiy turmush tarziga kirib borishi haqida ma’lumot bering.
3. Fikringizni dinning madaniy qadriyatlarni saqlash va ko‘paytirish, ilmiy-ma’naviy merosni nasldan naslga qoldirish kabi vazifalari bilan bog‘lab tushuntiring.



## ISLOM MADANIYATI POYTAXTLARI

2005-yildan boshlab Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) qarashli Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) har yili tashkilotga a’zo Osiyo, Afrika va arab mamlakatlari shaharlarini «Islom madaniyati poytaxti» deb e’lon qiladi. ISESCOning musulmon dunyosidagi muayyan shaharlarni islom madaniyatining poytaxtlari deb e’lon qilishi musulmon mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish, islom madaniyatiga oid ilmiy-ma’rifiy, tarixiy-me’moriy merosni o‘rganish,

## MA’LUMOT UCHUN

Makka shahridagi «Masjidul Harom», Madina shahridagi «Masjidun Nabaviy» va Quddusdagi «Masjidul Aqso» islomdagи bosh masjidlar hisoblanadi.

## ISLOM MADANIYATI POYTAXTLARI



Halab



Almati



Bishkek



Fes

tiklash va targ‘ib qilish, dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirish, turli mamlakatlarning bu boradagi sa'y-harakatini qo'llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadlarini ko‘zlaydi.

ISESCO tomonidan shaharlarni Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilishda:

- qadimiy islom yodgorliklari va me’moriy obidalar;
- islom madaniyatiga hissa qo‘sadigan ilmiy, madaniy asarlar;
- ilmiy tadqiqot markazlari, qo‘lyozmalar markazlari va arxeologik markazlari;
- madaniy muassasalar o’tkazgan festivallar, madaniy tabdirlar, kitoblar, rasmlar, tajriba ishlari va nashr ishlari;
- shahar tarixi haqida yuqoridagi talablar asosida ma'lumotlarning mavjudligiga asoslanadi.

ISESCO tomonidan 2005-yilda Makkayi Mukarrama islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilingan bo‘lsa, 2018-yilgacha 43 davlat Islom madaniyati poytaxti maqomini oldi. Bular ichida Isfahon (Eron), Halab (Suriya), Timbuktu (Mali), Toshkent (O‘zbekiston), Tripoli (Liviya), Fes (Marokash), Dakar, (Senegal), Almati (Qozog‘iston), Dushanba (Tojikiston), Bishkek (Qirg‘iziston), G‘azna (Afg‘oniston) kabi shaharlar ham bor.



## MA'LUMOT UCHUN

Musulmonlarning ilm istab qilgan sa'y-harakatlari tufayli dunyoda birinchi to'laqonli universitetlarga asos solindi. Tunisda «Zaytuna» 732-yilda, Bog'dodda «Bayt ul-hikma» 829-yilda, Fesda (Marokash) «Qaroviyun» 859-yilda, Qohirada «al-Azhar» 970-yilda, Xorazmda Ma'mun akademiyasi 1004-yilda tashkil etilgan. Musulmon olamidagi bu ilm dargohlarining aksariyati ming yildan ortiq faoliyat ko'rsatmoqda.

## DUNYODAGI DASTLABKI UNIVERSITETLAR



*Zaytuna universiteti*



*Al-Azhar universiteti*



*Qaroviyun universiteti*



*Bayt-ul Hikma  
akademiyasi*



*Ma'mun  
akademiyasi*



## TARIXGA NAZAR

1173-yilda vafot etgan Totbaliy (Tudelskiy) Iskandariyada 20 ta madrasa bo'lganligi, Bag'dod, Qohira, Kordova va shunga o'xshash katta shaharlar-da laboratoriya, rasadxonalar qurilganligi hamda ilmiy tadqiqotga asqotadigan barcha sharoit yaratilganligi, kitobga boy kutubxonalarga ega «jomea» – universitetlar qad ko'targanligi haqida ma'lumot bergen.

## TOSHKENT – ISLOM MADANIYATI POYTAXTI

Toshkent qadimdan ilm-fan, madaniyat markazi bo‘lib kelgan. Ushbu shaharda o‘rta asrlarda turli fan sohalari bo‘yicha faoliyat yuritgan 100 dan ortiq olimlar nomlari aniqlangan. Jumladan, Hazrati Imom deb ulug‘langan Abu Bakr Qaffol Shoshiy (904–976), ishonchli muhaddis sifatida tanilgan Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy (vaf. 947) hamda Faxrul islom, Al-Imom al-Kabir nomlariga sazovor Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Shoshiy (1038–1114) nomlarini alohida qayd etish mumkin.

Zamondoshlari «Hazrati Imom» deb ulug‘lagan bu zotning to‘liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol Shoshiy bo‘lib, arab manbalarida unga alohida hurmat bajo keltirish uchun nomiga «katta», «ulug‘» ma’nolarini ifodalaydigan «Kabir» so‘zini qo‘sib yozadilar.

Imom Qaffol Shoshiy nomi bilan shuhrat qozongan Hastimom mahallasi o‘z zamonasida Toshkentning diniy, ilmiy, ma’naviy va ma’rifiy markazi sifatida dong chiqargan. Afsuski, sho‘rolarning ajdodlarimiz qadamjo va ziyyaratgohlariga nisbatan ateistik munosabatlari natijasida bunday maskanlar e’tibordan chetda qoldi.



*Minor masjidi*



*Hazrati Imom (Hastimom) majmuasi*



### IJODIY FAOLIYAT

Tarix fanida olgan bilimlaringiz asosida islom madaniyati poytaxti nomini olgan shaharlar tarixi haqida malumot bering. Bunda ISESCO tomonidan shaharlarni Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishiga oid talablardan foydalaning.

Mustaqillik yillarda ilmiy-ma’naviy, diniy-ma’rifiy adabiyotlarning chop etilishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Aynan Toshkentda Qur’oni karim va hadisi shariflar, shuningdek, islam ma’naviy merosiga ulkan hissa qo’shgan allomalar asarlarining o‘zbek tilidagi nashrlari chop etildi. Hozirgi kunda poytaxtimizning eng ko‘hna go‘shasida, O‘zbekiston musulmonlari idorasi yonida joylashgan Qaffol Shoshiy nomi bilan bog‘liq Hazrati Imom (Hastimom) majmuasi yildan-yilga obod bo‘lib, Eski shaharning fayziga fayz qo‘shayotgan tarixiy maskanlardan biriga aylandi.

Yuqorida zikr etilgan islam dini va madaniyatining turli qirralariga bevosita bog‘liq bo‘lgan bu ulug‘vor ishlar ulkan salohiyat va donishmandlik bilan olib borilayotgan dono va xalqchil siyosatning samarasidir.

Mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahrining islam madaniyati poytaxti, deb e’lon qilinishi islam madaniyati va qadriyatlarni tiklash hamda rivojlantirishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan ishlarning jahonshumul ahamiyat kasb etishining e’tirofidir.

## O‘ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSİYASI MARKAZI FAOLIYATI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islam sivilizatsiyasi markazi faoliyatining asosiy maqsadi – islam dini bilan bog‘liq boy



*Toshkentdagi Imam Termizi masjidi*



*Baroqxon madrasasi*



*Xoja Ahror Valiy masjidi*



*Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islam dinining insonparvarlik mohiyati, islam madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi.*

*Bu borada biz Samarqandda Imam Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Toshkentda Islam sivilizatsiyasi markazini tashkil etishga qaror qildik.*

*Shavkat Mirziyoyev*

va noyob merosni ilmiy asosda har tomonlama churur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, ular bilan xalqimiz va jahon jamoatchiligini keng tanishtirish, xalqaro miqyosda dirlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'lga qo'yish, islam dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdan iborat.

Markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, islam madaniyati markazlaridan biri bo'lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy konsepsiyanı ishlab chiqish va amalga oshirish;
- markaz tarkibidagi kutubxona va arxiv, qo'lyozmalar fondlarini bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar, ular tomonidan asos solingan ilmiy va diniy maktablarga doir yurtimizda va chet ellarda saqlanayotgan qadimiy qo'lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, arxeologik topilmalar, osori-atiqalar, shu yo'nalishdagi zamонавиyl ilmiy-tadqiqot ishlari, kitob va to'plamlar, video va foto hujjatlar hisobidan shakllantirish;
- markaz tarkibidagi muzey ekspositsiyasining mavzu yo'nalishlarini churur o'ylangan, ilmiy asoslangan aniq reja bo'yicha shakllantirish va uni eng zamонавиyl axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida namoyish etish;

- islam dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk vatandoshlarimiz — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy kabi allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, ularning ilmiy-ma'naviy jasorati, ulug' insoniy fazilatlarini keng targ'ib qilish;
- jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamashshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi olim va mutafakkirlar merosining tarixiy va zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib singari mumtoz adabiyot va san'at namoyandalari ijodining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish;

- islam dini odamlarni, barcha millat va xalqlarni hamisha nurli hayotga, ezungulik, o'zaro do'stlik va insoniylikka da'vat etishini, uning asl, gumanistik mazmunini teran tahlil etishga qaratilgan ilmiy taddiqotlar, jahon



Odamlarning botiri kelajak-dagi ishlardan qo'rqlaydi. Kamolot hosil qilishdan chetlangan kishi odamlarning eng qo'rqlig'idir.

*Abu Ali  
ibn Sino*



«Yevropaning barcha sohasidagi taraqqiyotida Islom madaniyatining xizmati beqiyos va Yevropa taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan keskin asarlari bor... Yevropaga hayot bag'ishlagan nafaqat tabiat ilmlari, balki Islom madaniyati Yevropaga ilk nurini yuborganidayoq har tomonlama Yevropaga o'z ta'sirini o'tkazgan edi».

*Robert Briffault, «Insoniyatning yaralishi»  
(«The Making of Humanity») nomli kitobidan*





Biz olimlardan islom dini va madaniyatini o'rgandik. Bu ilmlar islom sivilizatsiyasi asosini tashkil etadi. Samarcand, Buxoro, Toshkent buyuk shaxslar yurti. Ular bor kuchini ilm olish va tarqatishga sarf etganlar... Ular foydali va manfaatli ilmni ixlos bilan tarqatishdi...

***ISESCO bosh direktori  
Abdulaziz bin Usmon  
at-Tuvayjiri***

ahlini bir maqsad yo'lida — jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish yo'lida birlashishga chorlaydigan turli anjumanlar, ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

- O'zbekistonning qadimiy tarixi va madaniyati, davlatchilik an'analari, xalqimizning turmush tarzi va dunyoqarashi islom sivilizatsiyasi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib, rivojlanganini Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Kesh, Nasaf, Termiz, Andijon, Marg'ilon, Karmana, Qo'qon singari qadimiy shaharlаримиз, ulug' allomalar va aziz-avliyolar xotirasiga bag'ishlab yurtimizda bunyod etilgan yodgorlik majmualari, muqaddas qadamjolar maketlari, ulug' siymlar, noyob qo'lyozma va toshbosma asarlar, moddiy va nomoddiy meros, xususan, «Shashmaqom» namunalari kabi noyob eksponatlar orqali aks ettirish, shu yo'naliishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalari asosida qomuslar, katalog va albomlar, ilmiy-ommabop to'plamlar, teleko'rsatuv, film va boshqa materiallar tayyorlash;

- Markazda mahalliy va chet ellik mutaxassislarini keng jalb etgan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish va ularning natijalaridan yurtimiz hamda jahon jamoatchiligini xabardor qilib borish;

## MA'LUMOT UCHUN




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonning Islom sivilizatsiyasi markazi Prezidentimizning 2017-yil 23-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonning Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3080-son qaroriga asosan tashkil etilgan.

- Yevropa Renessansining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan Musulmon Renessansi davrida ilm-fan, madaniyat va san'at, me'morlik rivoji to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlar pavilyonlarini tashkil etish orqali Markazda namoyish etiladigan ekspozitsiyalarni mazkur davrlarga oid eksponat va ko'rgazmali manbalar bilan boyitish;

- jahon tarixida «Amir Temur va temuriylar renessansi» degan nom bilan alohida o'rin egallaydigan davrda yaratilgan ilm-fan, madaniyat va me'morlik durdonalarini islom madaniyatining nafaqat yurtimizdag'i, balki butun musulmon olamidagi taraqqiyot va yuksalish davri sifatida ko'rsatish;

- bugungi kunda tobora katta ahamiyat kasb etayotgan dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni samarali yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining jahondagi nufuzi xalqaro ilmiy muassasa va tuzilmalar, jumladan, UNESCO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatishdan iborat.



Yaxshi axloqiy fazilatlarga ega kishi — har qanday qimmatbahо durlardan ham qimmatlidir.

*Yusuf  
Xos Hojib*



Markaziy Osiyo aholisi eng «yosh» mintaqalardan biridir. Bu yerda aholining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etadi va bu dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqoridir. Aynan shu maqsadda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yaqinda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan sessiyasida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi.

*Shavkat Mirziyoyev*

*Samarqand.  
Mirzo Ulug'bek olimlar bilan*



## MA'LUMOT UCHUN

Buyuk Britaniya Parlamentining lordlar palatasi vakili lord Muhammad Iltaf Shayx:

«Agar Ulug'bek hozir hayot bo 'lganida o 'zbeklar birinchi bo 'lib oyga safar qilgan bo 'lardi. Al-Xorazmiy bo 'lmaganida zamonaviy texnologiyalar ham bo 'lmas edi. Ibn Sino asarlari asosida hozir Yevropa tibbiyotni o 'rganmoqda. Biz radikallashuvga O 'zbekiston madaniyati bilan qarshi kurashimiz kerak. Sizlar Imom Buxoriy hadislarini ingliz tiliga tarjima qilib, sharhlab bering. Biz bu kitoblar bilan jaholatga qarshi kurashamiz».

*2018-yil, 1-mart, London. O 'zbekiston va Buyuk Britaniya ziyyolilarini, diniy soha namoyandalarining uchrashuvidan.*



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Din madaniyat rivojiga qanday hissa qo'shadi?
2. Nima uchun Toshkent islom madaniyati markazi deb e'lon qilindi?
3. O 'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O 'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi faoliyati haqida ma'lumot bering.
4. Din yozuv, kitob bosish, san'atning umuman rivojlanishiga qanday hissa qo'shadi?
5. ISESCOning musulmon dunyosidagi muayyan shaharlarni islom madaniyatining poytaxtlari deb e'lon qilishdan qanday maqsadni ko'zlaydi?



### **BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHHASIZ:**

1. «Marosim» tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Milliy va diniy marosimlarning transformatsiyalashuv jarayonlari.
3. Milliy qadriyatlar va diniy an'analar.

### **«MAROSIM» TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI**

Har bir xalqning o‘ziga xos urf-odat, an’ana va marosimlari bor. Ularning har biri boshqasidan tubdan farq qiladi. Biri foydali, biri mutlaqo zararli. Urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘philik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasidir.

«Odat» degan tushuncha ma’lum sharoit ta’sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o‘z-o‘zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma’nosini bildiradi. Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatda o‘tadigan, umum qabul qilgan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanala-



Har bir qush o‘z ovozidan shodlanar.

*Xalq hikmati*



### **IJODIY FAOLIYAT**

1. Sizning oilangizda qanday urf-odatlar bor?
2. Xalqimizning qaysi odat va an’analari qadriyat sifatida qonun darajasiga ko‘tarilgan?



## IJODIY FAOLIYAT

«Ism qo‘yish», «nikohdan o‘tish», «dafn qilish», «xotirlash» kabi tushunchalar qanday tadbirlarni o‘zida aks ettiradi?



*Afrika  
qabilalaridan  
birida hamdardlik  
bildirish odati*



*O‘lkamizda bahor  
va kuz oylarida  
qabristonlarda  
o‘tkaziladigan  
hashar*

di. Odamlar kimningdir g‘ami yoki quvonchiga sherik bo‘lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o‘ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi (bosqlanishi, o‘rtasi, oxiri) bo‘ladi. Inson hayotida bo‘lib o‘tayotgan muhim voqeani nishonlash jarayonida an’ana ham, odat ham, marosim ham mujassamlashadi. An’ana, odat va marosim bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisalar hisoblanadi.

Shu bois an’analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo‘lishi mumkin. Ba’zi holatlarda «an’ana», «odat» va «marosim» tushunchalari alohida ishlatsa, ular mavhum ma’noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so‘zlar qo‘shilib, masalan, «an’anaviy bayram», «an’anaviy festival», «an’anaviy kecha» yoki «mukofotlash marosimi», «to‘y marosimi», «pensiyaga kuzatish marosimi» tarzida qo‘llaniladi.

## MILLIY VA DINIY MAROSIMLARNING TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI

Taraqqiyot, zamon talabiga javob bergan urf-odat yanada kuchayib, zamonga qarab rivojlanib bormoqda. O‘zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig‘iriqlaridan o‘tib, muhim ma’naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan.



## MA’LUMOT UCHUN

«Marosim» so‘zi jamoatchilik ishtirokida o‘tkaziladigan katta tadbir ma’nosini bildiradi. Oilaviy urf-odatlar oila paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Shu tufayli oilalar o‘zgarishi bilan birgalikda u ham o‘zgargan, rivoj topgan.

XX asrda yangi urf-odat va an'analar hayotimizga kirib kela boshladi. Masalan, tug'ilgan chaqaloqlarning ota-onalariga guvohnoma yoki voyaga yetgan yoshlarga passport topshirish, o'quv yurti bitiruvchilariga tantanali ravishda diplom va shahodatnomalar taqdim etish va ularni mehnat jamoasiga qabul qilish, tantanali pensiya-ga kuzatish va boshqalar. Hozirga kelib ular an'anaviy tadbirlarimizga aylanib qoldi.

*Jahon va milliy  
dinlardagi ibodat  
marosimlari*



## IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni o'qing.

1. Matnda qanday oilaviy an'analar, qadriyat va marosimlar mavjud?
2. Yana qanday oilaviy tadbirlar, marosimlar, an'analar va urf-odatlarni bilasiz?
3. Oilaviy tadbirlar, marosimlar, an'analar va urf-odatlar nima maqsadda o'tkaziladi?
4. Xalqimizga xos bo'lgan tadbirlar, marosimlar, an'analar va urf-odatlar haqida ma'lumot bering.

*Farhod ishga kirganiga ham bir oy bo'ldi. Birinchi maoshini olib keldi-da, onasiga berdi. Onasi duo qilib: «Oilaning kattasi — buvangiz, u kishiga bering, bu oilamizga xos odat», — deb qo'shib qo'ydi. Shu kuni oila a'zolari kechki dasturxon atrofiga yig'ilganlarida Farhodning buvasi nabirasining birinchi halol ishlab topgan puli bilan tabriklab, duo qildi. Bu muhim voqeя munosabati bilan Farhodning onasi dasturxon tuzatdi.*



*Surxondaryoda Navro'z  
bayrami.*



*Hindistonda Yangi yil  
bayrami.*



*Tatar xalqi bayrami  
«Saban to'yi».*



*Toshkentda  
maslenitsa  
bayrami.*

Diniy urf-odat, an'ana va marosimlar vaqt o'tishi bilan milliy an'ana va marosimlarga aylanib borishi transformatsiyalashuv deb ataladi. Masalan, xristianlik dini Yevropa xalqlari hayotiga kirib kelganida ushbu dinning marosimlari mazkur xalqlarning milliy urf-odat va an'analariga aylandi. Xristianlarda Rojdestvo bayrami, hindlarda Xoli bayrami, koreyslarda shamanizm bilan bog'liq urf-odatlar mavjud.

O'zbekistonda esa barcha dinlarda muqaddas deb hisoblangan oila instituti milliy qadriyat sifatida Asosiy qonunga kiritilgan va an'anaga aylangan.

Diniy marosimlarni bajarishda kohinlar, keyinchalik ruhoniylar boshchilik qilgan. Ular o'z marosimlarini asta-sekin muayyan dinning talabi, xususiyati, aqidasi va ehtiyojiga moslagan.

Xristianlikda «Yetti sirli marosim»: cho'qintirish, non va sharob totish, miro moyi surtish, tavba-tazarru qilish, yeley (muqaddas zaytun yog'i) surtish marosimi, ruhoniy unvonini berish, nikoh marosimlari mavjud. Rojdestvo va Pasxa xristianlikda keng nishonlanadigan eng asosiy bayramlar hisoblanadi.

Islom dinida aqiba, amri ma'ruf, xatna, ro'za tutish va Ramazon hayiti, qurbanlik qilish va qurban hayiti, haj, janoza, nikoh, dafn va boshqa marosimlar bor.

Yahudiylikda ibodat, shanba kunini muqaddas deb bilish, tug'ilish, balog'atga yetish, nikoh va dafn marosimlari alohida o'rin tutadi.

## MILLIY QADRIYATLAR VA DINIY AN'ANALAR

O'zbekistonda diniy marosimlarning erkin o'tkazilishi ta'minlanadi, ammo bunda qonunlar, jamoat tartibi buzilmasligi va shaxsga hamda fuqarolarning huquqiga daxl qilinmasligi kerak. Diniy marosimlar masjid va ibodatxonalarda, diniy tashkilot muassasalarida, ziyoratgochlarda, qabristonlarda, fuqarolarning xonadonlari va uylarida o'tkaziladi. Belgilangan joydan tashqarida diniy marosimlar yoki ommaviy ibodatlar o'tkaziladigan holatlarda bu haqida mahalliy hokimiyat ogohlantirib qo'yilishi va bunday tadbirlar qat'iy tartibga rioxal qilingan holda tashkil etilishi lozim.

«Qadriyat» atamasi bizga arabcha «qadr» so'zidan kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda bu tushuncha borliq va jamiyatdagи biror-bir narsa va hodisaning kishilar o'rtasidagi, o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatini ifoda etishi uchun qo'llanilmoqda.

Bayram – turkiycha «katta yig'in», «to'y» ma'nolarni anglatadi. Istilohda esa keng nishonlanadigan tananali kundir. Avloddan-avlodga meros tariqasida o'tib



Navro'z xudo maxluqotni yaratgan olti kunning birinchisidir.

Quyosh va Oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, Navro'z va mehrjon zamonnинг ikki ko'zidir.

*Abu Rayhon  
Beruniy,  
«Qadimgi  
xalqlardan  
qolgan  
yodgorliklar»*



## IJODIY FAOLIYAT

Quyidagi matnni o'qing va undagi «ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari» iborasini mavzu bilan bog'lab tushuntiring.

*«Bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari bog'lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi».*

*Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 11-noyabrdan Samarqand shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyadagi «Markaziy Osiyoni tarix, din va umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi» mavzusidagi nutqidan.*



Inson vafot etganidan so‘ng uning uchta amalidan boshqa barcha amallari to‘xtaydi:

- uning haqiga duo qiladigan solih farzand;
- sadaqaiy joriya (qurdirgan yo‘llari, ekkan daraxtla-ri va boshqalar);
- odamlarga foydasi tegadi-gan ilm.

keladigan tadbir an’anaviy bayram deyiladi (masalan, Navro‘z bayrami). Bu turdag‘i bayramlar biror xalq yoki millatning ayni vaqt dagi ijtimoiy hayoti, turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmaydi.

Diniy bayramda esa har bir dinning arkonlarida belgilab qo‘yilgan marosimlar nishonlanadi. Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflarda diniy marosim va bayramlar (masalan, Ro‘za hayiti va Qurbon hayiti) to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar berilgan.

Barcha dinda inson vafoti bilan bog‘liq marosimlar mavjud. Bu marosimlarda ayrim dindagilar maxsus kiyim kiyadilar.

Islom dinida motam marosimida kiyiladigam maxsus liboslar mavjud emas. Lekin, musulmon bo‘lgan ayrim xalqlar o‘zlarining urf-odatlaridan kelib chiqib kiyinadilar. Islom dinida ko‘zga ko‘rinadigan yaxshi odatlar-dan biri, musibat yetgan xonadonning qo‘snilari is-rofgarchilikka yo‘l qo‘ymagan holda darhol ovqat qilib chiqarishadi. Bu milliy-diniy qadriyatga aylangan odat.



## MA‘LUMOT UCHUN

Islom dinida aza uchun uch kun belgilangan. Eri vafot etgan ayolning aza muddati Qur’oni karimda to‘rt oy-u o‘n kundan iborat. Bu vaqt ichida ayol yasanmaydi, xushbo‘y narsalardan foydalanmaydi, pardoz qilmaydi, «idda»si ichida boshqaga turmushga chiqmaydi va bunga harakat ham qilmaydi. Uning kiyimi rangining ahamiyati yo‘q, faqat oddiy, kamtarona bo‘lishi tavsiya etiladi. Yetti, yigirma, qirq, yil oshi, qora kiyim kiyish, ayniqsa, ayollarning ovoz chiqarib yig‘lashlari, bir yilgacha to‘y, xur-sandchilik qilmaslik kabi bid’at ishlarning islom shariatiga aloqasi yo‘q.



## IJODIY FAOLIYAT

1. Berilgan rasmlarda qanday qadriyatlar aks etgan?
2. Siz mazkur qadriyatlarning qaysi birida ishtirok etasiz?
3. Ushbu qadriyatlarni saqlash va avloddan-avlodga uzatish zarurmi? Zarur bo'lsa, bu borada qanday ishlarni amalga oshirish kerak?



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Inson hayotida marosimlarning qanday ahamiyati bor?
2. An'ana, odat va marosimlar o'zaro bog'liqmi? Fikringizni asoslang.
3. Nima uchun oila institutini milliy qadriyat sifatida e'tirof etamiz? Oila qadriyat hisoblanadimi?
4. «Oila – muqaddas dargoh» deganda nimani tusundingiz?
5. «Umuminsoniy qadriyatlar» deganda nimani tushunasiz?



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Din va kinematografiya. Din va badiiy adabiyot.
2. Virtual messenjerlar va ulardan turli ekstremistik oqimlarning foydalanishi.
3. O‘zbekistonda axborot xurujlarining oldini olish bo‘yicha harakatlar.



Axborot – inson o‘z sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha signallar majmuasi.



### DIN VA KINEMATOGRAFIYA. DIN VA BADIY ADABIYOT

Ertalab uyqudan uyg‘ongan vaqtimizdan to kech uyquga ketgan vaqtimizgacha atrofimizdagi barcha narsalar bizga o‘zi haqida ma’lumot berib turadi. Bugungi kunda ma’lumotlar shu qadar ko‘pligidan keraksiz axborotlar bilan xotiramiz tobora to‘lib bormoqda.

Radio, televiedeniye, telefon, internet kabi axborot tarmoqlari orqali uzatilayotgan ma’lumotlar turli ko‘rinishga ega. Ular orasida matn, surat, video, turli belgilar tizimi va boshqalar mavjud. Kinematografiya bugungi kunda ma’lumot uzatishning eng intensiv usuliga aylandi. Kino nafaqat ma’lumot uzatish, balki tarbiyalash, mafkura, dunyoqarash va e’tiqodni shakllantirish vazifasini bajarmoqda.

Yurtimizda mustaqillik yillarda yosh avlodni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan ko‘plab filmlar yaratildi. Ular, asosan, alloma ajodalrimiz hayoti, ilmiy faoliyati, fikriy-ma’rifiy merosini xalqimizga yetkazib berishga, zamondoshlarimizning o‘z Vatani, xalqi, insoniy qadriyatlarini himoya qilish-

dagi ko'rsatgan qahramonliklarini yoritib berishga bag'ishlangan. Mazkur kinofilmarni ko'rgan tomoshabinlar ulardan estetik zavq, ilm-ma'rifat bilan birga xayrli ishlarga shijoat va kuch-g'ayrat oladilar. Ammo guruch kurmaksiz bo'limganidek, barcha kinofilmlar har doim ham insonlarga ilm-ma'rifat tarqatish, yaxshi ishlarga undash, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilmayapti.

Aksincha, ayrim «ishbilarmonlar» pul ishlash maqsadida yoki muayyan niyatlarni amalga oshirishni ko'zda tutgan holda turli kinematografiya mahsulotlari



Yaxshi ishlarning yana bir afzalligi shundaki, u qalbni yuksaltiradi va uni yanada ezgu ishlarga moyil qiladi.

*Jan Jak Russo*



## IJODIY FAOLIYAT

**Quyidagi tasvirlarga diqqat bilan qarang va ularga munosabat bildiring.**

1. Fikringizni «mafkuraviy immunitet», «milliy va umuminsoniy qadriyat», «axloq-odob», «ommaviy madaniyat» kabi atamalar asosida sharhlang.
2. Ikkinci qatordagi tasvirlar insonning ruhiyatiga, ayniqsa, yosh bolalar ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi, deb o'ylaysiz?





## IJODIY FAOLIYAT

Quyidagi tasvirlarga diqqat bilan qarang va ularga munosabat bilsiring. Berilgan jadvalni to‘ldiring

Multfilmlar mavzusi:	
Ulardagi axloq-odobga zid tushuncha va g‘oyalar:	
Milliy va diniy qadriyatlarga zid bo‘lgan mafkuraviy tahdidlar:	
Qo‘rqinchli sahnalar:	
Ulardagi qo‘shiqlar:	
Siz yoqtirqan sahnalar:	
Ularning asosiy g‘oyasi:	
Ukalaringizga qaysi multfilmlarni ko‘rishni tavsiya etgan bo‘lardingiz?	
Qaysi qahramonlar ishtirokidagi multfilmlar yaratilishi kerak, deb o‘ylaysiz?	
Multfilmlardagi g‘oyalar nimaga xizmat qilishi kerak?	



orqali xalqimiz mentalitetiga xos bo‘limgan g‘oyalarni tarqatishga urinmoqdalar.

Bugungi kunda kino olami va ularning insonlar ongi-ga ta’siri ortib bormoqda. Kinoning odamlarga ijobiy ta’siri bisyor. Ammo «parda ortida» ular bilan bog‘liq bo‘lgan qator salbiy jihatlar ham mavjud. Chunki tomoshabin kinoni ko‘rib o‘tirar ekan, uning umumiy ma’nosini tushunishdan tashqari, botiniy ma’no ham kasb etishini, to‘g‘risi, ko‘philigimiz tasavvur qilmaymiz.

Eng qizig‘i, voqeja va hodisalar tomoshabinning ongi-ga xuddi real voqelikda bo‘layotgan hodisalardek kirib keladi. Asta-sekin, ya’ni kino voqealarining davomida tomoshabin xayoliga ham kelmaydigan holatlarni shunaqa ideallikda gavdalantiradiki, natijada u kinodagi voqelikka ishonib ketadi. Agar 3D formatidagi filmlar bo‘lsa, filmning ishtirokchisiga aylanadi. Texnika taraqqiyotidan salbiy maqsadlarda foydalanadigan kimsalar ham bor. Ular hali dunyoqarashi to‘liq shakllanmagan bolalarning ongini zaharlashga urinishadi. Masalan, ayrim multfilmlarning asosiy mazmuni yovuz hislatga ega pastkash, xudbin odamning to‘g‘ri yo‘lga qaytishi, mehribon odamga aylanishi haqida bo‘lsa-da, lekin tub ma’nosida bolada buzg‘unchilik, hayosizlik, yovuzlik qilishga osongina kirishib ketishga moyil bir qancha jihatlar



Odamlar orasida shunday kimsa ham borki, uning dunyo hayoti to‘g‘risidagi gapi Sizga qiziqarli bo‘ladi. Dilidagi «imoni»ga Allohnı guvoh qiladi, vaholanki o‘zi (Islomga nisbatan) dushmanlarning ashaddiysidir. (Oldingizdan) ketganida yerda fitna-fasod, ekin va naslni halok qilish ishlari bilan yuradi. Allah esa fasodni (buzg‘unchilikni) yoqtirmaydi.

Har qanday narsaga har tomonlama nazar sol – foydasini ham, zararini ham ko‘r.

Boshqalarning fikrini o‘ylab o‘tirgandan ko‘ra o‘zungda ko‘proq ishla.

*Lev Tolstoy*



*Qur’oni karim,  
Baqara surasi,  
204-205-oyat*



(Ey inson!)  
O‘zing (aniq)  
bilmagan nar-  
saga ergashma!  
Chunki qulqoq,  
ko‘z, dilning har  
biri to‘g‘risida  
(har bir inson)  
mas‘ul bo‘lur  
(javob berur).

*Qur’oni karim,  
Isro surasi,  
36-oyat*

bo‘lishi ko‘zga tashlanadi. Yana shunaqangi filmlar bor-ki, ularni ko‘rgan bolalarda suitsidga moyillik kuchayadi, ular xayolparast bo‘lib qoladilar.

O‘tgan asrning oxirida yoshlar o‘rtasida karate, kung-fu kabi qo‘l jangi san’atini targ‘ib qiluvchi filmlarni qiziqib tamosha qilish urf bo‘ldi. Bunday filmlar jang san’atini chiroyli qilib ko‘rsatish sahnalari bo‘lishi bilan birga, shafqatsizlik, hayosizlik, diniy va milliy urf-odatlarga zid bo‘lgan sahna ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga olgan edi. Bu esa, 1980–90-yillardagi jinoyatchilik bilan bog‘liq voqealarda o‘zining aksini namoyon qildi.

Turli missioner tashkilotlar kinematografiya orqali har xil ko‘rinishda o‘z g‘oyalarini ilgari surishlari – ochiq-oydin ishora qilish, yashirin, psixologik ta’sir o‘tkazish va boshqa yo‘llar bilan amalga oshirishlari mumkin.

Har bir oilada sevib tomosha qilinadigan turli g‘arb va boshqa davlatlarning seriallarida oilaning do‘sti ruhoni barcha muammolarni hal etadigan, oila a’zolaring sir-asrorlaridan xabardor shaxs sifatida targ‘ib etiladi. Yoki hind kinolarida biror-bir dinga sig‘inish marosimi (fil, maymun, sigir yoki boshqa) ko‘rsatiladi va ular xaloskor sifatida talqin etiladi.


Buning natijasida nafaqat bolalar, balki kattalar ham aynan ana shu filmlardagi ibodat sahnalariga ba’zan bilib-bilmay taqlid qiladilar. Masalan, «Faryod-1» o‘zbek filmida ota qizini qaytarib olib ketishlari uchun quda to-monga ikki kaftini bir-biriga tirab (hind filmlaridagidek) iltimos qiladi.

Bu kabi odatlar asosan, kinofilmlar orqali kirib keladi. O‘tgan mustabid tuzim davrida suratga olingan ayrim o‘zbek filmlarida ham milliy qadriyatlarimizni buzish kabi sahnalashtirilgan voqealar («Yor-yor» filmi-

dagi to‘y sahnasida «горько» deb qichqirish kabi holatlar) zo‘rma-zo‘raki kiritilgan.

Bu esa sovetlar tomonidan «millatni yo‘q qilish uchun, uning tilini, urf-odatini yo‘q qilishning o‘zi kifoya» g‘oyasining singdirilishi deb tushunish kerak.

Bunday mafkuraviy tahdidlar bugungi kunda tashqa-ridan badiiy filmlar orqali kirib kelayotganligini ko‘ri-shimiz mumkin. Bu filmlar uchun mablag‘ tikkан homiylar shu filmlar orqali o‘zlarining g‘arazli maq-sadlarini amalga oshirishni ko‘zlaydilar.



Parchala,  
hukm sur! Qan-  
day beorlik!

Birlashtir, ye-  
takla! Eng go‘zal  
boylik!

*Gyote*



## IJODIY FAOLIYAT

1. Quyidagi hikoyani o‘qing. Aziz ukalarini qanday chalg‘itishi mumkin?
2. Azizning faoliyatiga baho bering.
3. Siz nima qilgan bo‘lardingiz?

*Azizning ota-onasi kechki tadbirga taklif etilganliklari uchun unga ukasi va singlisiga qarab turishni, o‘z vaqtida ovqatlanishni, kompyuter bilan band bo‘lib, ukalariga e’tiborsiz bo‘lmaslikni qattiq tayinlab ketishdi. Azizning singlisi hali 4 yoshga ham kirmagan. Ukasi esa 6 yosh. Bola-lar televizorda berilayotgan multifilmarni tomosha qilib, «ertak-ertak» o‘ynashmoqchi bo‘lishdi. Azizning singlisi, akasiga «men Oppog‘oyim bo‘laman, ko‘zimni yumib turaman, siz meni labimdan o‘pib tiriltirasiz», desa, akasi «yo‘q men maxluqman, sen Sohibjamol bo‘lasan, meni labimdan o‘pib tiriltirasan», deb bir-biri bilan janjallahшиб qoldilar... Ularning bu janjalini kuzatib turgan Aziz, tezda borib televizorni o‘chirdi. Ularga «hech qanaqa multfilm yo‘q», deb jahl qildi-yu, ammo ukalarini nima bilan band qilishni bilmay qoldi...*

## **VIRTUAL MESSENERLAR VA ULARDAN TURLI EKSTREMISTIK OQIMLARNING FOYDALANISHI**

Hozir g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlardan kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir.

Yuzdan ortiq xalqaro kanallar oynayi jahon hamda global tarmoq orqali mafkuraviy xurujlar bilan tahdid solib turgan davrda yashamoqdamiz. Internet virtual, ammo obyektiv hodisadir. Uning hayotimizga kirib kelishiga to‘sinq qo‘yib bo‘lmaydi. Shuningdek, virtual messenjerlar orqali tarqatiladigan mafkuraviy tahidilarga hech qanday chegara to‘sinqlik qila olmaydi. Internet orqali ijobjiy ma’lumotlar bilan birga inson xulq-odobiga salbiy ta’sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani aniq.

Axborot vositalaridan g‘arazli maqsadda foydalanish, aholi ongiga salbiy ta’sir o‘tkazish orqali siyosiy va iqtisodiy hukmronlikka erishishga urinish axborotlar urushi deyiladi.

Axborotlar urushi shaxs yoki mamlakatning tinchligiga tahdid solgan holda, unga bosim o‘tkazishda namoyon bo‘ladi. Axborotlar urushi ijtimoiy, siyosiy, etnik va boshqa tizimlarning o‘z manfaatlari yo‘lida bir-birlariga ochiq va yashirin maqsadli ta’sirlarini ham qamrab oladi.

Masalan, jangarilar o‘zlarining qabih maqsadi yo‘lda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. Buzg‘unchi guruuhlar tomonidan amalga oshirilayotgan insoniyatga qarshi jinoyatlar ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet orqali ko‘p namoyish etilmoqda.

Terroristlar o‘z faoliyatlarini yuqori sifat va profesional mahorat bilan ishlangan videofilmlar orqali namoyish qiladilar. Ular bu ishga yuqori malaka, tajriba-

Ko‘z haromga qaragani-da vijdanni, qalbni g‘amalamalar, buzuq zaharli fikrlar, xaroblik va razolat qoplaydi. Shahvoni kuchlar harakatga kelgudek bo‘lsa, odam o‘zi bilmagan va sezmagan holda halokatga, razolatga va buzuq o‘y-fikrlar girdobiga tushib qoladi.

*Muhammad  
Nurulloh Saydo  
Jazariy*



ga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb etadilar. Har safar jangarilar tomonidan chiqarilgan videolavha avvalgisi dan farq qiladi. Bunday lavhalar xalqaro jamoatchilikka qanday ta’sir etishini ko‘rib, kuzatib, shunga yarasha ish tutadilar.

Shuning uchun global tarmoqdan oqilona foydalanishni o‘rganish lozim. Buning uchun axborot olish va uzatish, internetdan foydalanish madaniyatiga rioya qilish zarur. Faqat shundagina global tarmoqqa qo‘yilgan «o‘rgimchak to‘riga» tushib qolmaysiz.



## QO‘SHIMCHA O‘QISH UCHUN

Quyidagi hayotiy voqeani o‘qing. Internetga mukkasidan ketish va undan oqilona foydalanmaslik qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini muhokama qiling.

*«Men Moskva shahriga ishlash maqsadida borgan edim. Bo‘sh vaqtlarimda internet saytlarga kirishni odat qildim... Asta-sekin ijtimoiy tarmoqda tashkil etilgan turli guruhlarga a’zo bo‘la boshladim. Bu guruhlar orqali bir qancha yangi do‘srlar orttirdim. Bu «do‘srlarim» meni o‘zlaricha dinning turli ahkomlari bilan tanishtira boshladilar.*

*Keyinchalik esa Moskva shahrida bir necha yangi «birodarlar» bilan tanishdim... Internet imkoniyatlarini ishga solib, Pokiston, Afg'oniston-dagi jangarilar lagerlarida bo‘ladigan suhbatlarni va Suriyadagi mojarolar tushirilgan videolavhalarni ko‘rdim. Men negadir ularning ishlari ga o‘ta qiziqish bilan qarardim.*

*Moskvadan uyga qaytayotganimda oila a‘zolarim va do‘srlarimga ham tanishtirish, o‘rgatish maqsadida o‘zim bilan birga fleshkaga yo-zilgan ma‘ruzalar, internetdan olingan videolavhalarni ham olib keldim. Ming afsuski, men xorijda yurib, internetda topganlarim quruq sarob, buzg‘unchi ma‘humotlar ekanini, «birodarlar» menga tushuntirgan narsalar haqiqiy islom dinidan butkul uzoq, tagi puch gaplar ekanini kech anglab yetdim».*

**«Internetdagi tahdidlardan himoya» kitobidan olindi.**



## MA‘LUMOT UCHUN

«Axborotlar urushi» iborasi ni ilk qo‘llagan fizik olim Tomas Ron hisoblanadi. U 1976-yilda ushbu masalaga barcha mas‘ul kishilar e’tibori ni qaratdi.

## O'ZBEKISTONDA AXBOROT XURUJLARINING OLDINI OLİSH BO'YICHA HARAKATLAR

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi «Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillash-tirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 10-sonli qarori bilan «O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi hamda «Diniy mazmundagi materiallarni davlat dinshunoslik ekspertizasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizomlar tasi-diqlandi.

Ushbu nizomlar O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish tartibini, diniy mazmundagi materiallarni davlat dinshunoslik ekspertizasidan o‘tkazish tartibi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish va tarqatishga mo‘ljallangan diniy mazmundagi materiallarning davlat dinshunoslik ekspertizasini amalga oshirishda ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish bo‘yicha faoliyat hamda bunday materiallarning davlat dinshunoslik ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, Prezidentning qonun hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda ushbu nizomlarga muvofiq amalga oshiriladi.



Vaqtingizni  
behuda sarfla-  
mang, zero, har  
bir uvol bo‘lgan  
narsaning javobi  
bo‘ladi.

*Xalq hikmati*



## IJODIY FAOLIYAT

1. Zamonaviy jangari filmlarning o‘tgan yillarda kollej o‘quvchilari o‘rtasida sodir bo‘lgan tartibsizliklar va jinoyatchilik bilan qanday aloqasi bo‘lishi mumkin?
2. Bunday film syujetlari o‘quvchi yoshlar tarbiyasiga qanday ta’sir etishi mumkin?
3. O‘zbek film sahnalaridan birida bir-biri bilan urishish maqsadida to‘plangan yoshlar: «Mard bo‘l, erkak bo‘l, do‘shta do‘sht bo‘l...» degan qo‘shiq kuylashadi. Mazkur jumladagi do‘sht bo‘lish, erkak bo‘lish tushunchalarini «Oralaringizda eng kuchlilaringiz kimligini aytaymi? U g‘azabi kelganida o‘zini tutib tura oladiganingizdir», degan hadis va Qur’oni karimning «Ezgulik va taqvo (yo‘li)da hamkorlik qilingiz, gunoh va adovat yo‘lida hamkorlik qilmangiz!» (Moida surasi, 2-oyati) degan ko‘rsatmasi bilan bog‘lang.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Axborot deganda nimani tuhundingiz? Axborotning qanday salbiy va ijobiy tomonlari mavjud?
2. Inson ongi uchun kurashda axborotlarning o‘rni nimada?
3. Nima deb o‘ylaysiz, inson axborot iste’moli madaniyatiga ega bo‘lishi shartmi?
4. Kinofilmlarning inson hayotiga ta’siri qanday?
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi «Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 10-sonli qarori bilan «O‘zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi hamda «Diniy mazmundagi materiallarni davlat dinshunoslik ekspertizasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizomlar qanday harakatlarni tartibga solar ekan? Mazkur nizomlarning matnlarini olib o‘qing va mazmunini tushuntirib bering.



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Konfessiya tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Dunyodagi konfessional o‘zgarishlarning sabablari.
3. Dunyoning bugungi kundagi konfessional manzarasi.
4. O‘zbekiston Respublikasidagi konfessiyalararo munosabatlar.
5. O‘zbekiston musulmonlari idorasi.



### MA’LUMOT UCHUN

«Konfessiya» so‘zining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda, mutaxassislardan hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydilar.

### KONFESSİYA TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI

Diniy konfessiya – muayyan diniy ta’limot doirasi-da shakllangan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega e’tiqod va ushbu e’tiqodga ergashuvchilar jamoasi. Konfessiya umumiy atama bo‘lib, xristianlik, buddaviylik kabi katta dinlar ham, ularning zamirida paydo bo‘lgan pravoslavlik, katoliklik, lamaizm, dzen-buddizm kabi yo‘nalishlar ham shunday nom bilan atalaveradi.

Islom dinida bunday holat kuzatilmaydi. Chunki hech qaysi mamlakatda hanafiy mazhabi alohida, boshqa mazhablar alohida konfessiya sifatida ro‘yxatdan o’tmaydi. Masalan, O‘zbekistonda ham bir necha shia jamoalari bo‘lishiga qaramay, ular o‘zlarini alohida diniy konfessiya hisoblamaydilar.

Globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan birga, uning natijasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda.

Bu jarayonlar o‘z navbatida inson ma’naviyatining uzviy qismi bo‘lgan dinning mohiyatini tushunish, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini anglashga bo‘lgan e’tiborning kuchayishini keltirib chiqarmoqda.

## DUNYODAGI KONFESSİONAL O‘ZGARİSHLARNING SABABLARI

Dunyoning diniy manzarasi qotib qolgan, o‘zgarmas bir hodisa emas. Xususan, mazkur manzara yildan-yilga o‘zgarib borayotgani, mavjud dinlar o‘zlarining an’anaviy ko‘rinishlari doirasidan chiqib borayotganligini ham alohida ta’kidlash lozim.

Bugungi kunda mavjud dinlar doirasida yangi yo‘nalish va sektalar paydo bo‘lishda davom etmoqda. Massalan, mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo‘lgan. Bu esa kelajakda ham bunday jarayonlar davom etishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy voqelik ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo‘lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko‘rsatmoqda.



*Londonda ibodat  
marosimi*

U shoir emas, payg‘ambar. Undagi Qur’on – inson tomonidan ermak uchun yoki barchaga umumiy ma’lumot berish uchun yozilgan kitob emas, balki u ilohiy qonundir.

*Johann Wolfgang von Goethe. G‘arb muallifining Sharq haqidagi devoni.*



*Angliyadagi jome masjidi*



*Germaniyadagi jome masjidi*



## **MA'LUMOT UCHUN**

Qozog'istonda musulmon (2517 ta diniy tashkilot) va pravoslav (323) diniy jamoalari yetakchi o'rnlarda boryapti. Ular mamlakatdagi e'tiqod qiluvchi aholi qatlamining 95% ni tashkil qiladi.

Turkmanistonda 99 ta diniy tashkilot islom dinining sunniylik yo'naliishi, 5 tasi shia oqimi, 13 tasi rus pravoslav cherkoviga (3 tasi Ashxabod shahrida joylashgan) va 11 tasi boshqa din vakillariga (Katolik cherkovi – 1 ta, Krishnani anglash jamoasi – 1 ta, Bahoiylar – 1, Baptistlar – 1, Pyatidesyatniklar – 1, Velikaya blagodat – 1, Yettinchi kun adventistlari – 1 ta va Yangi apostol jamoasi – 1 ta) tegishli. Tojikistonda taxminan 3000 dan ziyod masjid mavjud. Shuningdek, Rus pravoslav, Yevangel xristian-baptistlar, Rim-katolik, Yettinchi kun adventistlari, Yevangel lyuteran, Iegovo shohidlari cherkovlari, bahoiy, zardushtiylik, yahudiy diniy jamoalari kabi diniy tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan.

Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqtish hamda, asosan, yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdarlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan «avliyo»lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar.

Yashirin faoliyat olib borishi, sekte ichida bo'layotgan voqealarning ko'pchilikka ma'lum bo'lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi oqibatida ular faoliyatidan ja-moatchilik bexabar qolmoqda.

Ugandadagi «Oxirat kuni» sektasi boshliqlarining faoliyati bunga misol bo'ladi. Oxiratni 1999-yil 31-dekabrga belgilagan ushbu sekte rahbarlari o'z tarafdarlarining mol-mulklarini sotish, tushgan mablag'ni ularga berishga va shu yo'l bilan gunohlardan forig' bo'lishga

chaqirgan. Qiyomatning 2001-yil 1-yanvarga «ko‘chirilishi» sekta rahbarlariga nisbatan shubha uyg‘onishiga olib kelgan. Shundan so‘ng rahbarlar Kanungu qishlog‘ida 500 dan ortiq o‘z tarafdarlarini aldab binoga qamab, us-tilaridan o‘t qo‘yib yuborganlar. Ma’lumotlarga ko‘ra, yana to‘rt joyda ommaviy qabrular topil-gan. Bu sektaning qurbanlari 1000 dan ortiq bo‘lgani qayd qilingan.

Bunday sektalar ayrim insonlarning jismoniy va ruhiy ojizligi, tushkunlik holatidan chiqishga bo‘lgan intilishlaridan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanadilar. Natijada adeptlar – sektalarga a‘zo bo‘lganlarni o‘zlarining manfaatlari uchun xizmat qildiradilar.

Hozir diniy ta’limotlar, ulardagi muayyan qoidalarni davr talabiga moslashtirish, modernizatsiya qilish jarayonini kuzatish mumkin. Masalan, Rim Papasi O‘rta asrlarda cherkov tomonidan amalga oshirilgan inkvizitsiya va salb yurishlari xato bo‘lganini tan olib, rasman kechirim ham so‘radi. 1992-yilda Papa Ioann Pavel II o‘z paytida Galileo Galileyning haq bo‘lganini tan olib, barchadan uzr so‘ragani ham bunga misol bo‘la oladi.



## MA’LUMOT UCHUN

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, islomning yil-lik o‘sish sur’ati 6,4 foizni tashkil etib, 1989-yildan 2011-yilga qa-dar musulmon aholisi soni Shimoliy Amerikada – 25, Afrikada – 2,15, Osiyoda – 12,57, Yevropada – 142,35, Avstraliya va Okeaniyada – 257,01 foizga ko‘paygan. Faqat Lotin Amerikasida islomga e’tiqod qi-luvchilar ulushi 4,73 foizga kamaygan.



*Quddusdagi Qubbatus saxra masjidi, xristian cherkovi va yahudiy sinagogasi*



*Fransiyadagi jome masjidi*



*Rossiyadagi jome masjidi*

Shuningdek, mavjud dinlarning tarqalish hududida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganini ta’kidlash zarur. O‘tgan asrda, asosan, xristianlar yashab kelgan Yevropada bugungi kunda 20-25 million atrofida musulmon istiqomat qilmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyada – 3 million, Germaniyada – 5 million, Fransiyada – 6-7 million islomga e’tiqod qiluvchi fuqaro yashamoqda.

Aholisi an'anaviy ravishda buddaviylik va islomga e’tiqod qilib kelgan o‘lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra xristianlikning o‘sish ko‘rsatkichi yiliga 1,46 foizni tashkil qiladi.

Diniy konfessiyalar manzarasi rang-barangligini O‘zbekistonda rasman ro‘yxatdan o‘tib, faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko‘rish mumkin. Xristianlikka mansub bo‘lsa-da, yurtimizdagi 11 ta yo‘nalishning har biri o‘zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblashi fikrimizning isboti bo‘la oladi.



## MA’LUMOT UCHUN

<b>№</b>	<b>Konfessiya</b>	<b>Izdoshlari soni</b>	<b>Yer yuzi umumiyligiga nisbatan foiz ko‘rsatkichi</b>
1	Xristianlik	2 292 454 000	33,2 %
	Katoliklar	1,214 000 000	
	Protestantlar	800,640,000	
	Pravoslavlар	260,380,000	
	Anglikanlar	85 000 000	
	Boshqa yo‘nalishlar	28,430,000	
2	Islom	1 549 444 000	22,4 %
3	Hinduiylik	948 507 000	13,7 %
4	An'anaviy Xitoy dinlari	458 316 000	6,6 %
5	Buddaviylik	468 736 000	6,8 %
6	Sikxiylik	24 591 000	0,4 %
7	Yahudiylar	14 641 000	0,2 %
8	Bahoiylik	7 447 000	0,1 %

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KONFESSIYALARARO MUNOSABATLAR

O'zbekiston Respublikasida 2017-yil dekabr holatiga ko'ra 16 konfessiya faoliyat ko'rsatmoqda.

Ular quyidagilardir:

- Islom (O'zbekiston musulmonlari idorasi);
- Pravoslavlik (Toshkent va Markaziy Osiyo yeparxiyasi);
- Katoliklik (Rim-katolik cherkovi);
- Lyuteranlik (Nemis-lyuteran cherkovi);
- Arman-apostol cherkovi;
- Pyatidesyatniklar (To'liq injil xristianlari);
- Baptistlar (Yevangel-xristian baptistlar cherkovi);
- Novoapostol cherkovi;
- Yettinchi kun adventistlari;
- «Golos bojiy»; Iegovo shohidlari;
- Koreys protestant cherkovlari;
- Yahudiylik;
- Bahoiylik;
- Krishnani anglash jamiyati;
- Buddaviylik.

«O'zbekiston bibliya kitob jamiyati» esa diniy tashkilot hisoblanib, boshqa konfessiyalardan alohida faoliyat olib borsa-da, diniy konfessiya maqomiga ega emas.



*Moskva va Butun Rus Patriarxi  
Kirill bilan davra suhbatি*



*Maqsadimiz – tinchlik, ham-  
korlik va taraqqiyot.*

Mustaqillik yillarda yuzlab cherkov, sinagoga va ibodat uylari, xususan, Toshkent, Samarqand, Navoiydagagi pravoslav ibodatxonalari, Toshkent shahridagi katolik kostyoli, Samarqanddagi Arman-apostol cherkovi, Toshkentdagi Budda ibodatxonasi qayta barpo etildi.

Hazrati Imom, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Hakim Termiziy, Imom Moturidiy, Shohi Zinda, Qosim Shayx, Zangi ota kabi qadimiy yodgorlik majmualari obod qilindi va yangilari qurildi.

Qur'oni karim, hadislar to'plamlari, Bibliya tarkibidagi Yangi Ahd va Qadimgi Ahdning ba'zi qismlari, masalan, «Sulaymon hikmatlari», «Rut, Ester va Yunus payg'ambarlar tarixi» o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

O'zbekiston ko'zi ojizlar uchun maxsus Brayl yozuvida Qur'oni karimni nashr qilgan uchinchi mamlakat hisoblanadi.

## O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI

O'zbekiston musulmonlari idorasasi (O'MI) 1995-yil dekabr oyida tashkil etilgan. Bugungi kunda O'MI tarkibiga respublikada rasmiy ro'yxatdan o'tgan holda faoliyat ko'rsatayotgan ikki mingdan ortiq masjid, to'qqizta madrasa – o'rta maxsus islom bilim yurti, Toshkent islom instituti, Mir Arab oliv madrasasi, Ha-



### TARIXGA NAZAR

1920-yillar oxirida sho'rolar tuzumining ateizmga asoslangan diniy siyosati keskin tus oldi. 1929-yil aprel oyida RSFSR Xalq Komissarlari kengashining «Diniy uyushmalar haqida»gi qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, diniy uyushmalarga yig'in o'tkazish, muqaddas ziyyoratlar uyuşhtirish, xayriya bilan shug'ullanish, kutubxonalar ochish kabi faoliyatlar man etilgan. Kommunistik (b) partiya Markaziy Kengashining 1929-yil 29-iyunda o'tkazilgan XI plenumida qabul qilingan «Musulmon ruhoniylari va maktabi to'g'risida»gi qarorida «Islom boshqa dinlar kabi sotsialistik madaniyat va proletariat g'oyalari rivojlanishi hamda mustahkamlanishi, umuman, sotsializm qurilishi yo'lidagi katta g'ovdir», deb ta'kidlangan.

dis ilmi oliy maktabi, Aqoid, Kalom, Hadis, Fiqh, Tasavvuf ilmi maktablari, «Vaqf» hayriya fondi va «Movarounnahr» nashriyoti kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi «Diniy-marifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga ko‘ra O‘MI O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining muassisalaridan biri sifatida belgilandi.

O‘MI raisi – muftiy Ulamolar kengashi yig‘ilishida ochiq ovoz berish yo‘li bilan besh yil muddatga saylanadi.

O‘MI tarkibida xalqaro aloqalar, masjidlar, fatvo, ta’lim va kadrlar tayyorlash, xotin-qizlar masalalari, huquqshunoslik, kutubxona, shuningdek, diniy mahsulotlarni ekspertiza qilish hamda taftish hay’atlari va boshqalar mavjud.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi (O‘MI) bugungi kunda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. Mamlakatimizning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, turizm infratuzilmasini kengaytirish, iqtisodiyotda uning ulushini oshirish kabi masalalar alohida qayd etilgan. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. O‘MI Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlari-



*O‘zbekiston musulmonlari  
idorasi*



## TARIXGA NAZAR

1943-yil 20-oktabrda Toshkent shahrida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston ulamolaring 1-Qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlarining Diniy boshqarmasini tuzish haqida qaror qabul qilindi. Diniy boshqarmaga rahbar va muftiy etib Eshon Boboxon saylangan. Diniy boshqarma tarkibiga min-taqadagi beshta respublika — O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qиргизистон va Qozog‘istonda qozilar rahbarlik qiladigan Diniy boshqarmaning vakilliklari kiritilgan.



Bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari bog'lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi.

*Shavkat  
Mirziyoyev*



*Eshon Boboxon  
ibn Abdulmajidxon  
(1856-1957)*

dagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyyarat qilishdan iborat bo'lgan dasturlarni ishlab chiqdi. Bunda tashqari mamlakatimizda ta'mirga muhtoj bo'lgan Toshkent shahridagi Suzuk ota, Xorazmdagi Doshqin-jon bobo, Qashqadaryodagi Abulmuin Nasafiy, Surxondaryodagi Abu Iso Termizi, Buxorodagi yetti pir va boshqa ziyyaratgohlar ta'mirlanib, aholining ma'naviy-ruhiy ozuqa oladigan markazlariga aylanmoqda. Shuningdek, O'MI nomlari mazkur ziyyaratgohlar bilan bog'liq bo'lgan buyuk ajdodlarimizning qoldirgan ilmiy-ma'naviy meroslari, ibratli hayotlari bo'yicha nashrlarni ham faol chop etib kelmoqda.

### **ESHON BOBOXON IBN ABDULMAJIDXON**

Eshon Boboxon dastlab uyda otasidan, so'ngra Buxorodagi Mir Arab madrasasida mashhur ustozlardan tahsil oldi. Tirishqoqligi, aql-zakovati bois tafsir, hadis, aqoid, fiqh bilimdoni bo'lib yetishdi. Bir necha yillar Mo'yi Muborak jomeyida imom-xatiblik va madrasada mudarislik qildi.

1943-yilda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlarining diniy nazorati raisi, muftiy etib saylandi. O'sha yillari musulmonlar vakillarining haj safariga borishlari yo'lga qo'yildi. Mir Arab madrasasi qaytadan faoliyat boshladi. Masjidlar haqida Nizom ishlab chiqildi, diniy boshqarma kutubxonasi asos solindi, xalqaro aloqalar kengaydi. Eshon Boboxon 1957-yilda vafot etdi va Ismoil Qaffol Shoshiy qabri yoniga dafn etildi.

### **ZIYOVUDDINXON IBN ESHON BOBOXON**

Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon 1908-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. O'z davrining yetuk ulamolaridan saboq oldi. O'n ikki yoshida Qur'oni ka-

rimni to‘la xatm qilib, hofizul Qur’on bo‘ldi. Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasida, Qohiradagi Azhar universitetida, so‘ngra Makka, Madina shaharlarida tahsil oldi. 1957-yili O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari boshqarmasi raisi etib saylandi va umrining oxiriga (1982-yil) qadar ana shu vazifada samarali ishladi.

## SHAMSUDDINXON BOBOXONOV

Toshkent chet tillar institutining ingliz tili fakultetini bitirgan. Qohiradagi Azhar universitetida tahsil oldi. 1982–1989-yillari O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining raisi, muftiy bo‘lib ishladi. O‘rdun Qirollik akademiyasining haqiqiy a’zosi, Xalqaro Ibn Sino mukofoti sohibi. 2003-yilda vafot etgan.

## SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1989–1992 yillar davomida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasiga rahbarlik qilgan. Butun umrini jamiyatning diniy-ma’rifiy yuksalishi yo‘lida xizmat qilishga bag‘ishlagan. Uning bu xizmatlari xalqaro islom olamida e’tirof etilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf qator xalqaro islom tashkilotlari, jumladan:

- Makka shahridagi Islom olami uyushmasining ta’sis majlisи;
- Dunyo tasavvuf uyushmasи;
- Dunyo musulmonlar ulamolari kengashi;
- Islomobod shahridagi Butun dunyo islom uyushmasи;
- Dunyo masjidlari uyushmasи;



Ziyoruddinxon ibn  
Eshon Boboxon  
(1908-1982)



Shamsuddinxon  
Boboxonov  
(1937-2003)



Shayx Muhammad  
Sodiq Muhammad  
Yusuf  
(1952-2015)

— Iordaniyadagi Oli Bayt tashkilotiga qarashli Islomiy fikrlar akademiyasi a’zosi hisoblangan.

Olim hayoti davomida xalqning ma’naviyati va ma’rifatini boyitadigan va diniy savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan yuzdan ziyod kitoblar yozdi.

Uning «Hadis va hayot» to‘plami, Qur’oni karim ma’nolarining sharhi hisoblangan «Tafsiri hilol», «Oltin silsila», «Baxtiyor oila», «Ruhiy tarbiya», «Odoblar xazinasи», «Kifoya» va boshqa kitoblari xalqimizning ma’naviy xazinasidir.



*Muxtorjon  
Abdulloh Buxoriy  
(1928-2002)*

### **MUXTORJON ABDULLOH BUXORIY**

Muxtorjon Abdulloh Buxoriy 1928-yili Qo‘qon shahrida tavallud topgan. Buxorodagi Mir Arab, Toshkentdagи Baroqxon madrasalarida, Suriyadagi Damashq jomesining shariat kulliyasida tahsil olgan. 1993–1997-yillari Movarounnahr muslimmonlari idorasи raisi, muftiy bo‘ldi. 2002-yili vafot etgan.

### **ABDURASHID QORI ABDUMO’MIN QORI O’G’LI BAHROMOV**



*Abdurashid qori  
(1953 -2011)*

Abdurashid qori 1953-yili Andijon shahrida tavallud topdi. Dastlabki Qur’on ilmlarini otasi Abdumo’mindan qoridan o’rganib, 16 yoshida Qur’oni karimni to‘liq yod oldi. U Buxorodagi Mir Arab madrasasi va Toshkent Islom institutida tahsil oldi. 1997–2006-yillarda O‘zbekiston muslimmonlari idorasи raisi, muftiy lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. 1997–2006-yillarda O‘MI din niqobidagi ekstremizmga qarshi faol ish olib bordi.

Aholi o‘rtasida diniy-ma’rifiy sohada tushuntirish va targ‘ibot ishlari amalga oshirildi. Respublika masjidlarida olib boriladigan juma ma’ruzalari tartibga solin-

di. Juma tezislari O‘MIning fatvo bo‘limi tomonidan tayyorlanib masjidlarga tarqatiladigan bo‘ldi.


## USMONXON TEMURXON O‘G‘LI ALIMOV

Usmonxon Alimov 1950-yil 1-yanvarda Samarqand viloyatida tug‘ilgan. U Buxorodagi Mir Arab madrasasida, Toshkent Islom institutida, Marokashdagi Qaroviyyin universitetida tahsil olgan. 2006-yil 8-avgust kuni O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy lavozi-miga saylangan.

Usmonxon Alimov davrida islam dini sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Hastimom majmuasi va boshqa ziyoratgohlar ta’mirlandi. O‘zbekiston islam sivilizatsiya markazi, O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi Mir Arab olyi madrasasi, Samarqandda Hadis ilmi olyi maktabi, Aqoid, Kalom, Hadis, Fiqh, Tasavvuf ilmi maktablari tashkil etildi. Usmonxon Alimov «Tafsiri Irfon», «So‘ragan edingiz», «Sunnat va Hadis» hamda boshqa o‘nlab asarlar muallifi hisoblanadi.



Usmonxon Alimov



Zakovat bilan odam yuksaklik oladi, bilim bilan ulug‘likka erishadi.

*Yusuf Xos  
Hojib*



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sektalar o‘z maqsadlarini amalga oshirishda qanday yo‘l tutadilar?
2. Sektalarning faoliyati jamiyat rivoji va tinchlikka qanday ta’sir o‘tkazishi mumkin?
3. Hozirgi zamonda dunyo diniy manzarasi o‘zgarishida asosan qanday omillar rol o‘ynamoqda?
4. O‘zbekistonda qanday konfessiyalar faoliyat yuritadi?
5. O‘zbekiston musulmonlar idorasi faoliyati haqida ma’lumot to‘plang.

# 24-8

## XX-XXI ASRLARDA MISSIONERLIK VA PROZELITIZM



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. XX-XXI asrlarda yuzaga kelgan xalqaro missionerlik uyushmalari.
2. Missionerlik geosiyosi o'yinlar quroli sifatida.
3. Missionerlik va prozelitizmning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka salbiy ta'siri.



### TARIXGA NAZAR

1910-yili  
Shotlandiyada  
Edinburg  
missionerlik  
konferensiyasi  
o'tkazilgan.

### XX-XXI ASRLARDA YUZAGA KELGAN XALQARO MISSIONERLIK UYUSHMALARI

XX asrga kelib missionerlik faoliyatidan siyosiy maqsadlarda foydalanish uchun xalqaro tashkilotlar tuzila boshlandi.

Shotlandiyada bo'lib o'tgan Edinburg missionerlik konferensiyasida jahon xalqlarini xristianlashtirish strategiyasi muhokama qilinib, missionerlar tayyorlash,



### MA'LUMOT UCHUN

1970-yilda 2200 ta xorijiy missiyada 240 000 professional missioner faoliyat yuritgan bo'lsa, 2000-yilda 4800 ta xorijiy missiyada 420 000 missioner targ'ibot o'tkazib kelgan. 1970-yilda xorijiy missiyalarning faoliyatiga 3 milliard AQSh dollari sarflangan bo'lsa, 2000-yilda ushbu ko'rsatkich 12 milliardga yetgan. Yetakchi missionerlik markazlari qatorida «Missiyalar va butunjahon xristianlik maktabi» (Birmingem), «Genri Martin markazi» (Kembridj, Buyuk Britaniya), Grigorian va Urbanian universitetlari (Vatikan), «Xorijiy missiyalarni o'rGANISH markazi»ni (Nyu-Xeyven, AQSh) qayd etish mumkin.

Bibliyani turli tillarga tarjima qilish masalalarida turli uyushmalarning hamkorligi kelishib olingan. Mazkur konferensiya zamонавиј missionerlikning shakllanishiغا турки bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin kolonial tizim barbod bo'lgach, missionerlikdan sobiq koloniyalarda cherkovlarning mavqeyini saqlab qolish maqsadida foydalанилди. Jumladan, 1969-yilda Afrika qit'asida 16 ming erkak va 30 ming ayol missionerlar bo'lgan.

Missionerlar muayyan hududda o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda muhim mintaqalarni belgilab oladilar. Jumladan, hozirgi kunda xristian missionerlarining diqqat-e'tibori ular tomonidan «10-40 oyna» deb atalgan hududga qaratilgan. Ushbu hudud shimoliy kenglikning 10 va 40-paralellari orasidagi Atlantika okeani qирғоqlaridan Kichik va Markaziy Osiyo, Arabiston yarim oroli, Janubiy Osiyoning Tinch okeani qирғоqlariga qadar cho'zilgan.

Ushbu hududda aholisining aksariyat qismi islom, buddaviylik, konfutsiylik va hinduiylik dinlariga e'tiqod



Bevafolik  
qilmasang ahli  
vafo topilur.

*Alisher  
Navoiy*




## IJODIY FAOLIYAT

*10 va 40-paralellari orasidagi Atlantika okeani qирғоqlaridan Kichik va Markaziy Osiyo, Arabiston yarim oroli, Janubiy Osiyoning Tinch okeani qирғоqlariga qadar cho'zilgan hudud «mojarolar zonasи»dir.*

*Alfred Mexen, siyosatchi.*

Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy keskinliklar, qurolli mojarolarning aksariyati «10-40-oyna» ichidagi mamlakatlarda ro'y bermoqda. Bularning sababi nimada deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.



Baxtni  
birovlarning  
ostonasidan  
qidirishning  
o‘zi  
baxtsizlikning  
boshi.


*Abdulla  
Qahhor*

qiluvchi mamlakatlar joylashgan. Aynan mazkur hudda dunyodagi eng yirik gaz, neft, uran zaxiralari, qit’alararo strategik ahamiyatga ega transkommunikatsiya yo‘llari, bo‘g‘oz va ko‘rfazlar joylashgan.

1990-yillarda sobiq sotsialistik lager parchalanib ketishi munosabati bilan Sharqiylar Yevropa va sobiq Sovet Ittifoqi hududida vujudga kelgan mustaqil davlatlarda G‘arb mamlakatlaridagi turli protestant jamoalarining o‘ta faollashuvi kuzatildi. Mahalliy aholi uchun an’anaviy bo‘lmagan bunday diniy jamoa targ‘ibotchilar jamiyat va davlat oldida ijtimoiy totuvlikni saqlash bo‘yicha hech qanday mas’uliyat olmagan va his etmagan holda faqat o‘z safini kengaytirish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Masalan, Rossiyaning o‘zida 2000-yillarning oxirida 4,5 mingdan ziyod protestant cherkovi rasmiy ro‘yxatdan o‘tgani.

Bugungi kunga kelib, Ukraina protestant missionerlik tashkilotlarining MDH davlatlari ichidagi eng yirik qo‘nimgohiga aylandi. Mazkur mamlakatning qonunlarida chet elliklar uchun vizasiz kirish imkoniyati berilgan. Shuningdek, diniy tashkilotlarga xorijdan mustaqil xayriya yordamlarini olib, tarqatish ham ruxsat etilgan. Diniy targ‘ibotga cheklar qo‘yilmaganligi yangi diniy konfessiyalar, ayniqsa, yevangelchi protestant jamoalariga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Noan’anaviy diniy jamoalar konfessiyalararo nizolar chiqishi mumkinligini ham hisobga olmay o‘z safini kengaytirishga harakat qilishi og‘ir oqibatlarga olib keldi. Bir millatga mansub, bir tilda gaplashuvchi, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo‘lgan fuqarolarni diniy omil asosida bo‘lib tashlashga qaratilgan harakatlarni jamiyat uchun tahdid sifatida baholash mumkin.



### *Afrika qit'asida missionerlik*

Masalan, Afrika va Osiyo mintaqasidagi qator mamlakatlarda missionerlik va prozelitizm tub aholining diniy tarkibidagi muvozanatni buzishi oqibatida turli din vakillari orasida doimiy mojarolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, Afrikaning shimoli-sharqiylar qismida joylashgan Sudan Respublikasining asosiy neft zaxiralari joylashgan janubiy hududlari o'tgan asr davomida katalik va protestant missionerlari tomonidan faol xristianlashtirilgan edi.

2011-yili Afrikadagi eng yirik davlat hisoblangan Sudan Respublikasi ikkiga – musulmonlar ko‘philikni tashkil etuvchi Sudan va aholisining asosiy qismi xristianlardan iborat Janubiy Sudan Respublikasiga bo‘linib ketdi. Indoneziyaning xristianlashtirilgan shimoliy hududlari – Sumatra, Sulavesi va Molukko hududlarida



Inson o‘zi-ga-o‘zi bo‘ysunishni va o‘z qarorlariga itoat qilishni o‘rganmog‘i lozim.

***Sitseron***



### **IJODIY FAOLIYAT**

Sitseron «Inson o‘ziga-o‘zi bo‘ysunishni o‘rganmog‘i» deganida nimani tushundingiz? «O‘z qarorlariga itoat qilishni o‘rganmog‘i» degandachi? Fikringizni «Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat» tamoyili bilan bo‘g‘lab tushuntiring.



## IJODIY FAOLIYAT

Olgan bilimlaringiz asosida quyidagi rasmlarni izohlang.



muttasil ravishda musulmonlar va xristian prozelitlari o‘rtasida diniy nizolar asosida to‘qnashuvlar, qotilliklar, terrorchilik harakatlari ro‘y berib turadi.

2017-yilda musulmon aholisining soni bo‘yicha birinchi o‘rinda turadigan Indoneziyada 27324 nafar xristian missionerlari faoliyat yuritgan. Ayrim yangi paydo bo‘lgan diniy jamoalarda izdoshlarning ongini nazorat qilish, xo‘rlash va hatto o‘z-o‘zini o‘ldirishga majbur-lash holatlari kuzatilmoxda.

Markaziy Osiyo mintaqasi uchun noan’anaviy bo‘lgan yangi diniy jamoalarning safi asosan islom dina-niga e’tiqod qilgan tub aholi va avval pravoslav dinida bo‘lgan xristianlar hisobiga kengaymoqda. Dunyodagi barcha davlatlarda ham missionerlik qonunan man etilmagan bo‘lib, ularda missionerlar yangi diniy jamoalar-ning g‘oyalarini ochiq targ‘ib qilish imkoniyatiga ega. Targ‘ibot-tashviqot ishlari maxsus tele- va radiodastur- lar, internet tarmog‘i, e’lon va reklamalar orqali olib bo-rilmoxda.

O‘zbekistonda (2017-y.) ayrim diniy konfessiyalar-ning vakillari, shu jumladan, norasmiy jamoa a’zola-ri tomonidan diniy adabiyotlarni respublika hududiga olib kirish, aholi ichida o‘zlarining diniy ekspertizadan o‘tkazilmagan buklet, jurnal, elektron disklarini tarqa-tish kabi qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘ymoqda.

Dinini (e’tiqodini) o‘zgartirayotgan shaxslar (pro- zelit)larning aksariyati ushbu din aqidalarini chuqur tushunib qabul qilmay, balki missioner tomonidan qo‘llanilgan ta’sir ostida e’tiqodini o‘zgartirmoqdalar. Missionerlar o‘z faoliyatlarini quyidagi usullar orqali olib boradilar:



Bizning nafsi-  
miz shunchalik  
kuchliki, uni  
ham ichkaridan,  
ham tashqaridan  
qat’iy qoidalar-  
ga solgan taq-  
dirdagina tiyish  
mumkin.

*Maxatma  
Gandi*



Agar o‘qi-sang-u o‘yla-masang — chalkashib qolasan. Agar o‘ylasang-u o‘qimasang — shubha-gumon-lar tagida qolib ketasan.

**Konfutsiy**



## TARIXGA NAZAR

Missionerlarning faoliyati sababli XX asrning 70-yillarida AQShning San-Fransisko shahrida Jim-Jons ismli shaxs tomonidan asos solingan «Xalq ibodatxonasi» nomli tashkilot faoliyati natijasida 912 kishi, AQShning Texas shtatida Devid Koresh tomonidan shakllantirilgan «Dovud avlodi» nomli sekta faoliyati oqibatida 100 ga yaqin, AQShda paydo bo‘lgan «Osmon darvozasi» sektasi a’zolaridan 60 dan ortig‘i, Ugandada yuzaga kelgan «Xudoning o‘nta buyrug‘ini qayta tiklash harakati» sektasi a’zolarining 1000 dan ziyoridagi o‘z joniga qasd qilgan.

- yoshlarga ingliz, koreys tilini, kompyuterda ishlashni o‘rgatish bahonasida o‘quv kurslari ochish va mazkur joylarda o‘z diniga targ‘ib qilish;
- xorijga o‘qishga, ishga yoki chet el fuqarosi bilan oila qurish uchun jo‘natish bahonasidan foydalanish;
- bolalar va o‘smirlarni yoz faslida tog‘li hududlar-dagi dam olish lagerlariga jalb qilish va shu yerda ta’sir o‘tkazish;
- xayriya yordami ko‘rsatish (pul, dori-darmon, kiyim-bosh, oziq-ovqat mahsulotlari tarqatish), uy ta’mirlashda ko‘mak berish davomida missionerlik harakatlarini olib borish;
- bepul tibbiy yordam ko‘rsatish bahonasida bemorga ta’sir o‘tkazish;
- bepul ovqat tarqatish;
- ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarga echki, sigir olib berish, bayram kunlari mahallalarda bolalarga sovg‘alar tarqatish, «Muruvvat» va «Saxovat» uylarida bayram stollari tashkil etish.

Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasining mu-rakkab ekologik holat mavjud hududlarida «ichimlik

suvini yaxshilash», «bola va onalarning salomatligini mustahkamlash» kabi ko‘rinishidan hayrli maqsadlarga yo‘naltirilgan dasturlar doirasida aholi ichida missionerlik faoliyati olib borishga qaratilgan harakatlar ham kuzatilgan.

Mamlakatimizda missionerlik harakatlari, ya’ni bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday faoliyat man etilishi qonun hujjalarda belgilangan bo‘lib, bu ishlar bilan shug‘ullangan shaxslarni javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.



## **MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Birinchi xalqaro missionerlik tashkiloti qachon va qayerda tuzilgan?
2. Bugungi kunda qaysi din izdoshlari missionerlik faoliyatida yetakchilik qilmoqda?
3. Hozirgi kunda xristian missionerlarining diqqat-e’tibori qaysi hududga qaratilgan?
4. Sizningcha, missionerlik faoliyati qanday zararli oqibatlarga olib keladi?
5. 116-betdagи rasmlarga diqqat bilan qarang va missionerlar faoliyatining inson hayotiga ta’siri to‘g‘risida hikoya qiling.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hamda Jinoyat kodekslaridan missionerlik va prozelitizm bilan bog‘liq noqonuniy harakatlar uchun qanday javobgarlik belgilanganligini aniqlang.

# 25-§

## DINIY BAG'RIKENGLIK MADANIYATI VA KONFESSIYALARARO MULOQOT



### BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:

1. Diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurati.
2. O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalarida (OAV) diniy bag'rikenglik madaniyatining targ'ib qilinishi.
3. Diniy tashkilotlarning nashrlari va OAVdagi chiqishlari.

XX asrning 80-yillarida yuz bergan jarayonlar, din va diniy qarashlardan o'z manfaati yo'lida foydalanuvchi ayrim aqidaparast kimsalar islom dinini himoya qilish niqobi ostida qo'poruvchilik ishlari bilan shug'ullan-dilar. Diniy tusdagi partiyalar, diniy hokimiyat haqidagi g'oyalarni tarqata boshladilar. Moddiy qiyinchiliklar girdobiga tushib qolgan aholining kayfiyatidan foyda-lanib, hukumat bilan xalq o'rtafiga nifoq solishga urin-dilar. Namangan, Andijon, Farg'ona va Toshkentda tur-



### MA'LUMOT UCHUN

Bag'rikenglikning lug'aviy ma'nosi o'zganing sizga unchalik yoq-maydigan jihatiga sabr va toqat qilishdir. Bag'rikenglik (tolerantlik) so'zi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmun-ga ega. Bag'rikenglik tushunchasi chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamardlik kabi ma'nolarni qamrab oladi.

li-tuman mitingbozliklar avj oldi. Oxir-oqibatda soxta dindorlarning asl basharalari namoyon bo‘ldi.

XX asrning 80-yillarida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, kundalik turmush tarziga aylangan islom diniga qarshi kurash yanada keskinlashdi. U bid’at va xurofot sifatida qoralandi.

Biroq «din afyundir» degan dahriylik shiori xalqimizning qalbidagi dinga bo‘lgan imon-e’tiqodni so‘ndi-ra olmadi.

O’sha davrdagi respublika rahbariyati mamlakatda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglikni ta’minalash va barqarorlikni saqlash uchun barcha chora va imkoniyatlarni safarbar etdi. To‘planib qolgan muammolarni tezroq bartaraf etish uchun butun kuch va imkoniyatlarни jamlab, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish kerakligini uqtirdi. Bu borada zarur bo‘lgan ishlarni amalga oshirdi.

Muqaddas tuyg‘ulari toptalib, yuragi zada bo‘lib qolgan xalq dinga katta yo‘l ochilgani, diniy ta’limotga e’tibor berilayotganini mammuniyat bilan kutib oldi. Ayni vaqtda O‘zbekiston hududida o‘z madaniyati va an’alariga ega bo‘lgan 130 dan ortiq millat va elat




1989-yil voqealari



## IJODIY FAOLIYAT

«Keng fe’l, ketmas davlat bersin» degan tilakni qanday tushunasiz?

«Keng fe’llik» degan tushuncha bilan «bag‘rikenglik» tushunchasining o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?



Bir kun urush chiqqan uydan qirq kun baraka ketadi.

*Xalq maqoli*



«Sizlar bilan dinda urush qilmagan o‘zga din vakillari bilan bordi-keldi qiling, ular bilan adolatli muomala qiling».

*Qur’oni karimdagи «Mumtahana» surasi, 8, 9-oyatlar,  
Abu Lays  
Samarqandiy tafsiri*

vakillari yashab kelmoqda edi. Mamlakat milliy tarkibining asosiy qismini esa o‘zbeklar tashkil etardi.

Ana shunday vaziyatda ko‘p konfessiyali mamlakatimizda dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoldi.

Bag‘rikenglik haqida gapirilganida bu xalqimizning azaliy fazilati ekanligini ta’kidlash zarur. Qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy xristianlik ta’limotini o‘rganar ekan, Bibliyaga kirgan to‘rtta Injil haqidagi ma’lumotlarni keltirib, ular orasidagi farqlarni ham tahlil qilib bergen. Uning yozishicha, Xuroson mitropolitining qarorgohi Marv shahrida bo‘lgan. Bu esa o‘sha davrlarda musulmon aholisi bilan birga xristian jamoasi ham emin-erkin o‘z ibodatlarini amalga oshirganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan turli e’tiqod vakillari ham diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini yoqlaydilar. Masalan, Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasi sobiq rahbari, mitropolit Vladimir shunday fikrni ilgari suradi: «Pravoslavlik va Islom ikki xil dunyoqarashni o‘zida mujassam etgan dinlar ekani-



## TARIXGA NAZAR


Imom Abu Mansur Moturidiy (870-944) Qur’oni karimning «Haj» surasi, 40-oyatini tafsir qilib shunday deydi: «Cherkov va sinagogalarni vayron etish man etiladi. Shuning uchun ham musulmonlar yurtida shu davrgacha ular buzilmay saqlanib qolgan. Bu masalada ahli ilm orasida ixtilof yo‘qdir». Bu bilan olim musulmonlar boshqa din vakillari bilan bir jamiyatda birgalikda tinch hayot kechirishlarida muammo bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi.

ni ta'kidlash joiz. Shu bois ilohiyot borasidagi turli mu-nozaralar, xristianlik va musulmonlikning nozik ta'limatlari haqidagi bahslar keraksiz va ziyon yetkazishi mumkin. Biz oramizdagи farqlarni keskinlashtirmasdan, balki bir-birimizning madaniyat va e'tiqodimizga hurmat nuqtayi nazaridan qarashga harakat qilmog'imiz kerak», degan fikrni ilgari suradi. U ko'plab ilmiy ma-qolalarida, xalqaro konferensiyalarda yurtimizda musulmonlar bilan pravoslavlар orasida o'zaro hurmat qadim-dan shakllanganiga e'tibor qaratadi.

Mamlakatimizda tinchlik bo'lishidan turli konfessiya vakillari manfaatdor. Shu sababli ham yurtimizdagи turli din vakillari konfessiyalararo muloqotga oid tadbirlarni doimiy o'tkazib turilishini istaydi.

Bu tadbirlardan birida har bir konfessiya vakili o'z faoliyati haqida, millatlararo va konfessiyalararo nizolar kelib chiqmasligi uchun nima qilgani haqida to'xtalib o'tdi.

O'zbekiston Bibliya jamiyatи ijrochi direktori S. Mitin: «Diniy bag'rikenglik va qonun ustuvorligi bu



Musulmon-lar diyorida cherkov va ibodatxonalar buzilib ketgan bo'lsa, ularni o'z joyida yana qayta tiklab qo'yish mumkin.

*Burhoniddin  
Marg'inoniy*



## TARIXGA NAZAR

Tarixda «Hudaybiya sulhi» deb nomlangan tinchlik bitimida musulmonlarning tinchlikparvar siyosatlari Qur'oni karim oyatlari asosida ekanligi namoyon bo'ladi. Bu suhl zohiran musulmonlarning ziyoniga tuzilsa-da, islom dinining tinchlikparvarligini va qon to'kilishining oldini olishdagi o'rnini ko'rsatib berdi.

*«Agar ular sulhga moyil bo'lsalar, Siz ham unga moyil bo'ling va Allahga tavakkul qiling!»*

*Qur'oni karim, Anfol surasi, 61-oyat.*



Komil narsa ortiqchalikni ham, kam-chilikni ham qabul etmaydi.

*Abu Rayhon  
Beruniy*

ko‘p millatli davlat qurilishi lozim bo‘lgan poydevorning bir qismidir», – deb ta’kidladi.

Arman apostol cherkovi vakilining: «Hech kim o‘z dinini boshqalarga tiqishtirish yoki boshqa e’tiqoddagi larni kamsitish huquqiga ega emas»ligini, Fridrix Veliikiyning «Hamma dinlarga sabr-toqat bilan munosabatta bo‘lmoq darkor, chunki har bir inson najotga o‘z yo‘li bilan erishadi», deb ta’kidlashlari turli konfessiya vakillarining yurtimizdagi diniy bag‘rikenglik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashlaridan dalolat beradi.

O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan konfessiya vakillari turli e’tiqodda bo‘lgan fuqarolar o‘rtasidagi totuvlik va do’stlik rishtalarini mustahkamlashda o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Bugungi kunga qadar yurtimizda bag‘rikenglikning ijtimoiy mohiyati, namoyon



## IJODIY FAOLIYAT

Mazkur matndagi hikoyani tinchlikparvarlik va bag‘rikenglik tamoyillari bilan bog‘lang.

*Elchi Kastiliya qiroli huzuriga tashrif buyurib, Temurbeknning maktub-u sovg‘alarini, qimmatbaho toshlar va odatga ko‘ra u yuborgan kanizaklarni taqdim etdi. Ulug‘ davlatpanoh qirol Temurbek yo‘llagan maktub va sovg‘alarni qabul qilib, uning yozma va og‘zaki aytib yuborgan so‘zlarini tinglagach, do’stlik munosabatlarini mustahkamlash niyatida munosib sovg‘a-salomlarni tayyorlash va yuborishni buyurdi. Illohiyot magistri Fra Alfonso Poes de Santa Mariya, Rui Gonsales de Klavixo va qirolning shaxsiy soqchisi Homes de Salazarni Temurbek huzuriga elchilikka, ular orqali esa o‘z maktubi hamda sovg‘alarini yo‘llashga qaror qildi.*

*Rui Gonsales de Klavixo, «Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat» kundaligidan*



## IJODIY FAOLIYAT

II Jahon urushi davrida toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov oilasi turli millatning qarovsiz va yetim qolgan bolalarini farzandlikka ol-gan. Bular: Habiba, Vova, Shuhrat – rus, Hamidulla – ukrain, Rafiq, Rah-matulla – tatar, Xolida – moldovan, Samug‘ – chuvash, Yo‘ldosh, Ergash – yahudiy, Halima – qozoq, Qoravoy, Ne’mat, Muazzam, Ulug‘bek – o‘zbek.

II Jahon urushi yillarida xalqimiz tomonidan ko‘rsatilgan ma’naviy ja-soratni Shomahmudovlar oilasi timsolida tushuntiring. Fikringizni «millat-lararo totuvlik», «diniy bag‘rikenglik», «milliy va umuminsoniy qadriyat» tushunchalari asosida izohlang.



## MA’LUMOT UCHUN

Mamlakatimiz aholisi bugungi kunda 32 mln. dan ortiq bo‘lib, shulardan 80 % ini o‘zbek, 4,9 % ini tojik, 3,8 % ini rus, 3,6 % ini qozoq va 7,7 %ini boshqa turli millatlarga mansub kishilar tashkil etadi. Ko‘p millatli davlat ko‘p konfessiyalilikka asos bo‘ladi. Jami 130 dan ziyod millat va elat vakil-lari orasida islomdan tashqari xristianlik, yahudiylik, buddaviylik va boshqa konfessiyalarga e’tiqod qiluvchilar ham bor.



... biror qavm  
(kishilari)ni  
yoqtirmaslik  
sizlarni ularga  
nisbatan  
adolatsizlik  
qilishga  
undamasin.

*Qur’oni karim,  
Moida surasi,  
8-oyat*

bo‘lish shakllari, jamiyat taraqqiyotini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirildi.

O‘zbekistondagi konfessiyalar vakillarining o‘zaro hurmat asosida qurilgan munosabatlarini tarixiy jihatdan o‘rganish yurtimizda diniy bag‘rikenglik an’analari asrlar davomida shakllanganini ko‘rsatadi va bunday fazilatlarning yoshlar tafakkurida mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Diniy soha vakillari o‘z faoliyatlarini din va davlat munosabatlaridagi asosiy jihat – dinning siyosatga aralashmasligi, har qanday din, birinchi o‘rinda, ma’naviy-axloqiy jihatlarni o‘z ichiga olishi haqidagi tamoyilga tayangan holda amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatda tinchlik va barqarorlikka tahdid solishi mumkin bo‘lgan omillardan biri missionerlikdir. Qonunan man qilinganiga qaramay, amalda mavjud bo‘lgan diniy bag‘rikenglik tamoyillariga zid, dinlararo nizolariga olib keluvchi missionerlar faoliyatini tahliliy o‘rga-



## MA’LUMOT UCHUN

Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasidagi «tolerantlik» so‘zi o‘zbek tiliga «bag‘rikenglik» deb tarjima qilinganidan keyin u tilimizda o‘rnashib qoldi. Rus tilida «терпимость» so‘zi boshqachasiga aytganda «снисходительность», ya’ni bag‘rikenglik, kengfe’lllik ma’nolarini anglatadi. Diniy soha haqida gap ketganida ruslar «веротерпимость» so‘zini ishlatishadi. O‘zbek tilida «diniy bag‘rikenglik» iborasi aynan shunga mos keladi.

nish ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tolerantlik (bag'rikenglik) tushunchasi bu nafaqat ma'nnaviy burch, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj. Tariixiy manbalar o'lkamizda qadim zamonlardanoq zar-dushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi murakkab mafkuraviy tizimga ega dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganliklaridan darak beradi. Bunday holatni hozirgi O'zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konfessiyalarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin.

Ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatimizda millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan izchil davlat siyosati turli millat hamda barcha diniy konfessiya vakillarining emin-erkin yashashlari uchun mustahkam asos yaratdi. Bugungi voqelik buning yorqin isbotidir.

Konstitutsiya asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq: «Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvat-



Uning belgilardan (yana biri) – osmonlar va Yerni yaratishi va sizlarning tillaringiz va ranglaringizning xilma-xilligidir. Albatta bunda barcha olamlar uchun alomatlar bordir.

*Qur'on'i karim,  
Rum surasi,  
22-oyat*



## IJODIY FAOLIYAT

Mazkur matndagi «U inson emasmi?» iborasini siz qanday tushundingiz? Insoniylik, odamiylik deganda nimani tushunasiz?

«Nabiy (alayhis-salom) oldidan janoza olib o'tildi. Shunda u zot o'rinalardan turdilar. Odamlar: «Yo Rasululloh, bu yahudiyning janozasи», — deyishdi. U kishi: «U inson emasmi?» — dedilar.

*Imom Buxoriy rivoyati*

laydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar».

Markaziy Osiyodagi musulmon va boshqa konfessiyalarga mansub aholi o‘rtasidagi munosabatlар ham siyosiy, ham maishiy darajada ikki asosiy xususiyatga asoslangan, bular o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikdir. Bu munosabat turli din vakillarining murakkab tarixiy jarayonlar sinovlarini mardonavor yengib o‘tishlari natijasida shakllangan. Mamlakatda tinchlik, taraqqiyot va farovonlikni ta’minalash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida barcha diniy konfessiya vakillari yurtimizda va xorijda tashkil etilayotgan ma’naviy va ma’rifiy tadbirdarda ishtirok etib kelmoqdalar.

Shuningdek, mamlakatda dinlararo totuvlikni qo‘llab-quvvatlashda hamda turli nizo va murakkabliklarni keltirib chiqaruvchi missionerlik kabi xatti-harakatlarga qarshi amalga oshirilayotgan tadbirdarda faol qatnashmoqdalar. Ularning xalqaro anjumanlarda mamlakatimizda e’tiqod erkinligini ta’minalash, millatlararo va dinlararo totuvlikni barqarorlashtirishda amalga oshirilayotgan islohotlar haqidagi ma’ruzalari dunyo jamoatchiligining mazkur islohotlar bilan yaqindan tanishuvida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday munosabat davlat tomonidan ham taqdirlanmoqda. Mitropolit Vladimirning «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlangani buning yorqin dalilidir.



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish zaruratining vujudga kelishi qanday omillar bilan bog‘liq?
2. Diniy bag‘rikenglik islom dinida va milliy urf-odatlarimizda qanday talqin etiladi?
3. Mamlakatda tinchlik, barqarorlikni saqlashda bag‘rikenglikning o‘rni qanday? Fikringizni misollar bilan asoslang.

# 26–27-§ O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM



## BUGUN DARSDA QUYIDAGILAR BILAN TANISHASIZ:


1. O'zbekistonda diniy ta'limga tarixiy ildizlari.
2. O'zbekistonda faoliyat yuritgan madrasa va seminariyalar.

## O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIMNING TARIXIY ILDIZLARI

Vatanimiz tarixida diniy ta'limga uzoq o'tmishtga borib taqaladi. Ilk o'rta asrlardayoq yurtimizda keng miyosda faoliyat yuritgan madrasalarda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlar ham o'qitilgan. O'z davrida madrasalar o'rta maxsus hamda oliy ta'limga vazifasini to'laqonli bajargan.

Toshkent, Buxoro, Samarcand, Xiva kabi shaharlar eng yirik ilm markazlari bo'lib, XV–XIX asrlarda bu yerlar butun musulmon olamining oliy ta'limga vazifasini sifatida tan olingan.

Podshoh Rossiyasi istilosidan keyingi davrlarda madrasalar faoliyati sustlashdi. Ayrimplari yopilib ham ketdi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib, ja-



Insonlarni  
yaxshilikka  
chaqiruvchi va  
yomonlikdan  
qaytarguvchi  
bir ilmdir.

*Abdulla  
Avloniy*



## YAQIN TARIXDA

XIX asr oxiriga kelib Buxoro amirligida 336, Xiva xonligida 132, Turkiston o'lkasida esa 348 ta madrasa ro'yxatga olingan edi.



Ey, inson farzandi, sen dastlab ilmli bo'l, u senga otangdek bo'lsin. So'ngra sen parxezkor bo'lgan, u senga mehribon onangdek bo'lsin. O'zingni ular bag'rida tutgin, shunda Yaratgan seni balo-ofatlaridan saqlaydi.

*Mahmud  
Zamaxshariy*

did maktablari faoliyat ko'rsata boshladi. Toshkent, Samarqand, Qo'qon shaharlari jadidchilik maktablari ning markaziga aylandi.

1917-yilning boshlarida Turkistonda 100 ga yaqin yangi usul maktablari faoliyat yuritib, ularda 4 mingdan ortiq o'quvchi ta'lim olgan. Bu maktablarda islom dini asoslari bilan bir qatorda chet tili, fizika, kimyo, matematika, psixologiya, gigiyena, agronomiya, iqtisod, hisob-kitob kabi zamonaviy fanlar o'qitilgan.

Sovet Ittifoqi tuzilgach, din va madrasalarga qarshi ayovsiz kurash avj oldi. Biroq, Ikkinci jahon urushi yillarida sovet davlati o'z siyosiy manfaatlari yo'lida dinga munosabatini biroz yumshatdi.

1943-yilda Toshkentda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasi tashkil etilib, uning faoliyati O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston respublikalarining islomiy diniy tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat bo'ldi.

1945-yilda Buxoroda Mir Arab madrasasi uzoq yillik tanaffusdan so'ng qayta ishga tushirildi. Keyinroq Toshkentdagi Baroqxon madrasasi faoliyatini boshlab, 1971-yilda u Imom Buxoriy nomli Toshkent islom instituti nomini oldi. 1990-yilga qadar sobiq Sovet hududida mazkur ikki bilim yurtidan boshqa islomiy ta'lim muas-



## TARIXGA NAZAR

Mang'itlar hukmronligi davrida Buxoro amirligida ko'plab yirik inshootlar – Shayx Jalol darvozasi va honaqoh (XVIII asr 2-yarmi), Domullo Tursunjon madrasasi (1796-97), Xalifa Xudoydod ansamblı (1777–1855), Chorminor (1807), Amir madrasasi (XX asr boshlari), Sitorai Mohi Xosa (XIX–XX asr boshlari) va boshqa bino hamda inshootlar barpo etildi.

sasalari bo‘lmagan. Ular asosan, O‘rta Osiyo musulmonlari diniy boshqarmasi (SADUM

— Среднеазиатское духовное управление мусульман) huzurida masjid imomlarini tayyorlashga ixtisoslashgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng diniy ta’lim sohasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Davlat ro‘yxatidan o‘tgan madrasalar, diniy-madaniy obyektlar O‘zbekiston Musulmonlari idorasini tasarrufiga topshirildi. Bugungi kunda yurtimizda qator diniy ta’lim muassasalari faoliyat olib bormoqda.

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti 1971-yil 1-oktabrda tashkil etilgan bo‘lib, Baroqxon madrasasi binosida joylashgan. 2007-yilda Toshkent islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishi munosabati bilan Hastimom Majmuasi qayta qurildi va ushbu institut ham yangi binoga ega bo‘ldi. Bugungi kunda institut Hastimom me’moriy majmuasi tarkibidadir.

«Mir Arab» o‘rta maxsus islom bilim yurti (Buxoro sh.) — Shayx Said Abdulla al-Yamani tomonidan Amir Ubaydullaxon mablag‘lariiga 1530–1536-yillarda barpo etilgan.

«Mir Arab» oliy madrasasi (Buxoro vil.) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yilda tashkil etilgan. Mazkur oliy ta’lim muassasasi Buxoro viloyati Kogon tumanidagi Bahouddin Naqshband ziyoratgohi hududida joylashgan.



Toshkent islom instituti binosi



Buxorodagi «Mir Arab»  
oliy madrasasining ochilish  
marosimi



Halol odamni  
ta'qib qilish  
mumkin, ammo  
uni sharmanda  
qilib bo'lmaydi.

*Volter*

«Ko'kaldosh» o'rta maxsus islom bilim yurti (Toshkent sh.) 1569–1570-yillarda Baroqxon tomonidan qurdirilgan. 1999-yilda ushbu madrasa o'rta maxsus bilim yurti sifatida qayta ochildi.

«Sayyid Muhyiddin Maxdum» o'rta maxsus islom bilim yurti — 1992-yil Andijon viloyati Oltinko'l tumani Jalabek qishlog'ida barpo etilgan.

«Mulla Qirg'iz Oxund» madrasasi – 1914–1915-yillarda Namangan viloyatida Atulloxon tomonidan barpo etilgan. 2014-yilda «Hidoya» nomi bilan o'rta maxsus islom bilim yurti sifatida qayta tashkil etilgan.

«Faxriddin ar-Roziy» o'rta maxsus islom bilim yurti — 1992-yilda Xorazm viloyatining Xonqa tumani «Xudoyquli Eshon bobo» masjidi binosida o'z faoliyatini boshlagan. 1994-yili Urganch shahrida joylashgan «Doshqinjon bobo» tarixiy binosiga ko'chirilgan.

«Xoja Buxoriy» o'rta maxsus islom bilim yurti – 1992-yilda Qashqadaryoning Kitob tumanida tashkil

## IJODIY FAOLIYAT



Berilgan matnni o'qing va quyidagi savollarga javob bering.

1. Islom dinida ilm-fanga e'tibor berishdan va targ'ib etishdan qanday maqsadlar ko'zlangan?

2. Ilm-fan rivojining qo'llab-quvvatlanishi qanday natijalar bergen?

*Dunyoda birinchi kasalxonaga 707-yilda musulmonlar tomonidan (davlat tarafidan moliyalashtirilgani uchun uni hozir «byudjet tashkiloti» deb nomlashgan bo'lar edi) asos solindi. Mazkur kasalxonada hamshiralar xizmat ko'rsatishi yo'lga qo'yildi va tibbiyot institutlari faoliyat ko'rsata boshladi. Ko'p asrlar mobaynida aynan musulmon shifokorlar ko'z kasalliklarini tekshirish va davolash bo'yicha mutaxassislar hisoblanganlar.*

etilgan. Madrasaga Saidahmad Vali Kulohdo‘z Xoja Buxoriy nomi berilgan.

«Muhammad Beruniy» o‘rta-maxsus islam bilim yurti — 1992-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukusda ochilgan. Bilim yurti Nukusdagi «Imom Eshon» jome masjidi binosida joylashgan.

«Jo‘ybori kalon» ayol-qizlar o‘rta maxsus islam bilim yurti (Buxoro sh.) — XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Buxoro hokimi Abdulazizzon farmoni bilan barpo qilingan. Madrasa 1992-yilda faoliyatini qayta yo‘lga qo‘ygan.

«Xadichai Kubro» ayol-qizlar o‘rta maxsus islam bilim yurti (Toshkent sh.) — 1993-yili o‘z faoliyatini boshladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda Buxoro va Termez davlat universitetlarida Islom tarixi va



*Toshkent islam instituti  
bitiruvchilari*



## TARIXGA NAZAR

Me’mor Ismoil ibn Tohir Mahmud Isfahoniy Mirzo Ulug‘bek buyurtmasi bilan 1417-yilda Buxoroda madrasa qurishni boshlagan. Madrasaning yog‘och darvozasiga «Ilmga intilmoq har bir muslim va muslima uchun farzdir» hadisi sharifini arab tilida naqshinkor yozuvlar bilan bitgan. Darvozaning temir halqasiga hukmdor Mirzo Ulug‘bek ruhiyatiga xos bo‘lgan ushbu jumلالарни олимга qattiq mehr qo‘ygan yosh usta me’morlardan biri yozib qoldirgan: «Ilm durdonalaridan bahramand bo‘lgan odamlarga Alloh taolo rahmat eshigini ochgay».



*Hech qachon  
ilm o'rganish  
ishida uzilish  
yuz bermasligi  
kerak, negaki,  
bu katta  
yo'qotishga  
olib boradi.*

**Burhoniddin  
Marg'inoniy**

manbashunosligi ta'lif yo'nalishi ochildi. Shuningdek, Samarqandda ilohiyot va hadisshunoslik, Buxoroda tasavvuf, Qarshi shahrida aqoid, Marg'ilonda islom huquqi ilmiy maktablari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra O'zbekiston musulmonlari idorasining O'zbekiston islom akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi.

Farmonga ko'ra O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi O'zbekiston musulmonlari idorasи va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita muassisligidagi Qur'on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha malakali



## **MA'LUMOT UCHUN**

Xalqaro maorif byurosining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, Saudiya Arabistonni va Yaman bugungi kunga kelib diniy ta'lif uchun eng ko'p o'quv soatlari ajratiladigan mamlakatlar hisoblanadi. Jumladan, diniy ta'lif uchun umumta'lif maktab o'quv dasturining dastlabki 6 yilda Saudiya Arabistonida 1458 soat (shu davrgacha bo'lgan umumiyo'quv soatlarining 31 foizi), Yamanda esa 1104 soat (shu davrgacha bo'lgan umumiyo'quv soatlarining 28 foizi) ajratiladi. Ayni paytda, ushbu ko'rsatkichlar boshqa istalgan mamlakatdagiga nisbatan uch baravar yuqori ekanini ham alohida ta'kidlash joiz.

*Manba: www.islamcenter.uz*




*O'zbekiston  
xalqaro islom  
akademiyasi*

kadrlarni tayyorlashga, o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish bosqichlari-da uzlusiz ta'limning yaxlit tizimini tashkil etishga va ilmiy merosni chuqur tadqiq qilish va asrab-avaylash-ga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Muassasa respublikadagi barcha islom ta'lim muassasalari faoliyatini o'quv-me'yoriy va o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Akademiya O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Shuningdek, Farmonga ko'ra, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bitiruvchilariga umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi belgilab qo'yildi.



*... Vaqt ni  
«essiz»,  
«qaniydi»,  
«koshkiydi» lar  
bilan o'tkazgan  
kishining umri  
eng qisqa umr  
ekan.*

*Najmiddin  
Kubro*



— Haq  
hikmatini  
ilmingdan afzal  
bil.

— Ilmingni  
ehtiyyot qil.

**Moturidiy**



Bilimsiz kishi-  
larning ko'ngli  
xurofotga  
moyil bo'ladi.

**Abu Rayhon  
Beruniy**

Yurtimizda Rus Pravoslav va protestantlikka oid To'liq injil xristianlari cherkovlarining diniy seminariyalari ham faoliyat olib bormoqda.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda boshqa diniy konfessiyalarining ta'lif muassasalari ham faoliyat ko'rsatishlariga imkoniyatlar ochildi. Xususan, 1998-yildan Pravoslav hamda Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsata boshladи.

Rus pravoslav cherkovining Toshkent diniy seminariysi besh yillik muddatga mo'ljallangan ta'lif muassasasi hisoblanadi. U yerda kelajakda rus pravoslav cherkovining Markaziy Osiyo mintaqasidagi va boshqa yeparxiyalarida ishslash imkoniyatiga ega bo'lgan diniy xizmatchilar va oliy diniy ma'lumotli mutaxassislar ta'lif oladi.

Chor Rossiyasi davrida Toshkentda ochilgan xristian seminariyalari hisobga olinmasa, Toshkent diniy seminariyasining tarixi unchalik katta muddatni o'z ichiga olmaydi.

1990-yilda Arxiyerey rahnamoligida ikki yillik ta'limga mo'ljallangan Toshkent diniy bilim yurti ochilgan. Ilgari hech qanday bazaga ega bo'lmagan Rus pravoslav cherkovining Toshkent diniy bilim yurti tezda oyoqqa turdi. Mashg'ulotlar uchun joy topildi, doimiy o'qituvchilar tarkibi shakllandi, talabalar esa turar joy va issiq ovqat bilan ta'minlandi.

1998-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasi hukumatining sa'y-harakatlari bilan qator binolar, bugungi kunda Svyato-Uspensk soboriga tegishli bo'lgan hududlar ajratib berildi. Shundan so'ng Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi idorasida to'laqonli oliy ma'lumotli diniy xizmatchilarni chiqara oladigan Diniy seminariya tashkil etildi.



## TARIXGA NAZAR

Amir Shohmurod barcha tashlab qo‘yilgan vaqf mulklari («diniy fondlar»), ulardan tushadigan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar hisobidan barcha eski madrasa, masjid, honaqoh, mакtab, mozorlarni qayta tikladi hamda yangi madrasa va masjidlar qurilishida shaxsan o‘zi bosh-qosh bo‘ldi. Madrasa mudarrislari, muftiyalar, imomlar, qozilar va boshqa diniy mansablarga tayinlashda ularning shariat huquqiy normalariga amal qilish darajasini, ularning huquqiy bilimlarini va huquqiy savodxonligiga qarab lavozimga tayinlar edi. O‘z sohasida ko‘p yil ishlagan, shariat huquqi normalarini o‘sha davr talabi darajasida bilmagan qozilar, imomlar, muftiyalar hamda madrasa mudarrislari Amir Shohmurodning farmoni bilan o‘z lavozimidan ozod etildi. U shariat huquqi normalarini chuqur o‘zlashtirgan madrasa talabalariga soliqlar hisobidan qo‘shimcha talabalik haqlari berish bilan madrasa talabalarini qo‘llab-quvvatlar edi. U nafaqat o‘zining islom huquqi normalarini keng ta’lim jarayonida isloh ettirdi, balki butun Buxoro amirligining barcha viloyatlarida islom huquqi normalarini bilishni amalda talab etdi va buning uchun ulkan imtiyozlar va sovg‘alarni va’da qildi. Tarixnavis olim Xumuliyning ta’kidlashicha, amir Shohmurod «olimlar va viloyat beklaridan amirlikning barcha hududlaridagi masjid va madrasalarda aholiga haqiqiy islom huquqi normalariga asoslangan odat va majburiyatlarni tushuntirishni hamda ularning shar’iy-huquqiy bilimlari darajasini yanada oshirishni talab qilgan».



## MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston hududidagi eng yirik ilm markazlari qaysilar?
2. Sovet Ittifoqi davrida yurtimizda qanday diniy ta’lim muassasalari faoliyat yuritgan?
3. Mustaqillik yillarda diniy ta’lim sohasida qanday islohotlar amalga oshirildi?
4. Yurtimizda qanday noislomiy diniy ta’lim muassasalari mavjud?



## GLOSSARIY

**Altar** — (lot. «baland») xristian cherkovida ibodatxonaning mehrob va minbar o‘rnatilgan eng baland qismi.

**Apokalipsis** (Vahiynama) — «Yangi Ahd»ning tarkibiy qismi bo‘lib, uni «Injil» mualliflaridan biri Ioann ilohiy ilhom orqali yozgan, deb e’tiqod qilinadi.

**Aqida** — arab tilida biror narsani bir-biriga bog‘lash ma’nosini anglatadi. Istilohda esa aqoid ilmining mashhur nomlaridan biri.

**Dyakon** (yunoncha «xizmatchi») — xristian cherkovlaridagi eng quyi ruhoniylilik darajasi.

**Ekstremizm** — o‘z maqsadi yo‘lida turli haddan ortiq keskin chora-tadbirlar ko‘rishga tarafdarlik.

**Evolutsionizm** — dinshunoslikda din ham dunyoning shakllanishi kabi bosqichma-bosqich soddadan murakkabga qarab rivojlangan degan g‘oyani ilgari suruvchi ta’limot.

**Fanatizm** — mutaassiblik.

**Faqih** — fiqh ilmining bilimdoni.

**Fatvo** — fiqhning dinda paydo bo‘lgan yangi muammolarni Qur’onga zid kelmaydigan ravishda hal qilib chiqargan fiqhiy hukmi.

**Fiqh** (arab. «tushunish») — shariat qonun-qoidalalarini o‘rganuvchi fan.

**Fundamentalizm** — ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish ta’limoti.

**Gebrlar** — Erondagi zardushtiylik diniy e’tiqodini saqlab qolgan etnokonfessional guruhlari. Gebrlar rasman mayda millat hisoblanib, bugungi kunda Eronda 45 ming kishini tashkil etadi. Ular asosan Tehron, Kirmon kabi shaharlar va ularning atorflarida yashaydilar.

**Hadis** (arab. «yangi; so‘z») — Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning aytgan so‘zлari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.

**Haniflik** — islomdan avval Arabiston yarim orolida mavjud bo‘lgan yakkaxudolik g‘oyasi.

**Harom** — islom ta’limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat’iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal.

**Ikona** — xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular cherkovlarda ibodat buyumi bo‘lib xizmat qiladi.

**Indulgensiya** — katolik cherkovi tomonidan dindorlarning qilgan gunohlari kechirilganligi haqida ularga berilgan guvohnoma.

**Jihod** (arab. «jiddu jahd qilish»; «g‘ayrat qilish») — biror ishni mukammal bajarish uchun bor kuch-g‘ayrat va salohiyatni sarflash. Islom dinida bu so‘z bosqinchi va isyonchilarga qarshi eli, yurti, vatani himoyasiga chiqqan kishilarning amaliyotlariga nisbatan ham ishlatilgan. Jihod deganda, bugungi kundagi mutaassib guruuhlar talqin etayotganidek, tinch aholi ustiga urush ochish tushunilmaydi.

**Kalom** (arab. «so‘z; nutq») — Mo‘taziliylar paydo bo‘lgandan keyingi aqida ilmining nomi.

**Kardinallar kollegiyasi** — Rim katolik cherkovidagi oliy kengash.

**Karomat** (arab. «ulug‘lik; buyuklik») — islom ta’limotiga ko‘ra, Alloh tomonidan uning do‘satlari — avliyolarga ato etiladigan sehrdan farqli g‘ayrioddiy qudrat.

**Kirxa** (nemischa «cherkov») — lyuteran cherkovlarining nomi.

**Kosmogoniya** — astronomiyaning osmon jismlari, ularning paydo bo‘lishi va o‘zgarishlari haqidagi bo‘limi. Bu yerda osmon jismlarini ilohiylashtirish.

**Kostel** (polyakcha, chexcha «cherkov») — Rim katolik cherkoviga qarashli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama.

**Meditatsiya** (lot. «fikrlash; o‘ylash») — buddaviylikda shaxsning ruhiy faoliyatga chuqur berilish holati.

**Mistitsizm** (qad. yunon. «yashirin, sirli») — ilohiyot olami bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta’limot.

**Mitropolit** (qad. yunon. «bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami») — pravoslav cherkovining poytaxt shaharlardagi oliy ruhoniylilik unvoni.

**Modernizm** — dinni hozirgi zamon voqeligiga moslashtirishni yoqlab chiquvchi oqim.

**Monoteizm** (qad. yunon. «*mono*» — «yagona», «*teo*» — «ilohiyot») — yakkaxudolik.

**Murid** (arab. «xohlovchi») — so‘fizm yo‘liga kirib, murshidga qo‘l bergen shogird.

**Murshid** (arab. «to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi») — so‘fizm yo‘liga kirganlarni hidoyatga boshlovchi ustoz, shayx.

**Mushrik** — islom ta’limotiga ko‘ra, Allohga shirk keltiruvchi, ko‘p xudolikda ayblangan odam.

**Mutaassiblik** — o‘z g‘oyasini «to‘g‘ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg‘unchilikda ayblash.

**Oyat** (arab. «belgi; mo‘jiza») — Qur‘on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlalar».

**Papa** — xristianlikda katolik oqimining bosh ruhoniysi.

**Parslar** — Hindistondagi bugungi kunda zardushtiylikka e’tiqod qiluvchilar.

**Patriarx** (qad. yunon. «ota, asos soluvchi») — ortodoksal cherkovdagi (pravoslaviye) oliy diniy martaba bo‘lib, undagi 14 ta avtokefal — mustaqil cherkovlar boshliqlari shu nom bilan ataladilar.

**Politeizm** (qad. yunon. «*poli*» — «ko‘p», «*teo*» — «xudo») — ko‘p xudolik.

**Qudsiy hadis** — ma’nosи Alloh taolodan bo‘lib, aytilishi, ya’ni lafzi Rasulullohdan bo‘lgan hadislar.

**Sahih hadis** (arab. «sog‘lom; to‘g‘ri») — olimlar tarafidan ishonchli, to‘g‘ri deb topilgan hadis.

**Sunna** — islomda «Payg‘ambar yo‘li».

**Tafsir** (arab. «bayon qilish») — Qur'on oyatlariga o'ziga xos ravishda ma'no berish.

**Tavakkul** — islom ta'limotiga ko'ra, o'z irodasini Allohga ishonib topshirish.

**Terrorizm** (fr. «qo'rqtish») — o'z fikrini zo'ravonlik yo'li bilan boshqalarga o'tkazish. Bu yo'lida suiqasd, qo'poruvchilik kabi usullardan foydalaniladi.

**To'liq injil xristianlari** — protestantlikdagi eng yirik yo'nalishlardan biri bo'lgan pyatidesyatniklikning ikkinchi nomi.

**Tobein** (arab. «ergashuvchilar») — Payg'ambar sahabalarini ko'rghan va ularga ergashgan kishilar.

**Traditsionalizm** — an'anachilik, naql (taqlid) tamoyiliga asoslanuvchi oqim.

**Vojib** — hanafiy mazhabi ta'limotiga ko'ra, Qur'oni karimda buyrug'i ochiq va aniq aytilmagan, ammo bajarilishi shart bo'lgan amal.

**Yahudo** — Ya'qub payg'ambarning farzandlaridan biri. Uning avlodlari «yahudiylar» deb ataladi.

**Yahve** — yahudiylik ta'limotiga ko'ra, dunyolarni yaratgan yagona qudratli iloh.

**Yasht** — Avestoning 1-qismi.

**Yepiskop** (qad. yunon. «nazorat qiluvchi») — ko'p xristian cherkovlarida — oliv iyerarx. Barcha arxiyereylarning (patriarx, mitropolit, arxiyepiskop) umumlashgan nomi.

**Zakot** (arab. «tozalanish; poklanish») — islomning besh ruknidan biri. Mol-mulk nisobiga (muayyan miqdorga) yetgach, uning qirqdan biri (2,5 %) belgilangan muhtoj kishilarga sadaqa sifatida beriladi.

**Shar** (arab.) — yomon, yomonlik.

# Mundarija

Kirish.....	3
1-§. O‘zbekistonda xavfsizlik va barqarorlik muhitini shakllantirish .....	4
2-§. Dinshunoslikdagi zamonaviy tendensiyalar .....	10
3-§. Davlat va din munosabatlari .....	18
4-§. Din va ijtimoiy hayot.....	23
5-6-§. Markaziy Osiyo dinlari.....	30
7-§. Jahon dinlari manbalari: buddaviylik va xristianlik .....	34
8-9-§. XX–XXI asrlarda islom.....	38
10-11-§. XX–XXI asrlarda islom dinidagi oqimlar va sektalar.....	43
12-13-§. O‘zbekistonning xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi o‘rni.....	55
14-15-§. XX–XXI asrlarda tariqatchilik .....	65
16-17-§. XX–XXI asrlarda din va madaniyat.....	72
18-19-§. XX–XXI asrlarda diniy an’ana va marosimlar .....	83
20-21-§. Zamonaviy axborot tarmoqlari va din omili .....	90
22-23-§. XX–XXI asrlarda dunyoning konfessional manzarasi.....	100
24-§. XX–XXI asrlarda missionerlik va prozelitizm .....	112
25-§. Diniy bag‘rikenglik madaniyati va konfessiyalararo muloqot .....	120
26-27-§. O‘zbekistonda diniy ta’lim.....	129
Glossariy .....	138

Zohidjon Mahmudovich ISLOMOV,  
Durbek Obidjonovich RAHIMJONOV,  
Jasur Xotamjonovich NAJMIDDINOV,  
Nargiza Kamaritdinovna ISMATOVA

O'quv nashri

## DUNYO DINLARI TARIXI

O'rta ta'lif muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus,  
kasb-hunar ta'lifi muassasalari uchun darslik

Birinchi nashr

Toshkent — «Yangiyul Poligraph Service» — 2018

Nashriyot litsenziyasi AI №185, 10.05.2011.

Muharrir O'. Jo'rayev  
Texnik muharrir M. Riksiyev  
Musahih A. Toshpo'latov  
Rassom J. Azimov

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 9.07.2018.  
Bichimi 70x90  $\frac{1}{16}$ . «Times New Roman» garniturasi. Ofset qog'ozzi.  
Offset bosma usulda bosildi.  
Bosma tabog'i 9,0. Sh. b. t. 10,53.  
Nusxasi 469363.  
Buyurtma № 4740.

«Yangiyul Poligraph Service» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 44-uy

## Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Darslik ijara berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mayjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.